T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti

# UZLUKSIZ TA’LIM

ILMIY-USLUBIY JURNAL

2021, № 3

*DJURAYEV Risbay*
**Bosh muharrir**

Jurnal 2001 yildan nashr qilina boshlangan.
O‘z MAAdan 2007 yil 3-yanvarda № 0101-tartib raqami bilan qayta po‘yxatdan o‘tgan.

Jurnalda e’lon qilingan maqolalardan iqtibos keltirilganda «Uzluksiz ta’lim» jurnalidan olinganligi ko‘rsatilishi lozim.

**Tahrir hay’ati:**

*Sherzod SHERMATOV*
*Uzoqboy BEGIMQULOV*
*Alisher UMAROV*
*Nargiza RAXMANQULOVA*
*Xolboy IBRAGIMOV*
*Shavkat QURBONOV*
*Roxatoy SAFAROVA*
*Islom ZOKIROV*
*Dono G‘ANIYEVA*
*Lobar QARAXANOVA*
*Dusmurod DJURAYEV*

**Tahririyat manzili:**

100027, Toshkent sh.,
Furqat ko‘chasi,
174-uy.

O‘zPFITI

Tel.: (71)-245-92-34
(93)-503-52-07
e-mail: uzluksiztalim_jurnal@mail.ru
liya_2305@mail.ru

## TA'LIM MAZMUNI UZLUKSIZLIGI

3 ***A.Sulaymonov***
Talabalarning grafik savodxonligi tizimida arxitekturaviy stillar uzviyligining didaktik ahamiyati
8 ***A.R.Meliboyev***
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy faoliyatini takomillashtirish
12 ***J.I.Xomidjonov***
Uzluksiz ta'lim tizimida «Tibbiyot fizikasi» fani samaradorligini oshirishda hamkorlikda o'qitish texnologiyasidan foydalanish
17 ***T.E.Eshquvvatov***
Uzluksiz ta'lim tizimida nizolar profilaktikasining ilmiy metodologik aspektlari
22 ***Z.A.Begimqulov***
Uzluksiz malaka oshirish jarayonida jismoniy tarbiya instruktorlari va o'qituvchilarining ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirish
27 ***A.Eshmurodov***
Ta'limda innovatsiya: mohiyati va mazmuni
31 ***B.Mullayev***
Pedagogik fanlarni mukammal o'rganishda rivojlantiruvchi ta'limning innovatsion imkoniyatlari
37 ***B.Sobirov***
Uzluksiz ta'lim tizimida pedagog kadrlarning umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmlari
42 ***N.Karimova***
Uzluksiz professional ta'limda kompetensiyalarni baholash metodlari
47 ***N.O.Temirov***
Kimyo fani uzluksizligini ta'minlashda bo'lajak o'qituvchilarni intengrativ yondashuv asosida fanga oid kompetensiyasini rivojlantirish
52 ***D.Abidova***
Uzluksiz ta'limda o'quvchi-talabalarni intellektual kompetentligini shakllantirish zaruriyati

## UZLIKSIZ TA'LIM TIZIMIDA MEDIATA'LIM: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

57 ***L.M.Qaraxonova***
Biologiya darslarida axborotlashgan muhitni tashkil etish – samaradorlik omili
63 ***M.B.Niyozov***
Uzluksiz ta'lim tizimida informatika va axborot texnologiyalari fanlarida turli darajadagi nazorat topshiriqlaridan foydalanish
69 ***Р.Х.Джураев, З.Каримова***
Педагогические условия дистанционного обучения молодежи

## MA'NAVIY TARBIYA

74 ***Z.T.Nazarova***
Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini amalga oshirishdan kutilayotgan natijalarning pedagogik xususiyatlari
79 ***N.T.Misirova, S.B.Xo'jaqulova***
Boshlang'ich sinf matematika darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish yo'llari
83 ***F.M.Ko'chkarova, L.O.Shabdullayeva***
O'quvchilarni kitob mutolaasiga qiziqishlarini shakllantirish
87 ***X.S.Ibragimova***
Umumta'lim maktablari o'quvchilariga musiqiy ritmik harakatlarni o'rgatish

## KASBGA YO'NALTIRISH VA PSIXOLOGIK XIZMAT

90 ***D.A.Mamatqulov, M.B.Ongarov***
O'quv-dala amaliyotida talabalarning kasbiy metodik tayyorgarligini rivojnlantirish orqali maktab o'quvchilari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish
95 ***D.Elmuratova, R.Xujamkulov***
O'qituvchilarning metodik tayyorgarligini oshirish yo'llari
100 ***Z.S.Rasulova***
Ta'lim tizimida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning psixologik muammolari
103 ***М.Дж.Тошматова***
Формирование коммуникативных компетенций учителей в непрерывном образовании
106 ***Я.А.Фахриддинов***
Основы диагностики подготовки профессионалов к профессиональной деятельности

# TALABALARNING GRAFIK SAVODXONLIGI TIZIMIDA ARXITEKTURAVIY STILLAR UZVIYLIGINING DIDAKTIK AHAMIYATI

***A.SULAYMONOV,***
*Toshkent arxitektura-qurilish instituti dotsenti, p.f.n.*

*Maqolada arxitektura ta'limida talabalarning kompozitsion kompetensiyalarini shakllantirishning tarixiy-nazariy asoslari, bu jarayonda arxitekturaviy stillar, elementlar va detallarning funksional vazifalaridan kelib chiqqan holda sintetik tatbiq etish vositasida tasviriy san'at turlarining mazmunini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari ochib berilgan. Shuningdek, maqolada zamonaviy arxitektura namunalarida tarixiy me'moriy an'analarning tatbiqiy xususiyatlari bayon etilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *arxitekturaviy stil, detal, element,stil, uzviylik, tasviriy san'at turlari, ta'lim mazmuni, takomillashtirish, talaba, kompetensiya, sintez, tatbiq etish, shakllantirish.*

*В статье раскрывается историко-теоретические основы формирования композиционных компетенций студентов, дидактические возможности совершенствования содержания видов изобразительного искусства исходя из функциональных задач архитектурных стилей, элементов и деталей средствами их синтетического применения Также в статье излагаются особенности использования исторических архитектурных традиций в современных архитектурных сооружениях.*

***Ключевые слова:*** *архитектурный стиль, деталь, элемент, стиль, преемственность, виды изобразительного искусства, содержание образования, совершенствование, студент, компетенция, синтез, внедрение, формирование.*

*The article reveals the historical and theoretical foundations of the formation of students' compositional competencies, the didactic possibilities of improving the content of visual arts based on the functional tasks of architectural styles, elements and details by means of their synthetic application.The article also describes the features of the use of historical architectural traditions in modern architectural structures.*

***Key words:*** *architectural style, detail, element, types of fine art, educational content, improvement, student, competence, synthesis, implementation, formation.*

Insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida uzviylik va uzluksizlikka asoslangan evolyusion jarayon rivojlanishning asosiy omillaridan biri hisoblangan. Bu omilni jamiyatning barcha sohalarida kuzatish mumkin. Ayniqsa, insoniyatning turmush tarzini mukammallashuvi, intellektual salohiyatini rivojlanishi, birinchi navbatda, uning turmush (yashash) tarzi hamda ta'lim tizimida o'zining yaqqol aksini topdi. Insonlarning yashash tarzining milliy-hududiy xususiyatlarini tavsiflovchi asosiy parametr – arxitektura ko'rinishlarida integratsion holatlar, ayrim stil va konstruktiv yechimlar sintezi kuzatilsa-da, har bir mintaqa, millatning o'ziga

xos arxitekturaviy stillari shakllanib, rivojlanib borgan. Biroq, hududiy o'ziga xoslik arxitekturaning yetakchi parametrlaridan biri bo'lib qolaveradi. Buni Sharq va G'arb arxitekturasida yaqqol kuzatish mumkin. Zero, ularning konstruktiv yechimida ayrim sintetik o'xshashliklar bo'lsa-da, milliy o'ziga xoslik saqlanib kelingan. Samarqand, Buxoro, Xivadagi arixitekturaviy yodgorliklar fikrimizning dalilidir, ya'ni arxitekturaviy stillarning muayyan ko'rinish va darajadagi transformatsiyasi qo'llanilgan holda milliy-hududiy xususiyat arxitekturaviy yechimning asosiy ko'rsatkichlaridan biri sifatida qabul qilingan. Shuningdek, sharqona arxitetkraviy stillarda funksional muvofiqlik va badiiy bezaklarning o'ziga xosligiga alohida ahamiyat berilgan. Ayni paytda, Sharqona arxitekturaviy yechimlarning uzluksiz rivojlanib borishida stillarning sintetik qo'llanilishini zamonaviy milliy arxitektura namunalarida ham ko'rish mumkin. Bu borada Temuriylar tarixi davlat muzeyi binosini stillar sintezning zamonaviy tendensiyalarga asoslangan tatbiqiy yechimi sifatida e'tirof etish mumkin. Bu omil, ayniqsa, bino intererida yaqqol ko'zga tashlanadi. Unda ichki gumbazning sharqona konstruksiyasi, naqshinkor bezaklari, gumbazning asos qismidagi xattotlik namunalari, intererning asosiy qismidagi "Sanoyi nafisa" guruhi tomonidan ishlangan "Buyuk Sohibqiron – buyuk bunyodkor" nomli triptix monumental devoriy rangtasvir tarixiylik va zamonaviylik prinsiplariga monand tarzda yaxlit kompozitsiyani tashkil etgan. Shu tariqa binoning ichki qismi kompozitsiyasida stillar sintezining zamonaviy talqinini ko'rish mumkin. Bu omillar o'quv materialining asosiy xususiyatlaridan biri sifatida arxitektura ta'limida muhim ahamiyat kasb etadi.

Muzeyning tashqi ko'rinishi stilistik-kompozitsion konstruksiyasiga ko'ra sharqona an'anaviy yechimga ega bo'lib, "... 14 yog'och o'ymakorligidagi eshik o'ziga xos. Atrofi peshayvonli, qator ustunli (20 ta, balandligi 10 metr, muqarnas boshali, poy ustuni kulrang marmardan ishlangan), turunjlari sirkori sopol bilan bezatilgan, binoning tashqi devori yuzasida "suls" uslubida insonni yaxshilikka undovchi so'zlar yozilgan"[7, 370-b.]. Tarbiyaviy mazmundagi bu bitiklar, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, me'morlikning sharqona an'anasini zamonaviy talqini sifatida baholanishi mumkin. Aynan shu jihat arxitektura ta'limida ham tarixiy-an'anaviy, ham zamonaviy tarzda o'quv materialini uzluksizlik prinsipi asosida taqdim etish imkonini beradi.

Ayni paytda alohida e'tirof etish joizki, zamonaviy milliy arxitekturada antik davr arxitekturasi elementlaridan foydalanish urfga aylanib bormoqda. Ayniqsa, pilyastr, balyasina, karniz, kapitel, ustun kabi arxitekturaviy detallar nafaqat jamoat joylarida, balki aholining yangitdan barpo etayotgan xonadonlari qurilishida ham

keng qo‘llanilmoqda. Shuning uchun ham arxitektura ta’limida yuqoridagi elementlar, asosan, qalamtasvir darslarida o‘qitilishini yo‘lga qo‘yilishi bugungi kun talabi bilan tavsiflanadi. Bundan ta’limiy maqsad – talabalar, bo‘lajak arxitektorlarda sohaga oid muayyan kompetensiyalarni shakllantirishga oid o‘quv materiallarini o‘zlashtirish bilan bog‘liq. Didaktikaning tarixiylik va zamonaviylik prinsipi asosiga quriladigan bu turdagi darslarda uzluksizlikka asoslangan turli stillar sintezi arxitektura ta’limi amaliyotiga tatbiq etiladi. Zero, zamonaviy shaharsozlikda tarixiy me’moriy an’ana va qadriyatlar, zamonaviy tendensiyalarning sintezi yetakchi tendensiya sifatida e’tirof etilmoqda. Tabiiyki, arxitektura ta’limida ham bu omil alohida ahamiyat kasb etadi. Demak, zamonaviy O‘zbekiston arxitekturasida konstruktiv tizimlar uzluksizligi kuzatilayotgan bugungi sharoitda bu omil arxitektura ta’limida o‘qitiladigan qalamtasvir, rangtasvir va haykaltaroshlik darslarida ham o‘z amaliy tatbiqini topishi lozim.

Tasviriy san’at tarixida taniqli rassomlar tomonidan ishlangan arxitekturaviy detallar va ob’ektlarning tasvirlari ham qo‘llanishi lozim. Bu tasvirlarda arxitekturaviy stillar va ularning sintetik tatbiqi haqida muayyan tasavvur hosil qiladi. Fransuz arxitetkori Le Korbyuze arxitetkrura tarixi va uning stillarini rivojlanish bosqichlarini o‘rganishda usta rassomlarning ishlarini o‘rganish bo‘lajak arxitektorlar tayyorlashning muhim jihatlaridan biri ekanligini alohida e’tirof etgan.

Arxitekturada yunon stilini qo‘llash 9-asrda yashagan Buyuk Karl davrida boshlanib, antik davr me’morligining “Birinchi Renessansi” deb nom olgan. Bu stil 10-asrga kelib Buyuk Otton davrida yanada taraqqiy etib, me’morlik tarixida Otton davri deb ham atalgan[1, 32-b.].

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, O‘zbekiston me’morligida qadimiy arxitekturaviy detallar, elementlar qo‘llanilayotgan bugungi kunda zamonaviy yondashuvlar, tendensiyalar bilan bir qatorda milliy an’analardan kelib chiquvchi me’moriy loyihalarni yaratishda stillar sinteziga milliy-hududiy muhit, me’morlik san’atida qadriyat sifatida e’tirof etiladigan konstruksiya, shakl, elemen va detallarga ustuvor tarzda e’tibor qaratish talab etiladi. Bu muammoning ilmiy-amaliy yechimlaridan biri sifatida bo‘lajak arxitektorlar tayyorlash tizmida stillar sinteziga oid o‘quv materiallaridan foydalanishning uzluksizlikka asoslangan garmonik mutanosiblikdagi ta’lim mazmunini qo‘llash talab etiladi.

Jahon miqyosida yuz berayotgan o‘zgarishlar, taraqqiyot omillari go‘zallikni baholashning yangidan-yangi mezonlariga asolanadi, ya’ni har bir davr uchun o‘ziga xos go‘zallikni anglatuvchi parametrlari mavjud. Arxitektura sohasi ham

bundan mustasno emas. Biroq har qanday sharoitda ham tarixiylik va zamonaviylikni uzviyligi hamda uzluksizligi tarixiy qadriyatlar bilan zamonaviy texnologiyalarni optimallashtirish talab qiladi. Shu ma'noda arxitektura ta'limida tasviriy san'at turlarini, ayniqsa, qalamtasvir o'quv fani darslarida Antik davrga mansub materiallar bilan bir qatorda tasavvurdagi qalamtasvir, ularning abstrakt usullari, fazoviy kompozitsiyalar,arxitekturaviy kompozitsiya kabi mavzular talabalarda turli usullarda me'moriy loyihalar uchun kompozitsion yechim topish, bu jarayonda turli davr va maktablarga xos stillardan tasviriy-ifodaviy vositalarda sintetik tarzda foydalanish kompetensiyalarini shakllantirish imkoniyatini beradi. Aynan shu ta'limiy jarayonda talabalarda milliy-tarixiy me'moriy an'analarga oidtasavvurlarni shakllantirish bo'lajak arxitektorlar tayyorlashning muhim vazifalaridan biridir.

Demak, zamonaviy arxitektura ta'limida yuqoridagi stillarning kombinatsiyalarini qo'llash bilan bog'liq nazariy bilim hamda amaliy-tasviriy faoliyat kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim amaliyoti qo'llanishi maqsadga muvofiq.

Bo'lajak arxitektorlarning tasviriy faoliyatining o'ziga xosligi shundaki, arxitektura yo'nalishida ta'lim olayotgan talaba "tasvirlanayotgan buyumni harakatda, rivojlanishda ko'radi uning (ob'ektning, naturaning, A.S.) tashqi ko'rinishini idrok etish bilan cheklanmay, strukturasi va konstruksiyasini" [5, 3-b.]. tasavvur qilgan holda tasvir hosil qiladi, ya'ni professional arxitektor faoliyatining muhim aspektlaridan biri – "qalamtasvirni atrof-muhitni o'rganish, kuzatish va tadqiq etishda" [5, 3-b.]. uning obrazini anglash vositasi sifatida qo'llaydi.

Arxitektura ta'limida qo'llanishi lozim bo'lgan me'moriy stillardan biri, shubhasiz, Uyg'onish davri arxitekturasi, va ayniqsa, buyuk me'mor, rassom va haykaltarosh Mikelanjeloning ijodiy faoliyatidir, ya'ni bugungi kun arxitekturasining badiiy-estetik parametrlari tizimida relefsimon tasvirga muayyan koloritda ishlov berilgan devoriy kompozitsiyalar keng miqyosda qo'llanilmoqda. Ayniqsa, elit maqomidagi tantanalar zallari, umumiy ovqatlanish maskanlarining devorlari aynan shunday stillarda bezatilmoqda. Bundan xulosa qilish mumkinki, arxitektura ta'limi mazmunidagi tasviriy san'at turlari bo'yicha o'quv dasturlari mazmunini shu turdagi o'quv materiallari asosida takomillashtirish lozim bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan dalillar asosida xulosa qilish mumkinki, talabalarning grafik savodxonligi tizimida, xususan, kompozitsion faoliyatda qo'llanishiga oid ijodiy ishlarda o'ziga xos didaktik ahamiyat kasb etadi. Arxitekturaviy

kompozitsiyalarda muayyan stillarni shakllanishi va taraqqiy etishida, birinchidan, insoniyat tamadduni, jamiyat taraqqiyoti hamda insonlarning turmush tarzi hamda estetik ehtiyojlarining ortib borishi u yoki bu stillarni kashf etilishiga asos bo‘lgan. Ikkinchidan, me’morlik konstruksiyasi va kompozitsiyalarida qo‘llanilgan stillar, avvalo, milliy-hududiy xususiyat kasb etgan.

Dunyo arxitekturasi tarixidan ma’lumki, turli mintaqa va davlatlar, davrlarga mansub stillar muayyan davr o‘tishi bilan yangicha interpretatsiyada, shuningdek, me’morlikning turli maktablariaro sintetik tatbiq evaziga rivojlanib borgan. Shuning uchun ham zamonaviy arxitektura ta’limida, jumladan, tasviriy san’at turlarini o‘qitish amaliyotida tarixiy-nazariy ma’lumot, materiallardan zamonaviy sharoitda foydalanish vositasida ta’lim mazmunini takomillashtirib borish talab etiladi. Arxitekturaviy qalamtasvir tasviriy san’atning alohida yo‘nalishi sifatida nafaqat tasviriy san’at asari, balki buyumlar, ob’ektlarning konstruktiv xususiyatlari, detallarning o‘zaro nisbatlari va funksional munosabatlarini tasviriy vositalarda talqin qilish hamda tasvirlash amaliyoti hamdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Зейферт М.Г. Преемственность в образовании архитектурных стилей. Известия КТАСУ, 2011. №4. – С.32 – 37.
2. Искусство: Живопись. Скульптура. Архитектура. Графика. В3 ч. / сост. М.В.Алпатов, Н.Н. Ростовцев. – М.: 1989.
3. Коробьин М.Ю., Сагитов А.Г. Рисование бытовых предметов и архитектурных деталей. Учебное пособие. – М.: МАРХИ, 1986.
4. Кошеутова О.Л. Преемственность архитектурно-художественного образования в процессе довузовской и вузовской подготовки. Автореф. дис. …кандидата педагогических наук. – Омск: 12016. – 18 с.
5. Осмоловская О.В. Рисунок. Учебное пособие. – М.: 2008. – 165 с.
6. Соколов Н.В. Рисование малых архитектурных форм и деталей. Учебное пособие. – М.: МАРХИ, 1998.
7. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 8-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2004. – 704 б.

# BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING NUTQIY FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH

***A.R.MELIBOYEV,***
*Jizzax viloyati XTXQTMOHM dotsenti, p.f.n*

*Maqolada boshlang'ich sinflarda o'quvchilar nutqi xilma-xil so'zlar bilan boyitilishi, kuzatish va ko'rgazmali qurollar asosida bilim olish, tushunchalarni shakllantirish vositasi hisoblanishi haqida fikrlar yuritilgan.*
***Tayanch so'z va iboralar:*** *nutq madaniyati, fikr, tafakkur, orfoepik talaffuz, PIRLS, ko'nikma.*

*В статье утверждается, что в начальной школе речь учащихся обогащается множеством слов и что это средство приобретения знаний и формирования понятий на основе наблюдений и наглядных пособий.*
***Ключевые слова***: *культура речи, мышление, мышление, орфоэпическое произношение, PIRLS, навык.*

*The article argues that in elementary school, the speech of students is enriched with many words and that this is a means of acquiring knowledge and forming concepts based on observations and visual aids.*
***Key words***: *culture of speech, thinking, thinking, orthoepic pronunciation, PIRLS, skill.*

Nutq madaniyati jamiyat madaniy taraqqiyoti, millat ma'naviy kamolotining muhim belgisidir. Mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy islohatlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi deb e'lon qilingan bugungi kunda nutq madaniyati masalalari har qachongidan ham dolzarblik kasb etadi.

Respublikamizning "Davlat tili" haqidagi Qonuni, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va boshqa hujjatlarida ma'naviy-ma'rifiy tarbiya, til masalalariga alohida e'tibor berilgan. Har qanday kadr, eng avvalo, o'z ona tilining chinakam sohibi bo'lmog'i lozim. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 29-avgustdagi IX sessiyasida so'zlagan nutqida: "O'z fikrini mutlaqo mustaqil, ona tilida ravon, go'zal va lo'nda ifoda eta olmaydigan mutaxassisni, avvalambor, rahbar kursisida o'tirganlarni bugun tushunish ham, oqlash ham qiyin"[1] - deb ta'kidlaydi va "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarini oladigan bo'lsak, asarda "Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tibori avvalambor farzandlarimizning unib-o'sib, ulg'ayib, qanday inson bo'lib hayotga kirib borishiga bog'liqdir. Biz bunday o'tkir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak"[2] degan gapi bilan boshlangan.

“Biz ta’lim va tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o‘zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz”[3], deb O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2016-yil 8-dekabr kuni Konstitutsiyamiz qabul qilingan kunning 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali yig‘ilishida qilgan ma’ruzalarida ta’lim va tarbiya tizimi masalasiga keng e’tiborni qaratib o‘tgan edi. Bu fikrdan ham ko‘rinib turibdiki, ta’lim va tarbiyaning yosh avlod hayotidagi roli hamda ahamiyati katta.

Nutq madaniyati hozirgi davrda dolzarb muammolaridan biridir. Tafakkur nutq yordamida ro‘y berib, shu tufayli kishilar bir-birlari bilan aloqa bog‘laydilar. Nutq madaniyati esa biror tilda to‘g‘ri so‘zlash va yozish, o‘sha tilda fikri qisqa va aniq, sodda va obrazli, uslub jihatdan ravon ifodalash demakdir.

Nutq madaniyati hozirgi davrda dolzarb muammolaridan biridir. Tafakkur nutq yordamida ro‘y berib, shu tufayli kishilar bir-birlari bilan aloqa bog‘laydilar. Nutq madaniyati esa biror tilda to‘g‘ri so‘zlash va yozish, o‘sha tilda fikri qisqa va aniq, sodda va obrazli, uslub jihatdan ravon ifodalash demakdir.

Tinglovchida kuchli taassurot qoldirish va kishining nutqi noaniq bo‘lmasligi uchun dastlab til qoidalarini puxta bilish lozim.

Tafakkur til materiali yordamida nutqiy shakllantirilsa va bayon ettilsagina muvaffaqiyatli o‘sadi. Tushuncha so‘zlar yoki so‘z birikmalari bilan ifodalanadi, shunday ekan, tushuncha til vositasi bo‘lgan so‘zda muhim aloqa materialiga aylanadi. Kishi tushuncha ifodalaydigan so‘z (so‘z birikmasi)ni bilsagina, shu tushunchaga asoslangan holda, tashqi nutqda fikrlash imkoniga ega bo‘ladi.

Nutqda fikr shakllantiriladi, shu bilan birga, fikr nutqni yaratadi. “Nutq tafakkur bilan chambarchas bog‘langandir. Nutq bo‘lmasa, tafakkur ham bo‘lmaydi, til materiali bo‘lmasa, fikrni ifodalab berib bo‘lmaydi”[4].

Fikrni nutqiy shakllantirish uning aniq, tushunarli, sof, izchil, mantiqiy bo‘lishini ta’minlaydi. Tilni egallash shu tilning fonetikasini, lug‘at sostavini, grammatik qurilishini bilib olish, fikrni takomillashtirish uchun, tafakkurni o‘stirish uchun shart-sharoit hozirlaydi. Bilimlar, faktlar, har xil axborotlar tafakkurning ham, nutqning ham materialidir.

Nutq tafakkur jarayonini o‘rganishning muhim vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Nutqdan o‘quvchining fikriy rivojining asosiy o‘lchovlaridan biri sifatida foydalaniladi. O‘quvchining barcha predmetlardan materialni o‘zlashtirishi va umumiy aqliy rivojlanishi haqida fikr yuritganda, u yoki bu mavzuni bola o‘z nutqida (yozgan inshosida, axborotida, qayta hikoyalashda, savollarga bergan

javobida) qanday bayon eta olishiga qaraladi.

Shunday qilib, nutqni tafakkurdan ajratib bo‘lmaydi, nutq tafakkur asosida rivojlanadi, fikr nutq yordamida pishib yetiladi, yuzaga chiqadi. Ikkinchi tomondan, nutqning o‘sishi fikrni shakllantirishga yordam beradi, takomillashtiradi.

O‘quvchilar nutqini o‘stirish boshqa o‘quv predmetlaridan o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar bilan ham uzviy ravishda bog‘lanadi.

Boshlang‘ich sinflardagi boshqa darslarda ham o‘quvchilar nutqi xilma- xil so‘zlar bilan boyitiladi. Kuzatish va ko‘rgazmali qurollar bu darslarda ham bilim olish, tushunchalarni shakllantirish vositasi hisoblanadi.

O‘qituvchi fan xususiyatlarini o‘zlashtirishga ko‘maklashish bilan bog‘liq holda, o‘quvchilar tafakkurini, nutqini o‘stiradi. O‘qituvchi mavzu mazmunigagina emas, balki shu mazmunni bolalar nutqda to‘g‘ri shakllantirishiga ham e’tibor bersa, bu darslarda o‘quvchilar egallaydigan bilim haqiqiy, ular nutqining o‘sishi uchun samarali vosita bo‘ladi. “Fikrni aniq shakllantirishni talab qilish, masala shartini ongli takrorlatish, mustaqil masala tuzdirish va savollar yordamida masalani yechish yo‘lini tushuntirish ko‘nikmasi ustida ishlash o‘quvchilarda qayta hikoyalash, insho va muhokama qilish madaniyatini o‘stiradi”[5].

O‘quvchilar nutqini o‘stirishda o‘qituvchining nutq madaniyati katta ahamiyatga ega. O‘qituvchi barcha darslarda, sinfdan va maktabdan tashqari marg‘ulotlarda faqat orfoepik talaffuz va adabiy til normalariga rioya qilgan holda ifodali, ta’sirli so‘zlashi, shuningdek, har doim o‘quvchi daftariga barcha hujjatlarga husnihat va imlo qoidalariga rioya qilgan holda yozishi zarur. Bu bilan o‘quvchilarni ifodali so‘zlashga, xatosiz, chiroyli yozishga o‘rgatadi, tilga sezgirlikni uyg‘otadi.

“Mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi davriga qadam qo‘ygan hozirgi kunda O‘zbekiston Respublika sini 2017–2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi asosida barcha sohalarda keng ko‘lamli o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ana shu islohotlarning muvaffaqiyati, mamlakatimizning dunyodagi rivojlangan, zamo naviy davlatlar qatoridan munosib o‘rin egallashi, avvalo, ilm-fan va ta?lim-tarbiya sohasining rivoji bilan, bu borada bizning dunyo miqyosida raqobatdosh bo‘la olishimiz bilan uzviy bog‘liq...” deb O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlab o‘tgan.

Ta’lim sifati va samaradorligini oshirish yo‘lida xorijiy ilg‘or tajribalarni o‘rganish, xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyatga egaligi[6] ushbu qo‘llanmada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish (PIRLS - Progress

in international reading literacy study) savodxonligini baholash bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matnni o‘qib tushunish ko‘nikmalarini qay darajada rivojlanganligini aniqlash maqsadida 2-sinf o‘qish[7] darsligining "Hakka bilan Tulki (O‘zbek xalq ertagi)" ertagini misol qilishimiz mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq, 1997.- B. 9.

2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.- B. 1.

3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi //Adolat, 2016-yil. 8-dekabr.

4. Qosimova K. va boshqalar. Ona tili o‘qitish metodikasi.- T.: Noshir, 2009.- B. 302.

5. Qosimova K. va boshqalar. Ona tili o‘qitish metodikasi.- T.: Noshir, 2009.- B. 306-307.

6. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash (Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo‘llanma). Ta’lim inspeksiyasi huzuridagi Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. - Toshkent, 2019-yil, 92 bet.

7. G‘afforova T. va boshqala. O‘qish kitobi: 2-sinf uchun darslik/ T.G‘afforova, Sh.Nurullayeva, Z.Mirzahakimova. Mas’ul muharrir N.Mahmudov – T.: "Sharq", 2018. 146-147-b.

# UZLUKSIZ TA’LIM TIZIMIDA “TIBBIYOT FIZIKASI” FANI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA HAMKORLIKDA O‘QITISH TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

***J.I.XOMIDJONOV,***
*FarPI “Fizika” kafedrasi assistenti*

*O‘qituvchi tibbiyot fizikasi darsini tashkil qilishda o‘qitish usulining turli shakllaridan (ma’ruza, og‘zaki bayon qilish, masalalar yechish, amaliy ish, ko‘rgazmalilik va boshqa shakllardan) foydalanishi mumkin. Shuningdek, darslarni o‘tishda dars berishning turli noan’anaviy usullaridan bahs-munozara, bayon, boshqotirmalar, elyektron qo‘llanmalar va multimedialardan foydalanish tavsiya etiladi. Shularga tayangan holda o‘qituvchi izlanuvchanlik bilan talabalarni fanga bo‘lgan ijodiylik hissini uyg‘ota bilishi zarur. O‘qituvchi talabada “Menga tibbiyot fizikasi zarur, uni bilish, hayotda qo‘llashning uddasidan chiqishim kerak”- degan intilishni uyg‘otshi zarur. Buning uchun maqolada маъruza xamkorlikda o‘qitish texnologiyalarni qo‘llash metodikasi bayon etilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Tibbiyot, fizika,, motivasiya, innovasion usullar, texnologiya, laboratoriya, bilim, ko‘nikma, faol, jarayon, metod.*

*При организации урока медицинской физики учитель может использовать различные формы методики обучения (лекция, устная презентация, решение задач, практическая работа, демонстрация и другие формы). Также рекомендуется использовать различные нетрадиционные методы обучения, такие как обсуждение, повествование, головоломки, электронные руководства и мультимедиа. Исходя из этого, учитель должен уметь прививать ученикам творческое начало в науке. Учитель должен вдохновить ученика сказать: «Мне нужна медицинская физика, чтобы знать ее, чтобы уметь применять ее в жизни». Для этого использование педагогических технологий на уроках дает хорошие результаты.*

***Ключевые слова:*** *медицина, физика, мотивация, инновационные методы, технология, лаборатория, знания, умение, актив, процесс, метод.*

*The teacher can use different forms of teaching method (lecture, oral presentation, problem solving, practical work, demonstration and other forms) when organizing a medical physics lesson. It is also recommended to use various non-traditional methods of teaching, such as discussion, narration, puzzles, electronic manuals and multimedia. Based on this, the teacher must be able to instill in students a sense of creativity in science. The teacher should inspire the student to say, «I need medical physics, to know it, to be able to apply it in life.» To do this, the use of pedagogical technologies in the classroom gives good results.*

***Key words:*** *Medicine, physics, motivation, innovative methods, technology, laboratory, knowledge, skill, active, process, method.*

Oliy ta’limda hal etishi lozim bo‘lgan muhim masalalardan biri talabalarning fan asoslarini mustaxkam o‘zlashtirishlarini ta’minlash, ularni to‘g‘ri, ilmiy dunyo qarashini tarbiyalash, ijodiy bilish qobilyatlarini o‘stirish, o‘qitishni

hayot bilan bog‘lanishini taminlash, o‘quvchilarning mehnat, ahloq va estetik tarbiyalashni yaxshilash hisoblanadi. Bu masalalarni hal etish darajasi universitet yoki institutning hamma o‘quv va tarbiya ishlarini tashkil etishiga bog‘liq. Ammo bu ishlarning natijalari sifatida asosiy rolni dars, hususan, unda foydalaniladigan o‘qitish metodlari o‘ynaydi. Quyidagi 1-jadvalda an’anaviy va texnologik o‘qitishning o‘ziga xos jihatlari tahlil etilgan.

Faqatgina ishonch va o‘zaro hurmat muhiti har bir talabaga samimiy bo‘lish, o‘z fikrlarini bemalol bayon etish hamda begona nuqtai nazarni egallash – o‘rganishga imkon beradi.

Talabalar turli darajalarda muloqat qilish ehtiyojiga egalar va o‘qituvchi (ta’lim beruvchi)ning vazifasi ushbu ehtiyojlarni qondirish uchun muhit yaratishdan iboratdir. Ayrim talabalarda bir-biri bilan, boshqalarida o‘qituvchi bilan, uchinchilarida esa – o‘quv materiali bilan muloqat qilishga kuchli ehtiyoj tug‘iladi.

**1-jadval**

**An’anaviy va texnologik o‘qitishning qiyosiy tahlili**

| Mezonlar | An’anaviy o‘qitish | Texnologik o‘qitish |
|---|---|---|
| Maqsad | Bilim berish, ko‘nikma shakllantirish | Hamkorlikdagi faoliyat orqali bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish |
| O‘rganuvchining roli | Ko‘rsatmalarga bo‘ysunadi; Axborotni passiv qabul qiladi; axborotni o‘zlashtiradi; o‘rganish jarayoni uchun qisman mas’ul | O‘z g‘oyalarini taklif qiladi; o‘zaro bog‘langan; faol ishtirok etadi; ta’lim jarayoniga to‘liq mas’ul |
| O‘qishga qiziqtirish (motivasiya) | Tashqi jamiyat tomonidan taъziq ko‘rsatiladi (oila, din, urf-odatlar va sh.k.); talaba shu damda o‘qishning foydasini sezmaydi | Ichki qiziqtiruvchi omillar. Talaba shu zahotli foydani anglaydi |
| Mazmun tanlovi | O‘qituvchi nazorat qiladi. Talaba qisman tanlaydi yoki umuman bunday huquqqa ega emas | Ta’lim mazmuni talabalar tanlagan muammolarini yechishga yo‘naltirilgan |
| Jarayon | detyektiv (ko‘rsatmali) yondashuv talqin qiladi va baholaydi mavzu bo‘yicha ko‘proq va yaxshiroq biladi mutaxassislik tilida so‘zlaydi | demokratik yondashuv tinglaydi, qo‘llab quvvatlaydi, har bir kishining fikri va g‘oyalarini qabul qilishga tayyor talabalar tilida so‘zlaydi |
| Usullar (metodlar) | Talaba dalillar, axborot oladi | O‘qitish talabalarning bilim va ko‘nikmasiga asoslanadi |
| Qaror qabul qilish | Qarorni o‘qituvchi qabul qiladi | Qaror birgalikdagi faoliyat davomida qabul qilinadi hamda guruh va o‘qituvchining muvaffaqiyatli hamkorligi natijasi hisoblanadi |

Har bir talaba e'tirof va hurmatga nisbatan tabiy ehtiyojga ega. O'qituvchining mas'uliyati – talabalar bir-birini kamsitadigan, uyaltiradigan emas, balki bir-birining gapiga quloq soladigan, boshqalarning fikrini o'rganadigan va shu bilan boshqalarga hurmatini bildiradigan muhitni yaratishdan iboratdir. O'qituvchi har bir talabaning dars davomida birgalikdagi ishga qo'shgan hissasini ta'kidlab o'tishi uchun imkon topishga harakat qilishi lozim.

Insonda bir nima qilish va yaxshiroq natijalarga erishish bo'yicha tabiiy ehtiyoj mavjud. Mashg'ulotlar jarayonida talabalar aniq topshiriqni bajarayotganlarida yaxshiroq natijaga erishishni hohlaydilar. Mashg'ulot jarayonida uning natijasi ular bajarayotgan topshiriqning mukammal bo'lishiga qanday qilib yordam berishi mumkinligini bilmoqchi bo'ladilar. Bunday ehtiyojlarning o'sib boruvchi chizig'i mavjud, ya'ni avval past darajadagi keyin esa yuqori darajadagi ehtiyojlar [1].

Ta'lim sifatini yaxshilash, talabalarning intellektual faolligini oshirish bugungi kunda pedagogikaning bosh vazifasi hisoblanadi. Intellektual faollikni oshirishda interfaol usullardan foydalanish yaxshi samara beradi. Bu esa ta'lim jarayonida yangiliklarni joriy etishni talab etadi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi har bir talabaning tahsil olishdagi muvafaqqiyati guruh muvafaqqiyatiga olib kelishini anglagan holda mustaqil va sidqidildan aqliy mehnat qilishga, o'quv topshiriqlarini to'liq va sifatli bajarishga o'quv materialini puxta o'zlashtirishga, o'rtoqlariga hamkor bo'lib, o'zaro yordam berishga zamin tayyorlaydi.

Psixolog A.V. Petrovskiy jamoadagi shaxslararo munosabatlar faoliyatdan kelib chiqishini o'rganib, ta'lim jarayonidagi o'qituvchining talabalar bilan hamkorligini tashkil qilish faqat ularni muloqotga ehtiyojini qondirish vositasi emas, balki o'quv materialini o'zlashtirishning ham vositasi ekanligini ta'kidlagan edi.

O'zaro hamkorlikning muhim omili va talabalarning o'zaro munosabati xususiyatini belgilovchi asos o'qituvchi bilan talaba hamkorligining shakllaridir. Hamkorlikdagi o'quv faoliyati o'qituvchi va talaba munosabatlarining va birgalikdagi xatti-harakatlarining alohida turidirki, u o'zlashtirish ob'yektini, bilim faoliyatining barcha qismlarini qayta qurishni ta'minlaydi.

Hamkorlikdagi o'quv faoliyatining maqsadi o'zlashtiriladigan faoliyat va birgalikdagi harakatlar, munosabat va muloqotning boshqarish mexanizmini yaratishdir. Hamkorlikdagi faoliyatning mahsuli talabalar ilgari surgan yangi g'oyalar va o'zlashtirilayotgan faoliyatning mohiyatiga bog'liq maqsadlar va sheriklikdagi shaxs pozisiyasini boshqarish istaklarining yuzaga kelishidir.

Hamkorlikdagi faoliyat usuli deganda, o'qituvchi bilan talabaning

birgalikdagi hatti-harakatlarining tizimini tushunish kerak. Bunday xatti-harakat o‘qituvchining talabaga ko‘rsatadigan yordamidan boshlanadi;

Talabalarning faolligi asta-sekin o‘sib borib, butunlay ularning o‘zi boshqaradigan amaliy va aqliy harakatiga aylanadi; o‘qituvchi bilan talaba o‘rtasidagi munosbat esa sheriklik pozisiyasi xususiyatiga ega bo‘ladi.

Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi asosida mashg‘ulot o‘tkazish uchun guruh talabalari 4-5 kishilik kichik guruhlarga bo‘linadi. Har bir guruhda kuchli, o‘rta va kuchsiz talaba bo‘lishiga e’tibor berish kerak. Chunki jamoalarning teng kuchli bo‘lishi taminlanishi kerak. Talaba auditoryadagi stol-stullarning qo‘yilishi kichik guruhlar ishlashiga yordam beradi. Bunda talabalar doira shaklida o‘tirishadi hamda bir birlarini bevosita ko‘rib turadi. Bu holatning afzalligi talabalarga bevosita bir birlari bilan aloqa qilishga imkon beradi va buning natijasida talabalar tezda fikr almashishadi va tez yechim topishadi. Shuni ham takidlab o‘tish kerakki bu holatda munozara vaqtida kuchsiz talabalar asosan o‘rganuvchi rolini o‘ynashadi. Ya’ni ular yuqori saviyali talabalarni fikrini eshitib ulardan kerakli bilimlarni olishadi va ularga qo‘shilishga harakat qiladi. Buning natijasida esa guruhdagi past saviyali talabalarning o‘sishiga erishiladi.

O‘tkaziladigan mashg‘ulotga tayyorgarlik davomida mavzuning qaysi qismini o‘qituvchining o‘zi tushuntirishi va talabalar qaysi qismini bajarishi rejalashtiriladi. Bunda darsga qo‘yiladigan maqsaddan kelib chiqqan holda, har bir talabaga qo‘yiladigan topshiriqlar aniq bo‘lishi lozim. Yani savollar talabaning saviyasidan kelib chiqib berilishi kerak. Buni qanday afzalliklari bor shuni ko‘rib o‘tamiz. Deylik kuchsizroq talabaga qiyinroq savol berilsa, malumki u bu savolga javob topa olmaydi va buni natijasida o‘ziga bo‘lgan ishonchi so‘nib fanga bo‘lgan qiziqishi ham kamayib ketadi. Agar o‘zini saviyasiga mos savol bersak u bunga javob bera oladi (qo‘ldan kelgancha) va yanayam fanga bo‘lgan mehri ortib boradi. Lekin har safar kuchsiz talabaga oddiy savol beraverish kerak emas, chunki u oddiy savollarga o‘rganib qolib qiyin savollarga bosh qotirgisi kelmay qoladi. Shuning uchun kuchsiz talabalarga goh – gohida qiyinroq savollarni ham berib turish kerak. Bu ularni yuqoriga intilishini taminlaydi. Endi kuchli talabalarga kelsak, ularga oson savol berish yaramaydi, chunki ularga bu savollar zerikarli tuyiladi, va buning natijasida ularda fanga nisbatan zerikish va befarqlik rivojlanadi. Shuning uchun ularga qiyinroq savollardan berib borish maqsadga muvofiq.

Keyinchalik talabalar joylarini almashtirishlari mumkin bo‘ladi, ya’ni savolga fikr bildiruvchi savolni javobini kitobdan talabaga va o‘z navbatida to‘g‘ri javobni kitobdan talaba savolga fikr bildiruvchiga aylanishi mumkin. Muhokama yakunida kichik guruhdagi talabalar o‘zlariga berilgan savollarning hammasiga javob berishlari va ularni butun guruh muhokamasiga, chiqarishlari kerak.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida innovasion texnologiyalar, jumladan, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. Shunga ko'ra ushbu maqolamizda xam fizikaga oid mavzularni innovasion usullarda o'qitish talabalarni mavzuni ilmiy asosda tushunishlariga, mustaqil fikr yuritishlariga xizmat qiladi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'lim va tarbiyada innovasion texnologiyalar amaliyoti – T.: Iste'dod, 2010.- b.
2. Golish L.V, Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. TDIU. Toshkent. 2010.
3. Kamoliddinov.M, Vaxobjonov.B "Innovasion pedagogik texnologiyalar". "Talqin". Toshkent. 2010.
4. XXI asr pedagogikasining dolzarb vazifalari. //Xalq ta'limi, 2007. – №2,
5. N.N.Ne'matova Guruhlarni tashkil etishni interfaol metodlari. Buxoro 2008 yil.
6. Haydarova O.Q.Bo'lajak o'qituvchilarni innovasion faoliyatga tayyorlash. Qarshi, Nasaf, 2008.
7. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risidagi qonun» –Toshkent,1997.

# UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA NIZOLAR PROFILAKTIKASINING ILMIY METODOLOGIK ASPEKTLARI

***T.E.ESHQUVVATOV,***
*SamDU katta o'qituvchisi*

*Maqolada nizolar, OTMda pedagogik mojaroning mohiyati, ta'lim jarayonida nizolarni qo'llash amaliyoti, nizolarning ob'ektiv va sub'ektiv tabiatini, ularning bevosita sabablari va ularning tahlili, nizolarning qanday shakllari va ular qanday yo'llar bilan hal etilishi, ularni boshqarish san'atini o'rganishlarni o'z ichiga olgan bo'lib, ular oliy maktabga psixologik xizmat ko'rsatish maqsadida bajarilgan va bo'lajak pedagoglarga metodik yordam qiladi deb o'ylaymiz*

***Tayanch so'zlar:*** *nizolar; konfliktogen; nizolarning yaratuvchanlik imkoniyati; konflikt funksiyalari; adolatparvarlik mezonlari*

*В статье рассматриваются конфликты, сущность педагогического конфликта в ВУЗе, практика применения конфликтов в образовательном процессе, анализ объективного и субъективного характера конфликтов, их непосредственных причин и подследствий, формы конфликтов и способы их разрешения, изучение искусства управления ими, которые по нашему мнению выполняются в целях психологического обслуживания высшей школы и оказывают методическую помощь будущим педагогам.*

***Ключевые слова:*** *конфликт; конфликтоген; творчество конфликтов; возможност создания конфликта; конфликтные функсии; конфликтные меры справедливости.*

*The article discusses the conflict, the essence of pedagogical conflict in the University, the practice of using conflicts in the educational process, the analysis of objective and subjective nature of conflicts, their immediate causes and posledstvii, forms of conflict and ways of resolving them, studying arts management, which we believe are at the psychological service of higher education and provide methodological support to future teachers*

***Key words:*** *conflict; contentious; the creativity of the conflict; opportunities to create conflict; conflict funksie; conflict measure of justice.*

Nizolar kattalar hayotida ancha keng uchrab turadigan hodisa hisoblanadi. Masalan, rahbar organlarda ishlagan odamlar hayotida ular faoliyatining 70-80 % turli ochiq-oydin, yoki yashirin ziddiyatlar sharoitida o'tadi,ularning inobatga olinmasligi, ularga bee'tiborlilik esa nizolarning chuqurlashib ketishiga asos bo'lib xizmat qiladi.[1.48-b].

Yurtimiz va xorij olimlari tomonidan ta'lim tizimida pedagogik nizolarning oldini olish, ularni bartaraf etish muammolariga oid bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Nizoning tipik xususiyatlarini [5; 23-b] da quyidagicha keltirilgan:

– natijaning noaniqligi, ya'ni nizo ishtirokchilarining hech biri boshqa ishtirokchilar tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni va mojaroning barcha oqibatlarini oldindan bilmaydi;

– maqsadlar xilma-xilligi, bu holat turli tomonlar o'rtasidagi qiziqishlarning nomuvofiqligini ifodalaydi;

– tomonlarning har biridagi harakat tasnifi.

Shu bilan birga har qanday nizoning asosini ob'ektiv va sub'ektiv, real va illyustrativ to'planib borgan fikrlar qarama-qarshiligini tashkil etadi. Fikrlar qarama-qarshiligining nizoga aylanishi uchun quyidagilar yetarli hisoblanadi [5; 24-b]:

1) vaziyatning nizoli munosabat ishtirokchilari uchun ahamiyati;

2) opponentlardan birida boshqa ishtirokchilar maqsadlariga erishish yo'liga qo'yadigan muammoning mavjudligi (bu reallik emas, balki subektiv idrok bo'lsa ham);

3) tomonlarning kamida bittada yuzaga kelgan muammoga shaxsiy yoki guruhli sabrning to'lishi.

Nizolarga oid adabiyotlarda har qanday nizoning quyidagi funksiyalarni ko'rsatib o'tadi [2]:

– ogohlantiruvchi funksiya nizoni ko'rsatkichi sifatida xarakterlanadi. Nizo bu yerda odatdagi ijtimoiy aloqalar va munosabatlarda nimadir izdan chiqqanligini, nimadir tub o'zgarishlarga muhtojligini ko'rsatadi.

– axborot funksiyasi. Nizoli vaziyatning avj olishi, kechishi, o'zgarishlari uni yuzaga keltirgan sabablar haqida muayyan axborot yuklamasini ifodalaydi.

– differensiatsiya funksiyasi. Bu holat ko'pincha avvalgi ijtimoiy munosabatlarni buzish va o'zgartirish orqali yuz beradi. Bu funksiya nizodagi tomonlar munosabatlarining qayta, yangicha ko'rinishga kelishini tushuntirib beradi.

– dinamik funksiya. Har qanday ijtimoiy nizo ijtimoiy munosabatlar taraqqiyotni tezlashtiruvchi va ijtimoiy o'zgarishlarga olib keluvchi vosita ekanligi umumiy tarzda aks ettirilgan.

Ma'lumki nizolarni hal qilishning maqsadga muvofiq asoslariga quyidagilar kirishi mumkin, ya'ni:

– nizo sabablari;

– taraflar xulq-atvor motivlarini o'z ichiga olgan qarama-qarshi kurash diagnostikasi;

– vaziyatli va pozitsiyaviy tahlilni amalga oshirish (vujudga kelgan vaziyat va taraflar nuqtai nazarlarini aniqlashtirish);

– nizolar borishini va oqibatlarini bashorat qilish (shu jumladan nizo u yoki

bu tarzda tugaganda har bir taraf uchun foyda yoki zararni aniqlash).

Bu harakatlarning barchasi faqat uchinchi taraf (vositachi, psixolog, vakillik organi) tomonidangina emas, shuningdek sub'ektlarning o'zlari tomonidan amalga oshirilishi foydalidir, bunda taraflar o'tkazilgan tahlildan so'ng umumiy qarorlarni ishlab chiqish zaruriyatini tushunishga yaqinlashadilar.

O'quv faoliyatidagi nizolarning ta'sirini tahlil qilishning muhim masalasi ularning sabablarini aniqlashdir.

Konfliktologiya nazariyasidagi mavjud yondashuv nizolarning sabablarini tasniflash, ularni tahlil qilish va umumlashtirish o'qituvchiga haqiqiy ziddiyatlarni boshqarish va ziddiyatli manfaatlarni o'stirish vositasini beradi

V. Linkoln ziddiyatlarning kelib chiqishini quyidagi sabablarini ko'rsatadi.[4.28-b].

1. Axborot - o'zaro munosabat ishtirokchilari uchun ma'lumotlarning qabul qilinishi yoki qabul qilinmasligi.

2. Xulq-atvorlardagi - nomuvofiqlik, samarasiz uslub, xudbinlik, oldindan aytib bo'lmaydiganlik va tomonlardan biri rad etgan xatti-harakatlarning boshqa xususiyatlari.

3. Munosabat omillari (Aloqa) - ikki yoki undan ortiq tomonlarning o'zaro ta'siridan qoniqish darajasi.

4. Qadriyatlar-kishilarning amal qilishi uchun muhim bo'lgan va amalga oshirilishi kutilayotgan tamoyillar (kasbiy, madaniy, diniy, mafkuraviy va boshqalar.)

5. Tuzilmaviy - o'zgarishi qiyin yoki hatto imkonsiz bo'lgan nisbatan barqaror vaziyatlar (qonun, yosh, bo'ysunish, vaqt, jihozlarning mavjudligi va o'quv jarayonini qo'llab-quvvatlaydigan boshqa vositalar)

Yuqoridagilardan kelib chiqadiki, nizoning sababini bilmasdan turib, uni boshqarish va sababini bartaraf yetish qiyin.

Bizningcha nizolarning sabablari hozirgi hayotning butun murakkabligini o'zida aks ettirishga qodir. Aytish joizki, o'tkazilgan so'rovnomalar va olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra nizolar tahlili yuqoridagilardan tashqari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

– vaziyat sabablari va tarixini, shuningdek, joriy hodisalarni tushunish;

– faqat asosiy yoki aniq ko'rinib turgan taraflarni emas, balki konfliktga jalb qilingan barcha ishtirokchi (guruh)larni aniqlash;

– barcha bu ishtirokchi(guruh)larning nuqtai nazarlari va ularning o'zaro munosabatlarini bilish;

– konflikt negizida yotgan omillar va tendensiyalarni aniqlash;

– muvafaqqiyatsizliklar va yutuqlardan tegishli xulosa va saboqlar chiqarish uchun zarurdir.

Konflikt tahlili bu bir martalik tadbir emas, u o‘zgaruvchan omillar, dinamika va sharoitlarga harakatlarni moslashtirishga yordam qiluvchi doimiy jarayon bo‘lib qolishi kerak.

Ma’lumki, konflikt asosi bu subektlar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklardir.[3.16-17-b]. Shu sababli konfliktlarni hal etishning eng maqbul va natijali yo‘li- bu subektlarning o‘zlari ko‘rsatilgan ziddiyatlarni bartaraf etishidir. Biroq bu yo‘lga har doim ham erishib bo‘lmaydi. Bundan tashqari, ziddiyatlarning turli tiplarini (ochiq,yashirin,obektli,obektsiz va h.),ularning darajalarini,subektlari xususiyatlarini, shuningdek, konfliktni to‘xtatishga intiluvchi kuchlar ixtiyoridagi obektiv imkoniyatlarni ham e’tiborga olish kerak.

Yuqoridagilardan kelib chiqadiki, nizoning sababini bilmasdan turib, uni boshqarish qiyin, sababini yesa bartaraf yetish qiyin. Samarqand Davlat Unversiteti o‘qituvchilari va talabalari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rov natijalarida o‘qituvchilar tarkibidagi pedagogik jarayonga ta’sir etuvchi nizolar tasniflandi.

Mojarolarning sabablarini tasniflashni, ularning tabiatda ob’ektiv va sub’ektiv ekanligiga asoslanib, to‘rtta guruhga birlashtirilishi mumkin.

Nizolarning sabablarini tasniflash.

Tashkiliy va boshqaruv tipidagi nizolar.

Ijtimoiy-psixologik tipidagi nizolar.

Pedagoglarning xatolari tufayli nizolarning keng tarqalgan sabablari:

Manfaatlar va ehtiyojlar mos kelmasli bilan bog‘liq nizolar.

Bu muammoga oid adabiyotlarda boshqaruvning sub’ekti va ob’ekti bilan bog‘liq ziddiyatlarning yeng ko‘p tarqalgan sabablari ham aniqlanadi. Odamlarga bog‘liq bo‘lmagan tashkiliy-boshqaruv omillari va vaziyatlar asosan ob’ektiv, ijtimoiy-psixologik va shaxsiy omillar esa asosan subektiv hisoblanadi.

Tashkiliy va boshqaruv tipidagi nizolarining sabablariga:

– o‘qituvchilar ishining samarasiz tashkil etilishi bilan kelib chiqadigan;

– ma’muriyat tomonidan mehnat sharoitlari yetarli emasligi;

– hayot xavfsizligini muhofaza qilishga doir ishlarning tartibga solinmaganligi;

– pedagogik jamoani boshqarishdagi kamchiliklar;

– Talabalar bilimini baholash mezoni bilan bog‘liq;

– o‘qituvchi faoliyatini nazorat qilishning rejalashtirilmagan shakllari;

– o‘qituvchining kasbiy faoliyati rahbarlar tomonidan etarlicha baholanmasligi;

Turli nizolardagi taraflar hatti-harakatlari sabablarini tahlil etishda ularning odatda o‘z manfaatlarini qondirishga bo‘lgan intilishlaridan iborat ekanligini tushunish qiyin emas. Notenglik, nosamimiylik, qabul qilingan qarordan qoniqmaslik, to‘g‘ri idrok etmaslik, bugungi kunda yoki kelgusida o‘zini moddiy jihatdan ta’minlashga bo‘lgan intilish pedagogic jarayon amaliyotida uchrab turadigan nizo sabablarining aksariyati hisoblanadi.

Zamonaviy pedagog o’z faoliyatini ikki tomonlama muammoni hal qilishga qaratadi: yuqori pedagogik samaradorlikga erishish va bu natijani yaratadigan talabalarga ta’sir qilish. Va shuning uchun samarali pedagog nafaqat tor mutaxassis, balki keng ko’lamli mutaxassis bo’lishi kerak, ya’ni zamonaviy pedagog qisman turli xil ijtimoiy nizolarni bartaraf etish qobiliyatiga ega bo’lgan psixolog bo’lishi kerak.

Ziddiyatdan chiqib ketish uchun qilinadigan eng birinchi qadam har doim mana shu ziddiyatni keltirib chiqargan manfaatlarni o’zaro muvofiqlashtirish mumkinligiga bo’lgan ishonch va harakatdan boshlanadi. Manfaatlarni o’zaro yaqinlashtirish va muvofiqlashtirish ziddiyatni yengishning eshigini ochishdir.

Umuman konflikt yechimini topish passiv holatdagi munosabatni emas, balki aktiv, ya’ni faol munosabatni talab etadi. Konflikt vaziyatda ko‘pchilik impulsiv, ya’ni anglanmagan harakat olib boradi. Demak, konflikt vaziyat o‘ylangan qadamlarni so‘raydi. Bu – konfliktga bo‘lgan ongli munosabat belgisi bo‘ladi. Ziddiyatga nisbatan ongli munosabat jarayonida inson nizoni nazorat ostida ushlab tura oladi, ziddiyatga o‘z ta’siri o‘tkaza oladi, tomonlar his-tuyg‘ularining “ko‘pirib” ketmasligi oldini oladi, tomonlarni konstruktiv munosabatlarga chorlaydi, ularni muzokaralar stoliga olib kela oladi, nizoni keltirib chiqargan muammo haqida o‘ylash, fikr  va mushohada qilish muhitini yarata oladi.

**Foydalangan adabiyotlar:**

1. G. To‘ychiyeva. Yoshlar va konfliktlar: Konfliktlar yechimiga o‘rganish. Toshkent 2008 y.

2. D.Q.Yergeshova, M.K.Najimov. Yuridik konfliktologiya. Toshkent 2007. -129b.

3. Работа с конфликтом: навыки и стратегия действия. Лондон, Конфликтологический сентр, 2001. С.40.

4. Гришина Н.В. Психология конфликта. – С.-Пт.,2003. –160 с

5. Король Л.Г., Малимонов И.В., Рахинский Д.В. Конфликтология: учебное пособие для студентов, обучающихся по направлениям 37.04.01 Психология, 38.04.02 Менеджмент, 38.03.03.Управление персоналом. – Ульяновск: Зебра, 2015. – 248 с.

# UZLUKSIZ MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA JISMONIY TARBIYA INSTRUKTORLARI VA O‘QITUVCHILARINING IJTIMOIY-MADANIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

***Z.A.BEGIMQULOV,***
*O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi huzuridagi jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni ilmiy-metodik ta’minlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazi Samarqand filiali*

*Maqolada maktabgacha ta’lim muassasalari jismoniy tarbiya instruktorlari va umumiy o‘rta ta’lim maktablari jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilarining uzluksiz malakasini oshirish jarayonida ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirishdagi mavjud muammolar va jarayonga yangicha munosabatni shakllantirishning dolzarb vazifalari yuzasidan fikr-mulohazalar bayon etilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *uzluksiz ta’lim, instruktor, pedagog, bilim, malaka, ko‘nikma, kompetensiya, innovasiya integrasiya, kasbiy kompetentlik, ijtimoiy-madaniy kompetentlik, malaka oshirish tizimi.*

*The article describes the actual problems of the development of socio-cultural competence in the process of continuous professional development of physical culture instructors of preschool educational institutions and teachers of physical culture of ccomprehensive schools and the actual problems of forming a new attitude to the process.*

***Key words:*** *continuing education, instructor, teacher, knowledge, qualification, skills, competence, innovation, integration, professional competence, socio-cultural competence, professional development system.*

*В статье изложены актуальные проблемы развития социокультурной компетентности в процессе непрерывного повышения квалификации инструкторов по физической культуре дошкольных образовательных учреждений и учителей физической культуры общеобразовательных школ и актуальные задачи формирования нового отношения к процессу.*

***Ключевые слова***: *непрерывное образование, инструктор, педагог, знания, квалификация, навыки, компетенция, инновация, интеграция, профессиональная компетентность, социокультурная компетентность, система повышения квалификации.*

Ma’lumki, uzluksiz ta’lim tizimini amalga oshirish jarayonida yosh avlodni ko‘ngildagidek o‘qitish va tarbiyalashdek g‘oyat murakkab va ko‘p qirrali vazifani faqat yuksak malaka va kasbiy mahoratga ega bo‘lgan pedagog kadrlar bilangina amalga oshirish mumkin. Mamlakatimizda yangilangan ta’lim tizimini joriy etishda ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan har bir pedagog kadrning lavozimi hamda mutaxassisligi bo‘yicha yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar ta’lim

tizimiga oid yangiliklarni muntazam o‘rgana borib, ularni o‘z ish faoliyatida izchil qo‘llay bilish mahoratiga ega bo‘lishi bugungi kunning dolzarb vazifalaridandir.

Bugungi kunda mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport sohasida faoliyat olib borish uchun zamon talablariga javob beradigan malakaviy yetuk mahoratli kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Malaka oshirish kurslariga kelayotgan maktabgacha ta’lim muassasalari jismoniy tarbiya instruktorlari hamda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida faoliyat yuritayotgan aksariyat jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilarining shaxsiy dastur asosida uzluksiz malaka oshirishlarini talab darajasida deb bo‘lmaydi. Sababi, ushbu mutaxassislar sohada olib borilayotgan islohotlar, yangiliklar bilan faqat besh yilda bir marta malaka oshirish kurslarida o‘qish jarayonidagina tanishish bilan chegaralanib qolmoqdalar.

Ko‘pincha maktabgacha ta’lim muassasalari jismoniy tarbiya instruktorlari hamda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida faoliyat yuritayotgan aksariyat jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilari malaka oshirish kurslarida tahsildan qaytgach, yangicha ishlash, ish faoliyatiga yangi pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish o‘rniga ilgari qanday ishlagan bo‘lsalar, ishni shunday davom ettirayotganliklarini guvohi bo‘lamiz. Kuzatishlar va tahlillar ushbu jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarning ish jarayonida mustaqil o‘qish, tajribali sportchi va pedagoglarning ish tajribasini o‘rganish, o‘z kasbiy mahoratini mutaxassisligi bo‘yicha eng so‘nggi yangiliklar bilan boyitib borish, konferensiya va anjumanlarda ishtirok etish, mustaqil ijodiy faoliyat olib borish kabi mashg‘ulot turlari bilan deyarli shug‘ullanmay kelayotganliklarini anglatadi. Bu esa ayrim ta’lim muassasalarida mazkur pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini oshirish borasida tizimli ishlar olib borilmayotganligidan dalolat beradi.

Malaka oshirish kurslariga kelayotgan tinglovchilar bilan o‘tkazilgan suhbatlar jarayonida ular maktabgacha ta’lim muassasalari hamda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida pedagog kadrlar uchun davriy malaka oshirish kursidan keyingi o‘z ustida ishlash bo‘yicha tizimli ish jarayoni tashkil etilmaganligi, kutubxonalarda jismoniy tarbiya fani bo‘yicha adabiyotlarning deyarli yo‘qligi, tashkil etilayotgan seminarlar hanuzgacha eskicha tartibda o‘tayotganligi, pedagog xodimlarning malakaviy bilimlarini doimiy yangilashga qulay shart-sharoit yaratilmaganligi, o‘qitishning sifat va samaradorligini yaxshilash bo‘yicha sog‘lom raqobat muhiti shakllantirilmaganligini ta’kidlashmoqda. Bu esa jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarning ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirish borasida hali qilinadigan ko‘pgina vazifalar borligini, o‘z yechimini kutayotgan dolzarb muammolarni hal qilish lozimligini ko‘rsatmoqda.

Amaliyotdan ma’lumki, maktabgacha ta’lim muassasalari jismoniy tarbiya

instruktorlari hamda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida faoliyat yuritayotgan aksariyat jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilarining kasbiy bilimlarini uzluksiz yangilash, hozirgi davr talablari asosida kompetensiyalarni o‘z vaqtida rivojlantirish ishlarini davriy ravishda har besh yilda ishtirok etadigan malaka oshirish jarayonidagina amalga oshirib bo‘lmaydi. Bugungi kunda mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportga qaratilayotgan e’tibor barcha jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislar oldiga yanada yangi-yangi vazifalarni qo‘yadi. Axborotlar oqimining jadal sur’atlarda rivojlanib borishi hamda ta’lim tizimini mazmunan isloh qilish jarayoni jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislardan o‘z ustida muntazam izlanishni talab etadi.

Sport sohasida malaka oshirish tizimi-tinglovchilarning pedagogik, metodik bilimlarini oshirish, texnik va kasbiy mahoratlarini takomillashtirish, shaxsiy ehtiyojlari va davlat, jamiyatning sport sohasida yangi yo‘nalishlardagi talablarni nazariy, o‘quv-mashq jarayonida qo‘llashni o‘rganish, amaliy faoliyatiga tatbiq etishni maqsad qilgan sport mutaxassisi uchun davlat tomonidan belgilangan rasmiy ta’lim shaklidir[1]. Har qanday boshqa soha mutaxassislari kabi jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarning ham kasbiy tayyorgarlik darajasi ularning bilim, ko‘nikma va malakalari, ijodiy salohiyati hamda noan’anaviy tafakkurlarida o‘z aksini topuvchi kasbiy layoqati bilan baholanadi.

Kuzatishlardan ma’lum bo‘lmoqdaki, malaka oshirishga kelgan maktabgacha ta’lim muassasalari jismoniy tarbiya instruktorlari hamda umumiy o‘rta ta’lim maktablari jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilarining aksariyatida kasbiy kompetentlik sifatlari etarli emas. Ularning ko‘pchiligida kompetentli pedagog qanday bo‘lishi, qanday sifatlarga ega bo‘lishi kerakligi haqidagi tushunchalarga ega emasligi ko‘zga tashlanadi.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida “Kompetensiya” (*lot.* sompetere – layoqatli, munosib bo‘lmoq): 1. Muayyan organ yoki mansabdor shaxsning rasmiy hujjatlarda belgilangan vakolatlari doirasi; vakolat. 2. Shaxsning biror-bir sohadan xabardorligi, shu sohani bilish darajasi degan ma’nolarni bildiradi[4].

Ma’lum bir kompetentlikni o‘zlashtirgan shaxs deganda o‘z sohasiga loyiq bilim va malakasi shakllangan, ijobiy fikr va samarali harakat qila oladigan shaxs tushuniladi. Agar bu tushunchalarning mohiyatiga chuqur nazar tashlasak, “kompetenlik” – shaxsning ma’lum bir fanlar doirasidagi bilim, ko‘nikma va malakalar bilan harakatlarning o‘zaro bog‘liq sifatlari yig‘indisi, “kompentetlilik” insonning harakatiga mos kompetenlikni o‘zlashtirish[3]. Kompetentlik deganda, pedagog kadrning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega kasbiy faoliyatning amalga oshirilishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi hamda ularni kasbiy faoliyatda qo‘llay olishi, deb tushunish mumkin.

Maktabgacha ta'lim muassasalari jismoniy tarbiya instruktorlari hamda umumiy o'rta ta'lim maktablari jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini ifodalovchi jihatlar sifatida pedagogik jarayonlarini tashkil etish va uni boshqarishda innovasion yondashuvlarga asoslanish, kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlarga ega bo'lish, ta'lim mazmunini zamonaviy talablarga moslashtirib borish sohasidagi mavjud ilg'or tajribalarni va ish usullarini o'rganish, bilim, malaka va ko'nikmalarini doimiy takomillashtirish, uzluksiz malakasini oshirish, shuningdek, ta'lim muassasasida hukm suruvchi tarbiyaviy munosabatlarni e'tiborga olgan holda faoliyat olib borish, turli xil masalalarni va muammolarni hal etishda mavjud huquqiy-me'yoriy mezonlarga asoslanishni e'tirof etish mumkin.

Ijtimoiy-madaniy kompetentlik bu- o'qituvchining tayanch kompetensiyalaridan biri hisoblanib, jamiyatimizda yuz berayotgan ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy o'zgarishlar yuzasidan izlanishlar olib borish, ta'lim-tarbiya jarayonini jamiyatimizda yuz berayotgan ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy o'zgarishlar asosida tashkil etish.

Uzluksiz malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta'lim muassasalari jismoniy tarbiya instruktorlari hamda umumiy o'rta ta'lim maktablari jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining ijtimoiy-madaniy kompetentligini takomillashtirish uchun quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

– o'z bilimlarini muntazam boyitib borish, yangi axborotlarni o'zlashtirish, yangi bilimlarni izlab topish va amaliyotda qo'llash, mutaxassislik bo'yicha yetarlicha zaruriy bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lish;

– sohaga oid mavjud bilimlarni doimiy ravishda takomillashtirib borish, ma'naviy-axloqiy darajasini yanada yuksaltirish;

– izchil ravishda yangilanib borayotgan pedagogik bilimlarni o'zlashtirish, ilg'or texnologiya, metod hamda vositalardan xabardor bo'lish, ish faoliyatiga fan-texnikaning so'nggi yangiliklarini samarali tatbiq etish;

– o'quv-tarbiya jarayoniga yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini, ta'lim-tarbiyaning samarali shakl va usullarini joriy etish orqali tarbiyalanuvchilarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik, jismoniy rivojlantirish;

– o'qitishning ilg'or pedagogik texnologiya talablarini to'g'ri tushunish, tashabbuskorlik, o'z mutaxassisligi va jismoniy tarbiya fani bo'yicha yangiliklardan xabardor bo'lish va o'tayotgan dars va mashg'ulotlariga joriy eta olish;

– o'z shogirdlarini milliy va umuminsoniy qadriyatlar, insonparvarlik va yuksak ma'naviyat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga mustaqillik, milliy o'zlikni anglash g'oyalarini yanada chuqur singdirish;

– jismoniy tarbiya mashqlari orqali bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashni

to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, ularni “ommaviy madaniyat” ko‘rinishidagi yot g‘oyalarga qarshi immunitetini mustahkamlashga yo‘naltirilgan tadbirlarni amalga oshirish;

– gumanitar, ijtimoiy-iqtisodiy fanlar asoslarini, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilish;

– o‘zini va boshqalarni hurmat qilish, kishilar bilan munosabatlarda adolatli hamda ma’naviyatli bo‘lish, o‘zini-o‘zi boshqara olish;

– turdosh fanlar haqida ham tushunchaga ega bo‘lish.

Murabbiy-o‘qituvchining pedagogik kompetentligi yo‘nalishida qo‘yilayotgan eng asosiy talablaridan biri ona-yurtga muhabbat va sadoqat, Vatan va vatanparvarlik tuyg‘ularini o‘quvchilar qalbi va ongiga singdirish, o‘quvchilarda mustaqil O‘zbekiston ramzlarining mazmun va mohiyati, milliy an’analar va o‘yinlar, urf-odatlar va qadriyatlar, mustaqillik, uning mazmun-mohiyati, ahamiyati va zaruriyati yo‘nalishidagi tushunchalarni shakllantirish va rivojlantirish yo‘nalishlarida sport bilan bog‘langan holda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarish bilan bog‘liq funksiyalarni bajarish yo‘nalishidagi tashkilotchilik, tadqiqotchilik va ijodkorlik qobiliyatlari hamda muhim ahamiyat kasb etuvchi shaxsiy sifatlarning shakllanganlik zaruriyatlarini o‘z ichiga oladi[2].

Yangilikka intiluvchanlik, o‘z ustida mustaqil ishlash ko‘nikmasi va malakasini shakllantirish, ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirish maktabgacha ta’lim muassasalari jismoniy tarbiya instruktorlari hamda umumiy o‘rta ta’lim maktablari jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilarining uzluksiz malaka oshirish jarayonining dolzarb vazifalaridan bo‘lishi kerak.

**Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Akmalov A. Sport ta’limi muassasasi murabbiyining innovasion faoliyati.-T.:Ilmiy texnika axboroti-press nashriyoti, 2019.-3bet.

2. Tursunaliyev I A., Amanov A. N., Yeldasheva G.V., Dexkambayeva Z. Murabbiy-o‘qituvchining pedagogik kompetensiyasi va mahorati. Uslubiy qo‘llanma.-T.: Ilmiy texnika axboroti-press nashriyoti , 2019.-20b.

3. Xo‘jamberdiyeva D.S. Malaka oshirish tizimi tinglovchilarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning o‘ziga xos jihatlari. Zamonaviy ta’lim jurnali 2018 yil 4-son, 18 bet.

4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2 jild. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2006. -396-b.

# TA'LIMDA INNOVATSIYA: MOHIYATI VA MAZMUNI

***A.ESHMURODOV,***
*Sirdaryo VPXMOQTHM o'qituvchisi*

*O'qituvchining shaxsga, shaxs munosabatlariga yo'naltirilgan innovatsion faoliyatni amalga oshirishga tayyorligini tekshirishning ishonchli vositasi pedagogik vaziyatlar va jarayonlardagi innovatsion harakatlar hisoblanadi.*
***Kalit so'zlar:*** *innovatsion faoliyat, tizimli yondashuv, uzluksiz ta'lim, o'qituvchilar, talaba-yoshlar, pedagogik faoliyat.*

*Innovative actions in pedagogical situations and processes are a reliable means of testing a teacher's readiness to carry out innovative activities aimed at individual, personal relationships.*
***Key words:*** *innovative activity, systems approach, lifelong education, teachers, students, pedagogical activity.*

*Новаторские действия в педагогических ситуatsiях и процессах являются надежным средством проверки готовности учителя к осуществлению инновatsiонной деятельности, направленной на индивидуальные, личные отношения.*
***Ключевые слова:*** *инновatsiонная деятельность, системный подход, непрерывное образование, учителя, студенты, педагогическая деятельность.*

O'qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorlash tamoyilini yaratishda o'qituvchi shaxsini shakllantirishning bir butun jarayonining yaratilishi va faoliyat olib borishini ta'minlovchi tizimli, refleksiv-tashabbuskor, individual-ijodiy yondashuvlar asos qilib olinadi[1]:

– tizimli yondashuv jihatidan – pedagogik ta'limning barcha bo'g'inlari innovatsion faoliyatning barcha komponentlarini yaxlitlikda maksimal darajada rag'batlantirishi kerak;

– refleks-tashabbuskor yondashuvni amalga oshirish o'qituvchining o'z faoliyatiga nisbatan faoliyatning o'quvchi shaxsini rivojlantirish borasidagi samaradorligini tanqidiy tahlil etish, mulohaza qilish va uni baholash maqsadida faoliyat sub'ekti sifatida o'ziga nisbatan ham faol tadqiqot mavqeiga chiqa olish qobiliyatini rivojlantirishni nazarda tutadi;

– individual-ijodiy yondashuv o'qituvchida ijodiy individuallikni aniqlash va shakllantirish, unda innovatsion ongni rivojlantirishni ta'minlovchi faoliyatning takrorlanmas texnologiyasini shaxsiy darajaga olib chiqadi.

Uzluksiz ta'lim tizimida kasbiy tadqiqot va kasbiy-pedagogik jihatlar aniq ajralib turadi. Nafaqat pedagogik izlanishning predmetli mazmunini, balki o'qituvchining innovatsion faoliyatda ishtiroki shaklini ham qaytadan yaratish imkonini beruvchi kasbiy-pedagogik jihat markaziy o'rinda turadi.

V.A. Slastenin tadqiqotlariga ko'ra, o'qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorlash ketma-ketligi quyidagi bosqichlardan iborat:

– birinchi bosqich – o‘qituvchining ijodiy individualligini rivojlantirish, talabalarga taqdim etish zarur bo‘lgan ijodiy-pedagogik masalalarni aniqlash, ifodalash, tahlil qilish va hal qilish qobiliyatini shakllantirish, shuningdek, ijodiy izlanishning umumiy texnologiyasini rivojlantirish: ilgari egallangan bilim va ko‘nikmalarni yangi vaziyatga mustaqil olib o‘ta olish, tanish vaziyatdagi muammoni, yangi funksiya ob’ektini ko‘ra olish, ob’ekt tuzilmasini aniqlay olish, muqobil yechim yoki uning usulini ko‘ra bilish, ilgari egallangan faoliyat usullarini vujudga kelgan muammoni yechishda qo‘llay olish, tanqidiy tafakkurni rivojlantirish.

– Ikkinchi bosqich – ilmiy anglash, pedagogik tadqiqot, innovatsion pedagogikaga kirish uslubiyati asoslarini egallash. Talabalar innovatsion pedagogika vujudga kelishining ijtimoiy va ilmiy sabablari, uning asosiy tushunchalari bilan tanishadilar, maktabni tashkil etishga muqobil yondashuvlarni ijodiy izohlashga harakat qiladilar, muqobil maktablarni rivojlantirishning asosiy manbalarini o‘rganadilar, innovatsion o‘quv muassasalarining turli tiplari bilan tanishadi va hokazo.

– Uchinchi bosqich – innovatsion faoliyat texnologiyasini o‘zlashtirish. Talabalar maktabdagi sinov ishlari bosqichlarining mualliflik dasturlarini tuzish uslubiyati bilan tanishadilar, mualliflik dasturlarini tuzishda ishtirok etadilar, yangilikni tahlil qiladilar, uning keyingi rivojlanishi va joriy qilishdagi qiyinchiliklarni bashorat qiladilar.

– To‘rtinchi bosqich – yangilikni pedagogik jarayonga joriy qilish bo‘yicha sinov maydonidagi amaliy ishlar, tuzatishlar kiritish, sinov natijalarini kuzatib borish, kasbiy faoliyatni mustaqil tahlil qilish. Bu bosqichda yangilikka nisbatan qarashlar va ko‘rsatmalar tizimi sifatida o‘qituvchining innovatsion munosabati shakllanadi.

Sanab o‘tilgan bosqichlardan ko‘rinib turibdiki, bo‘lg‘usi o‘qituvchilarni tayyorlashda asosiy e’tibor ularning ilmiy-pedagogik ongini shakllantirishga qaratiladi. O‘qituvchining bevosita maktab xizmatchisi va taqdimotchi sifatidagi funksiyalarini (bu o‘qituvchiga og‘riqli nuqtalarni topish, g‘oya taklif qilish, bunday o‘zgartirishlar oqibatlarini uzoq muddatli bashorat asosida ularni o‘zgartirib borish uslubiyatini ishlab chiqish imkoniyatini beradi) birgalikda olib borishining zaruriyati haqidagi fikrlar V.I.Suxomlinskiy tomonidan ham aytib o‘tilgan: «Agar siz pedagogik mehnat o‘qituvchiga quvonch olib kelishini, har kungi dars berishlar bir qolipdagi zerikarli ishga aylanib qolmasligini xohlasangiz, har bir o‘qituvchini baxtli tadqiqot yo‘lagiga boshlang… O‘zini tadqiqotchi sifatida his qilgan o‘qituvchi pedagogik mehnatning ustasiga aylanadi.

S.M.Shalyutinning qayd etishicha, «inson quyidagi sharoitlarda ijodiy izlanishlarga murojaat qiladi: a) masalani hal etish algoritmi mavjud emas; b) masalani hal etish algoritmi mavjud bo‘lsa-da, lekin noma’lum (yoki umuman noma’lum yoki ushbu shaxs uchun noma’lum); v) algoritm ma’lum, lekin juda

murakkab, masalaning individual xususiyatlaridan kelib chiqib uni yechish yo‘lini qisqartirishga umid qilish mumkin».

O‘qituvchi innovatsion faoliyatining o‘ziga xosligi shundaki, pedagoglarga o‘rgatiladigan usullar va uslublar to‘plami mavjud bo‘lsa-da, bu faoliyatni to‘liq algoritmlash deyarli mumkin emas. Ba’zi uslublar boshlangan innovatsion jarayonni to‘xtatishga xizmat qiladi. Ularning ichida eng keng tarqalganlari quyidagilar hisoblanadi:

– «konkretlashtiruvchi hujjatlar uslubi» – eng asosiysi yangilikning, mazmunning hajman tarqalib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik;

– «qismlab joriy qilish uslubi» – faqat bir unsurni olib kirish;

– «amaliy sinov uslubi» – sun’iy ravishda sinov tarzida ushlab turish;

– «hisobotli joriy qilish uslubi» – haqiqatan joriy qilishni aniq ifoda etmaslik;

– «parallel joriy qilish uslubi» – yangilikning eskisi bilan birgalikda amalda bo‘lishi. Ko‘p unsurlar yangiliklari bilan almashtirilmaydi, birgalikda amalda bo‘ladi.

Quyidagilar bir qator maxsus tashkil etilgan shartlarni qanoatlantirsa o‘qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorlash jarayoni ma’lum darajada boshqariluvchi jarayon bo‘lishi mumkin:

– ko‘p bo‘g‘inli pedagogik ta’lim barcha bosqichlarining barqarorligi;

– oliy o‘quv yurtidagi ta’limning o‘qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorlashning umumlashtirilgan modeliga yo‘naltirilishi;

– bo‘lg‘usi o‘qituvchining ushbu faoliyatga tayyorligini psixologik tashxislash;

– talabalarda ijodiy faollik va pedagogik innovatsiyalarga motivatsiyali yaxlit munosabatni shakllantirish;

– o‘qituvchining metodologik, maxsus, umumpedagogik, psixologik va metodik tayyorgarligining o‘zaro bog‘liqligi;

– bosqichlararo va fanlararo o‘zaro ta’sirning amalga oshirilishi, bilimlarning innovatikaning umumiy muammolari oqimida integratsiyalashuvi;

– talabalarda innovatika madaniyatini, yangilikni his eta olishni shakllantirish;

– pedagogik amaliyotning tizim tashkil qiluvchi funksiyalarini uning tadqiqiy tayyorgarligi bilan yaxlitlikda ta’minlash;

– o‘qituvchining innovatsion faoliyatni o‘zlashtirish dinamikasini o‘rganish va mezonli baholash (В.А.Сластенин, Л.С. Подымова).

Bu shartlar bir tomondan, oliy o‘quv yurtidagi ta’lim tizimi, ikkinchi tomondan, pedagogika OTM professor-o‘qituvchilari tarkibining bevosita talabalar ishtirokidagi rejali ilmiy tadqiqot ishlari bilan qanoatlantiriladi.

O‘qituvchining yuqorida sanab o‘tilgan pedagogik g‘oyalarni amalga oshirishga tayyorligining umumiy alomatlari quyidagilar bo‘lishi mumkin:

– pedagogning sinfda kutilayotgan aloqasini o‘quvchilar bilan bevosita faoliyat olib borishga tayyorgarlik jarayonidayoq modellashtirishni uddalay olishi;

– o‘zining har qanday harakatini o‘quvchilar ko‘zi bilan ko‘ra olish qobiliyati, o‘zining pedagogik harakatlari mazmuni va natijalarining o‘quvchi ongida, qarashlarida qanday aks etganini aniqlay olish qobiliyati va bunga bo‘lgan xohish;

– pedagog va o‘quvchilarning emotsional birdamligi, bu o‘qituvchiga darsda kutilayotgan vaziyatni oldindan ko‘ra olish, dars paytida kutilishi mumkin bo‘lgan o‘zaro aloqalar saviyasini his qila olish va uni kelajakda rivojlantirishga yordam beradi;

– o‘quv jarayoniga har bir o‘quvchining sub’ektiv tajribasini qo‘sha olish malakasi;

– hamkasb nuqtai nazarini tushuna olish bilan bir paytda jamoada prinsipial hamda talabchan bo‘la olish malakasi va boshqalar.

Qayd etib o‘tilgan alomatlar ustuvor ravishda o‘qituvchining pedagogik qarashlarini oldindan belgilab beradi, bu qarashlar ushbu o‘qituvchining o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan innovatsion faoliyatni amalga oshira olish yoki olmasligini aniqlab beradi.

O‘qituvchining shaxsga, shaxs munosabatlariga yo‘naltirilgan innovatsion faoliyatni amalga oshirishga tayyorligini tekshirishning ishonchli vositasi pedagogik vaziyatlar va jarayonlardagi innovatsion harakatlar hisoblanadi.

Innovatsion harakatni biz tashqi tashkilotchilik va qayta qurishlar deb emas, balki ko‘zlangan maqsadlarga qaratilgan shu sohadagi hayot sifatida, jamoaviy ijod sifatida birgalikdagi harakat deb tushunamiz. Albatta, bu harakatni tashkil etish, rejalashtirish, loyihalashtirish, kuzatib borish, u haqda fikr yuritish, ya’ni psixologik-pedagogik ta’minotni amalga oshirish kerak. Lekin uning harakatlantiruvchi motori pedagoglar jamoasi  sanaladi, unga energiyani tashabbuskorlar beradi, barcha ishtirokchilarning o‘zaro aloqalari nafaqat bilim va loyihalar, balki jarayon ishtirokchilarini qiziqtiruvchi va ilhomlantiruvchi jonli g‘oyalar bilan ta’minlanadi. Maktab innovatsion faoliyatining psixologik-pedagogik ta’minotiga hamkorlik, ya’ni innovatsion faoliyatni optimallashtirishni ta’minlovchi maktab jamoasining barcha a’zolari o‘rtasida ijtimoiy o‘zaro aloqalarni o‘rnatishga yo‘naltirilgan murakkab psixologik-pedagogik jarayon sifatida qaraladi.

Bo‘lg‘usi o‘qituvchilar innovatsion faoliyati psixologik-pedagogik ta’minotining muhim tarkibiy qismi ularning oliy o‘quv yurtidagi tayyorgarligi hisoblanadi. Davlatning maktablarni qayta qurishga munosabati yuqori darajada ijobiy bo‘lganda ham pedagogik kadrlarni tayyorlashga mas’ul bo‘lganlarning qarashlarini tubdan o‘zgartirish talab qilinadi. O‘zgartirishlarning uzoq muddatli strategiyasini belgilab olish kerak. Bu strategiyada o‘qituvchi tayyorlash boshqacha asosda, bevosita innovatsiyaga yaqinlashtiruvchi asosda olib borilishi muhim o‘rin egallashi lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Сластенин В.А., Подымова Л.С. Педагогика: инноваонционная деятелность. М., 1997.

# PEDAGOGIK FANLARNI MUKAMMAL O'RGANISHDA RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIMNING INNOVATSION IMKONIYATLARI

***B.MULLAYEV,***
*FarDU AKTM boshlig'i*

*Maqolada malakali kadrlar tayyorlashda pedagogika fanlarini mukammal o'rganishning o'rni va axamiyati taxlil qilingan, pedagogik jarayonning asosiy omillari va imkoniyatlaridanmaqsadli va samarali foydalanish yo'llari ko'rsatib berilgan.*

***Tayanch so'zlar:*** *pedagogik, kasbiy, shaxs, buyurtma, ta'sir, rivojlantiruvchi ta'lim, tarbiya, modifikatsiya, konstruktiv, diagnostik, texnologiya, motivatsiya.*

*В статье анализируется роль и значение безупречного изучения педагогических дисциплин в подготовке квалифицированных кадров, показаны основные факторы и возможности педагогического процесса и способы их целенаправленного и эффективного использования.*

***Ключевые слова:*** *педагогический, профессиональный, личность, порядок, влияние, развивающее обучение, воспитание, модификатsія, конструктивная, диагностическая, технология, мотиваtsія.*

*The state analyzes the role and importance of studying pedagogical discipline in the training of qualified personnel, shows the main factors and possibilities of the pedagogical process, as well as the possibilities of effective management and effective use.*

***Key words:*** *pedagogical, professional, personality, order, influence, developmental teaching, upbringing, modification, constructive, diagnostics, technology, motivation.*

Innovatsion o'quv-tarbiyalash tizimi murakkab va keng qamrovlidir. Unda bo'lajak o'qituvchini kasbiy-shaxsiy shakllantirish, uning shaxsini innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirish va takomillashtirishga qaratiladi.

Bunday pedagogik kurslar dasturlariga (pedagogika OUYulari bakalavriati uchun) bo'lajak mutaxassislarni bundan ko'ra puxta rivojlantiruvchi ta'limi va tarbiyasiga mo'ljallangan maqsadli novatsiyalar kiritilganligi nazarda tutiladi.

Maqsadli o'rganish – pedagogika fanlarining qayd qilingan dasturlarining tahlili natijasida mazkur amaldagi o'quv hujjatlariga tegishli to'g'rilash, qo'shimchalar kiritiladi, ularni modifikatsiyalash bo'icha tavsiyalar beriladi.

"Pedagogika tarixi". Mazkur fanning tarixi keng qamrovli va chuqur o'rganiladi. Biroq, fikrimizcha, dasturga quyidagi qo'shimchalarni kiritish lozim:

dasturning maqsadli mo'ljallarida tarbiyaviy omil, tarbiyalash muammosini rivojlantirishga e'tiborni qaratish;

bakalavrlarga qo'yiladigan talablarda quyidagi imkoniyatni ko'zda tutish: bo'lajak o'qituvchilarda o'rganilayotgan material bo'yicha o'zining munosabati,

nuqtai nazari, fikrini shakllantirish; bo‘lajak pedagogik amaliyotda uni amalga oshirishning istiqbolini belgilaydi;

bayon qilingan pedagogik texnologiyalarda kursni o‘rganish uchun foydalanishda (ma’ruza va seminar mashg‘ulotlarida qo‘llash – ko‘rgazmli vositalar, pedagogika bo‘yicha ilmiy asarlar, axborot texnologiyalari) ularning ilmiy taqdim etishni ko‘zda tutish;

shuningdek – ma’ruza va seminar mashg‘ulotlarida o‘quv-tarbiyaviy jarayonni ixtisoslik tomon yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyalarni qo‘llash va ilmiy tadim etish;

o‘quv-tarbiya tizimi, o‘quv-tarbiya jarayoni texnologiyasi;

texnologiyalar – motivatsion, loiyhalashtiruvchi, protsessual-shakllantiruvchi, konstruktiv, diagnostik.

Ma’ruza va seminar mashg‘ulotlarining mazmunida tarbiyaiy omilga urg‘u berish.

“Xalq pedagogikasi”. Dasturning maqsadli mo‘ljallarida talabalarda milliy g‘urur, milliy tafakkur, boshqa xalqlarning milliy-madaniy qadriyatlariga nisbatan hurmatni tarbiyalashga e’tibor beriladi. Ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar tematikasida xalq pedagogikasining hatto zamonaviy tarbiyaviy jarayonda (nazariy jihatdan) ham tarbiyaviy salohiyatiga katta e’tibor qaratiladi.

Biroq ma’ruza va seminar mashg‘ulotlarining to‘liq rejasida bo‘lajak o‘qituvchi-tarbiyachilar uchun haqiqiy-pedagogik istiqbolli-amaliy imkoniyatlar to‘la ochib berilmaydi. Nazorat savollarida ham bunga urg‘u mavjud emas. Pedagogik texnolgiyalar to‘g‘risida umuman gap yo‘q. Mazkur kursning dasturini ilmiy modifikatsiya qilib, quyidagi qoidalar nazarda tutiladi:

bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy-shaxsiy va bilish-ehtiyojiga muvofiq tarbiyaviy ta’sirni kuchaytirish;

bakalavrlar talabalarga tegishli talablar tarzida aniq kasbiy-shaxsiy talablarni belgilash; kursni o‘rganishda pedagogik texnologiyalarga mo‘ljal olish (“Pedagogika tarixi” kursini o‘rganishda taklif qilinadigan namunaga ko‘ra).

“Buyuk o‘rta asr Sharq mutafakkirlarining psixologik-pedagogik g‘oyalari”. Dasturning maqsadi –qadimiy-olimlarning asarlarida o‘qitish va tarbiyalash masalalarini o‘rganish,ularni umumlashtirish va zamonaviy amaliyot bilan intgratsiyalashtirish. Biroq texnologik, jumladan, innovatsion yondashuvlar haqida ma’lumot yo‘q. Maxsus kursning o‘quv-tematik rejasida o‘sib borayotgan avlodni o‘qiish va tarbiyalashning tarixiy-nazariy yondashuvlariga urg‘u beriladi, ammo bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-shaxsiy ongiga singdirilmaydi; ularni zamonaviy amaliyotga integratsiyalashuvining real yo‘llari ko‘rsatib o‘tilmagan.

Mazkur kursni takomillashtirish maqsadida quyidagi o‘zgartirishlar kiritish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

dasturning mazmunida uning muhim vazifasini aks ettirish – ensiklopedist-mutafakkirlarning pedagogik (tarbiyaviy) g‘oyalarini zamonaviy pedagogik amaliyotga integratsiyalashuvi, bunda nazariy-amaliy mashg‘ulotlarga alohida e’tibor qaratish;

tushuntirish xatida texnologiyalardan (umumiy, aniq-lokal, xususiy-metodik) ijodiy foydalanishga urg‘u berish.

“Pedagogika”. Bu – integratsiyalashgan kurs (o‘qitish-tarbiyalash tarixi, nazariyasi, metodikasi; shuningdek O‘zbekistonda pedagogika va ta’lim tizimini rivojlantirish masalalari).

Vazifalari: talabalarda tarbiyaviy ish bilan bog‘liq kasb amaliyoti haqida to‘g‘ri tasavvurni shakllantirish. O‘qitish va tarbiyalash muammolarini ijodiy muhokama qilish ko‘zda tutilgan. Mashg‘ulotlarni amaliy xarakteri kuchaytiriladi. Talabalarning mustaqil ishi, qo‘shimcha adabiyotni o‘rganishga katta e’tibor beriladi.

Dasturda asosan mavzular bo‘yicha quyidagilarga e’tibor berilgan:

I. Shaxs, uning mohiyati, belgilari; o‘qituvchining shaxsiy sifatlari; tarbiya tarixi; pedagog shaxsini tarbiyalash va rivojlantirish to‘g‘risida; shaxsni rivojlantirish, tarbiyalash va shakllantirish; mazkur jarayonga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar; ensiklopedistlar shaxsni rivojlantirish haqida; shaxsning o‘z-o‘zini rivojlanishidagi xususyatlar.

II. Tarbiyalash jarayonining mohiyati, uning asosiy qonuniyatlari. Yaxlit pedagogik jarayonda tarbiyalashning prinsiplari, usullari va vositalari.

III. Shaxsning ruhiyatini shakllantirish. Shaxs va bolalar jamoasi, tarbiyalash jarayonida ularning o‘zaro aloqasi.

IV. Yaxlit o‘quv-tarbiya jarayonida fikrlash va ilmiy tafakkurni shakllantirish.

V. Aqliy, ahloqiy vatanparvarlik, ruhiy-ma’naviy, estetik, ekologik, mehnat, jismoniy.

VI. Sinf rahbari o‘quvchilar bilan sinfda tarbiyaviy ishning tashkilotchisi: funksiyalari, vazifalari, usullari.

VII. Didaktika – o‘qitish jarayoni haqidagi fan: mohiyati, qonuniyatlari, prinsiplari, funksiyalari.

VIII. O‘qish tarbiya usullari va vositalari.

IX. O‘qish jarayonida o‘quv-tarbiya ishini tashkil qilish: shakllari, usullari, o‘quv birligi dars; pedagogik texnologiyalari (tushuncha), yangi pedagogik texnologiyalarining metodik asoslar.

Seminar mashg'ulotlari tematikasiga quyidagilar kiritiladi: tarbiya masalalari (tarixiy jihatdan); pedagogika shaxsni tarbiyalash va rivojlantirish haqidagi fan sifatida; shaxsni tarbiyalash va rivojlantirish omillari; maktab o'quvchisi shaxsini rivojlantirishda yoshga doir bosqichlar; tarbiyalash jarayonining mohiyati, uning asosiy qonuniyatlari, prinsiplari va usullari; tarbiyalash usullarining tasnifi; shaxsni ongini shakllantirish usullari, faoliyati, jamoa xulqini o'rganish.

Shu tariqa maktab o'quvchilarini tarbiyalashning asosiy mavzulari, masalalari va jihatlari qamrab olinadi. Biroq mazkur tarbiyaning texnologik tomonlari va bo'lajak o'qituvchining kasbiy-shaxsiy tarbiyasiga ahamiyat berilmagan. Shu sababli, biz tomondan "O'qituvchining shaxsi" fakultativ kursi dasturi ishlab chiqqanmiz.

Pedagogika bo'yicha namunali dastur, hujjat hisoblanadi. U zamonaviy ta'lim va aniq-pedagogik voqelikning hisobi bilan, vakolatli, metodologik, ijtimoiy-pedagogik, psixologik-pedagogik, nazariy-pedagogik hamda amaliy, didaktik jihatdan to'g'ri tuzilgan. Mazkur dastur bo'lajak o'qituvchilar, pedagogika fani o'qituvchilari tomonidan uning barcha jihatlarini, jumladan, imkon qadar amaliy jihatidan ham o'rganish uchun nazarda tutiladi.

Mazkur mavzularga tegishli tarzda seminar mashg'ulotlari (I), laboratoriya (II) va referativ (III), shuningdek – kurs (IV) ishlari tematikasini nazarda tutilgan:

Seminar mavzulari:"Pedagogik amaliyotda innovatsion faoliyatning me'yoriy asosi", "Innovatsion ta'lim muammosini davlat miqyosida qo'yish", "Pedagog, o'qituvchi – novator", "Innovatsion texnologiyalar, ularga qo'yiladigan talablar", "Innovatsion texnologiyalar manbalari", "Pedagogik faoliyatda innovatsiyalarning roli va o'rni", "Maktabda tarbiyaviy ishni rejalashtirish (sinf rahbari, gumanitar predmet o'qituvchisi tomonidan)", "Pedagogik texnologiyalar istiqbollari", "Texnologik-pedagogik texnologiyalar muvaffaqiyatini ta'minlovchi omillar va sharoitlar", "Innovatsion pedagogik texnologiyalar miqyosi".

II. Laboratoriya ishlari mavzulari: "O'quvchilar bilan o'qish-tarbiya ishida umuminsoniy, milliy qadriyatlardan foydalanish texnologiyasi misollari", "Maktab o'quvchilarida "estetik boy tafakkurni" shakllantirishda badiiy asarlardan foydalanish texnologiyasi", "O'quv-tarbiyaviy jarayonda innovatsion texnologiyalar ustuvorligining isboti", "O'qish/tarbiya texnologiyasi pedagogi, o'qituvchisiga talablar", "O'qish-tarbiya jarayoni texnologiyasi – tizimni muhokamasi", "O'qituvchi, domla uchun innovatsion texnologiyalardan foydalanish bo'yicha eslatma", "O'qish-tarbiya jarayonida o'yinli texnologiyalar", "Pedagog, o'qituvchini innovatsion-pedagogik faoliyatiga tayyorgarligi mezonlari" (muhokama), "O'qish jarayoni – ma'ruza, darsga innovatsion

yondashuv", "O'quvchilarning topshiriqlari va intellektual-ijodiy ishlariga innovatsion yondashuv", "O'qishning innovatsion texnologiyasi: "breynstorming"ni o'zlashtirish (o'qituvchi, talabalar, o'quvchilarga talablar)", "Pedagogik amaliyotiga mo'ljallangan invariant test topshiriqlarini o'zlashtirish".

III. Referatlar tematikasi: "Innovatsion o'qitish va tarbiya mohiyati", "Pedagogik texnologiya-pedagogikaning yo'nalishi sifatida", "Zamonaviy ta'limda innovatsion texnologiyalar muammosi", "Ilg'or, progressiv pedagogik texnologiyalari" yoki: "Alohida maqom olgan zamonaviy pedagogik texnologiyalari", "Xorij mamlakatlarida pedagogik texnologiyalar".

IV. Kurs ishlari tematikasi: "O'zbekiston Respublikasida Kadrlarni tayyorlash milliy dasturi – yangi avlod mutaxassislarini tayyorlashning muhim omili", "Innovatsion pedagogik texnologiyalar yangi ta'lim qadriyatlari sifatida", "O'zbekiston pedagogik OUYularida pedagogik texnologiyalar", "Ta'limni o'rta bo'g'inida tarbiya tizimi texnologikligi", "Pedagogikada innovatsion jarayonlar va istiqbolli texnologiyasi", "Mahalliy didaktika va jahon pedagogik amaliyotida samarali texnologiyalar", "Pedagogik ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalar", "O'quv-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalar va shaxsiy omil", "Innovatsion-texnologik jarayon xususiyatlari".

"Pedagogik texnologiya". Pedagogik texnologiya alohida fan va pedagogik professionalizmning eng muhim elementi sifatida o'rganiladi. Muammoni konseptual va mazmunli ishlanganligini o'rganish ko'zda tutiladi.

Vazifalari: pedagogik texnologiyaning pedagogik fanlar tizimidagi o'rni o'rganiladi; muammoning mazmunini ochib berish, pedagogik texnologiyani amalda egallash uchun pedagogik texnologiyani o'rganish yo'llarini, shaxsiy-xarakterologik shartlarini aniqlash.

Mazkur kursni o'rganayotgan talabalarga asosiy talablar qo'yiladi – o'quv auditoriyasida professionalizmning texnologik jihatini egallash, o'quv va tarbiya pedagogik texnologiyalarini mustaqil o'rganish va egallash. Ta'lim texnologiyalari kursni o'rganish jarayonida, seminarlarda, laboratoriya mashg'ulotlarida o'zlashtiriladi.

Seminar mashg'ulotlari tematikasi: "Pedagogik texnologiyalarning metodologik asoslari", "Pedagogik faoliyat tizim sifatida", "O'qituvchining innovatsion faoliyati", "O'qitish usullari va vositalari", "An'anaviy o'qitish, rivojlantiruvchi o'qitish, innovatsion o'qitish", "Shaxsni rivojlantirish qonuniyatlari", "Pedagogik texnologiyalar sifati", "Pedagogik texnologiyalar tasnifi", "Predmetli o'qitish texnologiyalar", "Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar", "Muammoli o'qish", "O'yin texnologiyalari", "Didaktik o'yinlar", "Pedagogik texnologiyalar", "Ma'ruzalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish strategiyasi", "Tadqiqotchilik ko'nikmasini rivojlantirish texnologiyasi", "Tarbiya

jarayonining diagnostikasi", "Tarbiya texnologiyalari turlari", "O'qituvchining kreativ qobiliyatlari", "O'qituvchi faoliyatida muloqot", "Pedagogik jarayonda ixlos tug'dirish va ishontirish", "Pedagog uslubi", "O'qituvchining obro'si".

Modulli texnologiyalardan foydalanish. – "Pedagog – bo'lajak o'qituvchi" tizimida. Modulli, birlashtirilgan ma'ruzalar – markaziy o'rinni har biriga (individual qobiliyat va imkoniyatlar hisobi bilan) vazifa berilgan talabalar egallash. Darslik, qo'llanma va boshqa adabiyot, ma'lumotnomalar bilan ishlash ko'zda tutiladi. O'qituvchining hammuallifligi va maslahat berish tarzida yordami ruxsat etiladi. Talabalarda anglab yetilgan motivatsiya yuzaga keladi, fanga qiziqishi ortadi, ularning bandligi faollashadi, mutlaq intizom ta'minlanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Абдукаримов Ҳ., Сувонов О. Педагогик технология ва педагогик маҳорат.-Т.: Мумто сўз, 2010.-76 б.
2. Абдуқадиров А.А.Астанова Ф.А., Абдуқадирова Ф.А. "Case-study" услуби:назария, амалиёт ва тажриба.- Т.:Тафаккур қаноти, 2012.-134 б.
3. Азизхўжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат.-Т.: 2003.-174 б.
4. Нурмонов А. Ва бошқалар. Янги педагогик технология асослари (интерфаол дарслар).
5. Фарберман Б.Л. Илғор педагогик технологиялар. Тошкент. 1999.-84 б.

# UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA PEDAGOG KADRLARNING UMUMMADANIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

**_B.SOBIROV,_**
*TDPU, p.f.n*

*Maqolada malaka oshirish tizimida pedagog kadrlarning umummadaniy kompetensiyalarini uzluksiz rivojlantirish modelini takomillashtirish prinsiplari, parametr va indikatorlari ochib berilgan. Ilg'or AKSh, Fransiya, Germaniya mamalakatlarning pedagog kadrlarning umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirish tajribalari keltirildi.*
***Kalit so'zlar:*** *pedagog, kadr, malaka oshirish tizimi, indikatorlar, kompetensiya, umummadaniy.*

*В статье расскрываются принципы, параметры и индикаторы совершенствования модели развития общечеловческих компетенции педагогических кадров в системе повышения квалификatsiи. Приведена практика развития общечеловческих компетенции педагогических кадров в системе повышения квалификatsiи в развитых стран США, Франция и Германия.*
***Ключевые слова:*** *Педагог, кадры, система повышения квалификatsiи, компетенции, общечеловеческие.*

*The article reveals the principles, parameters and indicators of improving the model for the development of universal competence of teaching staff in the system of advanced training. The practice of development of general human competence of teaching staff in the system of advanced training in the developed countries of the USA, France and Germany is presented.*
***Key words:*** *Teacher, personnel, advanced training system, competencies, universal.*

Malaka oshirish tizimida pedagog kadrlarning umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirish modelini takomillashtirish uchun tadqiqot doirasida amaliy holat tadqiq qilindi. Buning uchun Samarqand, Navoiy, Buxoro, Jizzax, Sirdaryo xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazlaridagi tinglovchilarning pedagogik faoliyati o'rganildi.

Mazkur tizimda faoliyat yuritayotgan o'qituvchilarning pedagogik faoliyatini tashkil etish bo'yicha olib borilgan amaliy holat va pedagogik faoliyatni o'rganish uchun ishchi xorijiy tajriba, mavjud o'quv rejalar, metodik qo'llanmalar va ular mazmuni, o'qituvchining shaxsiy metodik tajribasi masalalari ko'rib chiqildi va tadqiq qilindi. Xorij tajribasiga tuxtalsak.

Yevropada o'qituvchilar malakasini oliy ta'lim muassasalarida oshirish keng tarqalganini ko'rish mumkin. Masalan, Fransiyada malaka oshirishning asosiy muassasalari – universitetlar, institutlar, akademiya va o'quv markazlari. Germaniyada pedagoglar malakasini oshirish ko'proq akademiya va malaka oshirish institutlarida tashkil etiladi. Yevropa mamlakatlarining aksariyatida

o‘qituvchilarning malakasini oshirishda tegishli markazlar va pedagoglar kasbiy uyushmalari(birlashmalar, jamoalar, assotsiatsiyalar va boshqalar)ning roli katta.

Ushbu jarayonni tashkil etishda turli pedagogik qo‘llab-quvvatlash markazlari, korporatsiyalar, firmalar, xalqaro tashkilotlar, xususiy muassasalarning ishtiroki ham salmoqlidir. Masalan, Germaniyada pedagoglarning kasbiy rivojlanishini tashkil etish bilan cherkov, banklar, nashriyotlar ham shug‘ullanadi. Bu esa mazkur mamlakatda malaka oshirish tizimining jamoat-davlat tavsifiga ega ekanligini ko‘rsatadi [1, 2, 3].

Rivojlangan davlatlarda pedagoglarning kasbiy rivojlanishiga xalqaro tashkilotlar ham o‘z hissasini qo‘shmoqda. Masalan, World Affaigs Council (AQSh) tashkilotining asosiy ish yo‘nalishi o‘qituvchilar bilan ishlash hisoblanadi. Bu borada Kengash o‘qituvchilar uchun kasbiy treninglar, seminar va yozgi kurslar, eng yaxshi o‘qituvchi unvoni uchun tanlovlar, siyosiy va davlat arboblari bilan qiziqarli uchrashuvlar o‘tkazadi, o‘quv va metodik qo‘llanmalar ishlab chiqadi va keyinchalik ularni Internet tarmog‘iga joylashtiradi. Eng asosiysi, yirik xalqaro jamoat tashkilotlari rivojlanayotgan davlatlarda ham o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga, o‘sishiga ko‘maklashmoqda. Masalan, 1993 yili OLSET xalqaro tashkiloti tomonidan Janubiy Afrika Respublikasida "Harakatdagi ingliz tili" loyihasi boshlangan bo‘lib, uning asosiy vazifalaridan biri – ikkinchi davlat tili sifatida ingliz tili o‘qituvchilarini kasbiy rivojlantirish, Xitoyda esa YuNISEF bilan hamkorlikda (sun’iy yo‘ldosh aloqasi vositalaridan foydalana boshlagan uzoq hududlardagi o‘qituvchilar uchun) o‘qituvchilar malakasini oshirishning masofadan o‘qitish loyihasi amalga oshirilgan [2].

Pedagog kadrlarning umummadaniy kompetensiya modelini takomillashtirish jarayonida amal qiladigan prinsip, parametr va indikatorlarni aniqlashda ham aynan davlat va jamiyatning ijtimoiy ehtiyojlarini qondiradigan ijtimoiy institut bo‘lgan XTXQTMOHM oldiga qo‘yilgan vazifa: har bir o‘qituvchining iqtidori, pedagogik mahorati, ilmiy salohiyatidan kelib chiqqan holda tarixiy-ma’naviy va madaniy qadriyatlar, xalqimizning an’analari, fan, texnika, texnologiya sohasida erishilgan zamonaviy yutuqlar asos qilib olindi.

Kvalimetriya mahsulotning sifatini miqdoriy ko‘rsatgichlar asosida baholash metodlarini o‘zida umumlashtirgan fan sohasi hisoblanadi. Agarda kvalimetriya atamasining etimologiyasi tahlil qilinadigan bo‘lsa, mazkur atama lotin tilidagi "qualis" - "sifati bo‘yicha qanday" hamda yunon tilidagi "metria" - "o‘lchash" so‘zlaridan kelib chiqqan.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda barcha parametr va indikatorlar sifat ko‘rsatkichi quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$S = \frac{100 * R}{M}$$

Bunda: $M$ - Parametr va indikatorlar bo‘yicha to‘planishi lozim bo‘lgan maksimal ball;

*R*- Parametr va indikatorlar bo‘yicha to‘plangan real ball;

*S*- Parametr va indikatorlar bo‘yicha samaradorlik foizi.

Pedagog kadrlarning umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirish prinsipi quyidagi parametr va indikatorlar asosida baholanadi.

Pedagog kadrlarning umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirishning ikkinchi prinsipi “Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarning natijaviyligi” sifatida belgilandi. Mazkur parametrning “natijaviylik” indikatori quyidagi ko‘rsatgichlar asosida - aniqlanadi:

O‘qituvchilarning davlat talablarini bajarish darajasi;

Ye-portfolioning umumiy natijalari;

O‘qituvchining targ‘ibot-tashviqot ishlaridagi faolligi natijasi;

o‘qituvchi va o‘quvchilar faoliyatini o‘rganishda ilmiy-uslubiy, diagnostik va nazariy asosga ega metodlardan foydalanilishi;

o‘qituvchi, maktab psixologi va rahbar o‘rinbosari faoliyatlarining ilmiy-metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilganligi;

o‘quvchi, o‘qituvchi, maktab rahbariyati faoliyatini jamoatchilik tomonidan nazorat etuvchi, ota-onalar, jamoatchilik fikrini o‘rganuvchi mexanizmning mavjudligi va natijaviyligi;

ta’lim muassasasini boshqarish holati, muammo va kamchiliklarini ifodalovchi tahlillarning mavjudligi;

nazariy, pedagogik, ilmiy-metodik tayyorgarlik, g‘oyaviy-siyosiy va ma’naviy-axloqiy, ijodiy va ijtimoiy faollik darajasining ortganligi;

malaka oshirish tizimining nazariy-metodik jihatdan asoslanganligi, bu jarayonda zamonaviy pedagogik, axborot va innovatsion texnologiyalardan foydalanish uchun zarur bo‘lgan metodik bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashga e’tibor qaratilganligi;

o‘qituvchining ijtimoiy-psixologik, muloqot san’ati, madaniyati va mahorati sohasidagi bilim, ko‘nikma va malakalarga hamda to‘g‘ri qaror qabul qilish va uni bajarilishini nazorat etish, tashkilotchilik qobiliyatlariga egaligi;

Pedagog kadrlarning umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirishning uchinchi parametri “O‘qituvchining innovatsion faoliyatini tashkil etish asosida samarali boshqarilishi” hisoblanadi. Mazkur parametrning indikatorlari sifatida:

o‘quv-tarbiya jarayoni sifatini ta’minlashga oid innovatsion strategiyalarni belgilash ko‘nikmalarining mavjudligi;

ta’lim iste’molchilari va pedagogik xizmat ko‘rsatuvchilar o‘rtasida ijtimoiy hamkorlikning o‘rnatilganligi;

vaqtni samarali taqsimlash, muammoni malakali tarzda aniqlay olish, maqsad va vazifalarni to‘g‘ri belgilash, xodimlar o‘rtasida ishni tashkil eta olish layoqatiga egaligi;

o‘qituvchining moslashuvchanligi: jamoada shaxslararo munosabatlarning

dinamikasini tavsiflay olishi;

yetakchiligi: muammoli vaziyatlarni hal qila olish, o‘zgalardan barcha xususiyatlari bilan sifat jihatdan yuqori tura olishi;

kirishuvchanligi: ijobiy ijtimoiy aloqalarni o‘rnata olishi, ruxiy zo‘riqish va bosimlarga qarshi tura olishi kabilar belgilangan.

Navbatdagi indikator “Ta’lim-tarbiya jarayonida demokratik tamoyillar” hisoblanadi. Mazkur indikator quyidagi ko‘rsatgichlar asosida baholanadi:

o‘qituvchilar, o‘quvchilar faoliyatini boshqara olish qobiliyatiga egaligi;

ta’lim muassasasida o‘quvchilar tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirishning yo‘lga qo‘yilganligi;

maktabda sog‘lom raqobat va o‘z-o‘zini tanqidiy baholashga nisbatan do‘stona munosabatning shakllanganligi;

ta’lim muassasasida shaxslararo ziddiyatlarni bartaraf etish tizimining mavjudligi;

maktabdagi o‘quvchilar hamda o‘qituvchilar jamoasida samimiylik va o‘zaro hamkorlikka asoslangan ishchan muhitning yaratilganligi;

sinflar kesimida darslarni taqsimlashda o‘qituvchilar tajribasi va tayyorgarlik darajasining hisobga olinganligi;

o‘quvchilar va o‘qituvchilarning maktab ichki tartib-qoidalariga qat’iy amal qilishiga erishilganligi;

yetakchilik (liderlik) qobiliyatiga ega bo‘lgan o‘quvchilar faoliyatining rag‘batlantirib borilganligi;

o‘quvchilar tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash tizimining mavjudligi;

ta’lim muassasasidagi sharoitlar o‘quvchilar va ota-onalarni qay darajada qoniqtirishining o‘rganilganligi hamda tahlil qilinganligi;

o‘quvchilar, ota-onalar va boshqa manfaatdor tomonlarning takliflari, so‘rovlariga muvofiq tarzda o‘qitish sifatini nazorat qilish va ta’minlashning ichki tizimi yaratilganligi;

o‘quvchilarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish hamda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida sinfdan va maktabdan tashqari tadbirlarni talablar darajasida tashkil qilish tizimining yaratilganligi kabilardan iborat.

pedagog kadrlar (o‘qituvchilar) va o‘quvchilar uchun ijodiy muhit yaratilganligi, tashabbuslar va yangiliklarga qiziqish hosil bo‘lganligi kabilar.

Shu bilan bir qatorda indikator ko‘rsatgichlaridan maktabning sog‘liqni saqlash idoralari bilan hamkorlikning yo‘lga qo‘yilganligi; maktabning ota-onalar, mahalla, sog‘lomlashtirish muassasalari hamda huquq-tartibot organlari bilan hamkorligi yo‘lga qo‘yilganligi; dars jarayoni (masalan, mehnat, jismoniy tarbiya darslari)da o‘quvchilar jarohat olish holatlari oldi olinganligi; dars jadvalining O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi va Sog‘liqni saqlash vazirliklari tomonidan belgilangan me’yorlar inobatga olgan holda tuzilganligi; maktab rahbariyati

o‘quvchilarning ota-onalari, emotsional holatlarining oldini olishga yordam berish malakasiga egaliklari, shu masala bo‘yicha maktab direktori va o‘rinbosarining malakalarini tegishli tashkilotlarda oshirganliklari (tegishli hujjatlarning mavjudligi); maktabda bolalarning o‘zlarini qiziqtirgan masalalar bo‘yicha shaxsiy fikrlarini ifoda etishlari uchun shart-sharoitlarning yaratilganligi (devoriy gazeta, maktab radiosi, axborotlar doskasi, dars jarayonida mavjudligi); o‘quvchilar o‘z sinfi, maktabi miqyosida muammolarni yechishda faol ishtirok etganliklarining qo‘llab-quvvatlanishi baholanadi.

Pedagog kadrlarning umummadaniy kompetensiyalari rivojlanishi tizimida oilaning ishtiroki har jihatdan muhim hisoblanadi. Buning uchun eng avvalo farzandi maktabda ta’lim olayotgan turli darajadagi ma’lumotga ega bo‘lgan ota-onalarning bola tarbiyasidagi tajribasi hamda pedagogik tayyorgarlik darajasini aniqlash zarurati borligini unutmaslik kerak. Buning uchun esa sinflar kesimida ota-onalarning kasbi, ma’lumotlilik darajasi, oilada bola tarbiyasidagi tajribasi kabi mezonlar asosida ularni toifalarga ajratish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu ish maktabda amalga oshiriladi, toifalarga ajratilgan ota-onalarni maxsus dastur asosida o‘quv-seminarlari tashkil etish orqali tayyorlash mas’uliyati ham maktab pedagogik jamoasi zimmasiga yuklatiladi. Agar biz ta’lim sifatini ta’minlashda ota-onalarning yordami, qo‘llab-quvvatlashini bitta mezon sifatida qaraydigan bo‘lsak, shu ishni amalga oshirish maqsadga muvofiqligi ayon bo‘ladi. Ta’lim sifati darajasini aniqlashning bitta mezoni – ota-onalarni o‘z farzandiga ta’lim-tarbiya berishga tayyorlash yoki ularning malakalarini oshirishning samarali tizimini ishlab chiqishdan iborat bo‘ladi.

Ushbu vazifalarni qay tarzda amalga oshirish uchun o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berishga mutasaddi bo‘lgan muassasa va tashkilotlar, ota-ona va mahallaning vazifalarini aniq va ravshan ko‘rsatish maqsadga muvofiqdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Quality Assurance: A Reference System for Indicators and Evaluation Procedures. European Association of Universities. http://www.eua.be/eua/jsp/en/upload/ELU_EN.1082042243703.pdf

2. Процедуры оценки качества в Европейском высшем образовании. Исследование ЕСОК. Международная Стратегическая Группа Экспертов. www.iseg.ru/sessions/s6/dieced.doc

3. Управление качеством в системе открытого образования. http://www.ido.edu.ru/open/menegment/

# UZLUKSIZ PROFESSIONAL TA'LIMDA KOMPETENSIYALARNI BAHOLASH METODLARI

***N.KARIMOVA,***
*PIKHTBPKQTMOI dotsenti*

*Maqolada professional ta'limda kompetensiyaviy yondashuvlar mazmun mohiyati hamda kompetensiyalarni baholashda mustaqil va ijodiy topshiriqlarni ahamiyati, shuningdek kompetensiyalarni baholashda baholashning ko'p balli tizimini qo'llashning afzalliklari yoritib berilgan.*

***Tayanch so'zlar:*** *innovatsiya, kreativlik, motivatsiya, maxsus, kompetentlik, reyting, mezon, metod.*

*В статье отражены преимущества компетентностного подхода в профессиональном образовании а также важность самостоятельных и творческих заданий в оценке компетентности, а также важность оценки компетентности в много бальной системы оценки.*

***Ключевые слова:*** *инноватsія, креативность, мотиватsія, специальные компетентности, рейтинг, показатель, метод.*

*In article advantages competence the approach in vocational training and also importance of independent and creative tasks in a competence estimation, and also importance of an estimation of competence in many ball system of an estimation are reflected.*

***Key words:*** *Innovation, Creative , the motivation, special competence, a rating, an indicator, a method.*

Mamlakatimizda zamonaviy ta'lim tendensiyalari asosida kasbiy ta'lim tizimini isloh qilish bo'yicha keng qamrovli ishlar olib borilib, uning samaradorligini oshirish orqali malakali kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, professional ta'lim dasturlarini YuNESKO tashkiloti tomonidan qabul qilingan ta'limning xalqaro standart tasniflagichi (MSKO) darajalari bilan uyg'unlashtirish, o'quv jarayoniga Milliy kvalifikatsiya tizimi to'laqonli joriy etish talab etiladi. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish[1] " muhim ustuvor vazifa sifatida belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentyabrdagi PF-5812-sonli "Professional ta'lim tizimini yanada

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги "Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш Концепциясини тасдиқлаш тўғрисида" ПФ-5712-сон Фармони.

takomillashtirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi Farmonida Xalqaro tasniflagichning 3-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida 9-sinf bitiruvchilarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan boshlang'ich professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan ta'lim muassasalari tashkil etish, Xalqaro tasniflagichning 4-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida o'rta professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan ta'lim muassasalarini tashkil etish, Xalqaro tasniflagichning 5-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida oliy ta'lim tizimi bilan integratsiyalashgan o'rta maxsus professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan, oliy ta'lim muassasalari huzurida faoliyat yuritadigan ta'lim muassasalari ni tashkil etish, vazifasi belgilab berildi.

Yangi professional ta'lim tizimini joriy etilishi professional ta'lim muassasalarida innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarni qo'llash, zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarni ishlab chiqish, kompetensiyalarni shakllantirish va kompetensiya darajalarini baholash metodlarini ishlab chiqish va takomillashtirishni taqazo etmoqda.

O'qitish jarayonining vazifasi ta'lim, tarbiya va rivojlanish birligini ta'minlashni nazarda tutadi. Biroq professional ta'lim yo'nalishlari bo'yicha pedagog kadrlar tayyorlashda ta'lim oluvchilarning qobiliyati, ong va ko'nikmalarini o'stirish, ilmiy-amaliy bilimlarini chuqurlashtirish muammosi bundan ham muhimroq.

Professional ta'lim jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalar va faol usullardan foydalanish, innovatsion yondashuvlarni qo'llash, yangi ishlab chiqarilayotgan texnik vositalarni tadbiq qilish, ko'proq ta'lim oluvchilarni mustaqil ishlashga undash, ilg'or tajribalardan saboq berishning turli yo'llaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Keyingi yillarda iqtisodiyotning rivojlanishida bozor mexanizmlarining shakllanishi va nisbatan barqarorlashuvi ta'limning barcha darajalarida, shu jumladan professional ta'limda ham yuqori malakali kadrlarni tayyorlashning ahamiyati va zarurligini ko'rsatmoqda. Bu esa bozor talablari asosida professional ta'lim tizimini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitni ta'minlaydi.

Kasbiy tayyorgarlik darajasiga yuqori talablar qo'yilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda mutaxasislarning asosiy vazifasi mehnat bozorida o'z yo'lini oson topish imkonini beruvchi kasbiy kompetentlikka ega bo'lish hisoblanadi. Mazkur ta'lim sohasining bunday xususiyati professional ta'limda kompetentlik yondashuvini qo'llashning faqat maqsadga muvofiqligiga emas, zarurligiga ham bog'liqdir.

Oldingi davrlarda kasbiy ta'limda uzoq vaqt "bilish" nuqtai nazaridan yondashilgan bo'lib, uning asosiy vazifasi ta'lim oluvchilarda bilimlarni tizimli shakllantirish hisoblanar, ko'nikma va malakalarga o'rgatish jarayonining ikkinchi darajali komponentlari sifatida qaralar edi. Yangi professional ta'limda zamonaviy

pedagogik qarashlarning rivojlanishi munosabati bilan bu vazifalar o‘zgarmoqda. Albatta, bunda fanni bilish ta’lim oluvchining ta’lim tuzilmasidan chiqib ketmasligi, biroq yo‘naltiruvchi rol o‘ynashi lozim. Shu bois o‘tkazilgan tahlillarimiz doirasida N.A.Muslimov[1], B.A.Nazarova[2] kabi bir qator olimlarning tadqiqot ishlaridagi kompetensiyaviy yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi, bunda birinchi o‘ringa bilim berilayotgan ta’lim oluvchining axborotga egaligi emas, balki ma’lum vaziyatlarda yuzaga keladigan muammolarni hal etish qobiliyati muhim o‘rin tutadi.

Ta’lim jarayoniga kompetentlik nuqtai nazaridan yondashuv ta’lim mazmunining yangilanayotganligida aks etmoqda. Bu, o‘z navbatida, o‘zgarib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy reallikka ta’lim tizimining javobidir. Shu o‘rinda, “kompetentlik” rivojlanib boruvchi ilmiy-nazariy va shaxsiy tajribalarning murakkab sintezi sifatida ko‘zga tashlanadi.

O‘tkazilgan tahlillar va xulosalar natijasida professional ta’limda mutaxassisning kasbiy kompetentligiga quyidagicha ta’rif berildi: bo‘lajak mutaxassisning kasbiy kompetentligi o‘z mutaxassisligi bo‘yicha egallashi kerak bo‘lgan kompetensiyalari, muhim shaxsiy sifatlari va idividual psixologik xususiyatlari majmui bo‘lib, muntazam ravishda bilim olishga, o‘z-o‘zini takomillashtirishga, kasbiy bilimlarni bevosita amaliyotda qo‘llay olishga, yangi innovatsion texnologiyalardan boxabar bo‘lish bilan biriga ularni amaliyotga tadbiq eta olish, ishga ijodiy va mas’uliyatli yondashish, o‘z faoliyatiga aloqador barcha muammolarni tizimli ravishda tushunish, vazifa qo‘ya bilish va aniq muammolarga yechim topa olishi demakdir.

Professional ta’limda mutaxassislarda kompetensiyalarni rivojlantirish ta’limning muhim vazifasi sirasiga kiritilgan bo‘lib, bunda ularning kompetensiya darajalarini to‘g‘ri baholash ham muhim axamiyatga ega. Ta’lim oluvchilarning kompetentlik darajalarini baholash metodlari hamma vaqt bahs munozarali mavzu bo‘lib kelganligi bois bu jarayon innovatsion yondashuvlarni talab etadi. Chunki bu masala turli adabiyotlarda turlicha yoritilgan. Biroq mavjud qarashlarni umumlashtirib aytish mumkinki, ta’lim oluvchilarning kasbiy kompetentlik darajalari ta’lim sifatini belgilabgina qolmay balki bitiruvchilarning mehnat bozorida o‘z o‘rnini topishiga imkon yaratadi. Kasbiy kompetentlik mezonlari o‘qitiladigan har bir fanning maqsad va vazifalaridan, egallanishi lozim bo‘lgan maxsus kompetensiyalar mazmunidan kelib chiqib aniqlanadi.

Ta’lim oluvchilarning kompetensiyalarini baholashda o‘zlashtirish natijalarini hisobga olish muhim sanaladi, bunda quyidagilarga e’tiborni qaratilishi lozim:

1) o‘quv dasturi asosida mavzu va bo‘limni o‘rganishda bilim, ko‘nikma va malakalarini har tomonlama nazorat qilish;

2) har bir yakunlangan mavzu bo‘yicha ta’lim oluvchilarning faoliyati to‘g‘risida xulosa chiqarish;

3) mavjud bilimlarni aniq, batafsil baholash uchun ularning bir necha o‘quv

yili davomida o‘zlashtirish haqidagi ma’lumotlar tahlil etiladi.

Professional ta’limda mutaxassislarning kompetentlik darajalarini baholash metodlaridan eng samaralisi muammoli va ijodiy topshiriqlar metodidir. Zero, kompetentlik nazariy va amaliy bilimlarni bevosita amaliy faoliyatda qo‘llash natijasida namoyon bo‘lishi bilan birga mustaqil va ijodiy faoliyat natijasidir[3].

Bu metodlar eng samarali bo‘lib, asosan ta’dim oluvchining mustaqil va ijodiy ishlash qobiliyatini rivojlantirishga va baholashga yo‘naltirilgan.

Mustaqil fikr yuritish har bir shaxs hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun, auditoriyada dars berishning barcha shakllari: nazariy, amaliy, laboratoriya darslari, amaliyotlar, darsdan tashqari ishlar, ilmiy tadqiqot ishlarida mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalari tarkib topadi va u o‘qituvchi yoki ilmiy rahbar tomonidan rivojlantirib borilishi muhim ahamiyatga egadir.

Mustaqil faoliyat yuritishda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish jarayoni har doim tushunilgan, anglab yetilgan xususiyatda bo‘ladi. Mustaqil ishlash mahoratini egallash uchun ta’lim oluvchi faqat o‘z faoliyati maqsadini tushunib yetishigina emas, balki ta’lim olish metod va usullarini o‘zlashtirishi hamda bilimlarni amaliy qo‘llash ko‘nikmalarini egallashlari kerak bo‘ladi. Mahoratlar shakllanishida ma’lum sharoitlarda qanday qilib harakat qilish kerakligi haqidagi bilimlarni egallashi alohida ahamiyatga ega bo‘ladi. Bunday bilimlar amaliy hamda aqliy ishlarni bajarishning samarali usul va uslublarini egallashi uchun zarur bo‘ladi.

Ijodiy fikrlash – imkoniyatlar turli-tumanligiga tayanuvchi, muammo va masalalar umuman yangi yechimiga olib keluvchi idrok etish strategiyasini taqdim etadi. Uning psixologik mexanizmini divergent fikrlash bilan bog‘laydilar. Sub’ektiv yangi mahorat yaratish, shuningdek, uni yaratish bo‘yicha idrok etish faoliyatining o‘zida yangilik yaratish bilan ifodalanadi. O‘z belgisi bilan reproduktiv fikrlashdan farqlanadi.

Ta’dim oluvchilarning kompetensiya darajalarini baholashda mustaqil va ijodiy topshiriqlarini ishlab chiqishda quyidagi qoidalarga rioya etilishi tavsiya etiladi: topshiriqlar haqiqiy vaziyatlar bilan bog‘liq muammolarga qaratilishi kerak; o‘quv topshirig‘idagi muammoni hal etishda talabalar aqliy faoliyatini turli usullar yordamida rivojlantirishni ko‘zda tutadi; topshiriqlar mazmunida aks ettirilgan hodisalar va jarayonlar o‘rtasidagi muhim bog‘liqlik ko‘rsatilishi kerak; topshiriqlar yechimini aniqlash va ta’lim oluvchi ongida hodisalar yoki jarayonlar o‘rtasida bog‘liqlikni mustahkamlash imkoniyatlarini nazarda tutilishi lozim; topshiriqlarni bajarish jarayonida oddiy tushunchalardan, u hali o‘zlashtirilmagan yanada murakkabroq tushunchani keltirib chiqarish imkonini berishi lozim; topshiriqni bajarish jarayonida oddiy tushunchalar ta’lim oluvchiga ma’lum bo‘lmagan tushunchalar bilan o‘zaro tahlil qilinadi; topshiriqni bajarishda ta’lim oluvchi tushunchalarning shakli va mazmunini o‘zgartirmasdan hamda o‘zgartirib, ularni qayta ishlab chiqadi; ijodiy fikrlash asosida yangi bilimlar shakllanadi.

Kasbiy kompetentlik darajasi bo'lajak mutaxassisning qay darajada kasbiy faoliyatga tayyor ekanligini aniqlash mezonidir. Kasbiy kompetentlik darajasini baholashda reyting tizimidan foydalanish qo'l keladi.

Reyting (inglizcha baholash, tartibga keltirish, klassifikatsiyalash) muayyan hodisani oldindan belgilangan shkala bo'yicha baholash. Reyting tizimi bilim sifatini nazorat qilish turi, metodi va shakli sifatida e'tirof etiladi.

Ko'pgina xorijiy davlatlarda ta'lim oluvchilarning kompetensiya darajalarini va ta'lim sifatini baholashda reyting tizimi joriy etilgan. Reyting tizimini kiritishning maqsadi va vazifalari quyidagi natijalarga erishish uchun shart-sharoit yaratishdan iborat:

– ta'lim oluvchilar tomonidan Davlat ta'lim standartlari talablarining o'zlashtirilishi;

– bilimlarni baholashning xolisligi va uzluksizligini ta'minlash;

– ta'lim oluvchilarda bilish faoliyatining faollashuvi, ularda o'qishda yutuqlarga erishishga intilishni shakllantirishi, ta'limga musobaqa hissini kiritish, mustaqil ishga muntazam jalb qilish;

– o'qitish natijalarining taqqoslanishini ta'minlash.

Xulosa qilib aytganda professional ta'limda kompetensiyalarni baholashning metod va vositalarini to'g'ri tashlash muhim ahamiyatga ega bo'lib, bunda baholashning reyting tizimi quyidagi afzalliklarga ega: o'qishdagi yutuqlari bo'yicha yaxshiroq tabaqalash maqsadida reytingning ko'p balli mezonga ega ekanligi; baholashning bunday ko'p balli mezoga ega bo'lishi ta'lim oluvchining har tlmonlama baxolash imkonini berishi (bilim, ko'nikma va malakani baholash); ta'lim oluvchilar faolligini oshirish, ularning mustaqil faoliyatini to'g'ri boshqarilishi; baholash jarayonida amaliy mashg'ulot mazmunidan va murakkablik darajasidan kelib chiqib ballaring mashg'ulot soatlariga qarab taqsimlanishi; har bir qo'yilgan ballar orqali o'z-o'zini baholay olish imkoniyatlarini kengayishi; bosqich chegarasida o'qitish natijalarining taqqoslanish imkonini ta'minlashi va boshqalar.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Муслимов Н.А. Бўлажак касб таълими ўқитувчисини касбий шакллантириш. -Т.: Фан нашриёти, 2004. -130 б.

2. Назарова Б.А. Педагогика коллежлари бўлғуси ўқитувчиларининг касбий лаёқатини тарбиялаш: Пед. фан. номз. ... дис. – Т.: ТДПУ, 2009. – 144 б.

3. Каримова Н.Н. Касб таълими ўқитувчиларини амалий компетентлигини шакллантириш технологияси. Услубий қўлланма. – Т.: Иқтисодиёт нашриёти, 2012.- 59 б.

4. Зимняя И.А. Ключевые компетентности – новая парадигма результатов образование сегодня. – 2003.- №5

# KIMYO FANI UZLUKSIZLIGINI TA'MINLASHDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA FANGA OID KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

**N.O.TEMIROV,**
*TDPU o'qituvchisi*

*Maqolada uzluksiz ta'lim tizimida kimyo fanini mavzularini tushuntirishda, tabiiy fanlar bilan integrativ yondoshuvdan foydalanish, hamda fanga oid kompetensiyasini takomillashtirishda, mavzuni to'liq yoritib berish uchun qanday ma'lumotlarga e'tibor berish kerakligi va integratsiyadan foydalanib o'quvchilar va bo'lajak kimyo fani o'qituvchilarni kimyoviy bilimlarini oshirishga xizmat qilishi takidlab o'tilgan.*

***Tayanch tushunchalar:*** *fanga oid kompetensiya, bo'lajak kimyo o'qituvchilari, fanlararo integrativ yondoshuv, diffuziya, o'quvchilar, Xalqaro baholash(PISA) dasturlari. kimyo, biologiya.*

*В статье даны рекомендatsiи и предложения по использованию интегрatsiи естественных наук в повышении предметной компетентности будущих учителей химии в системе напрерывного образования, а также отмечено о необходимости обратить внимание, какие материалы нужно использовать при разъяснении темы, и способствовании интегрatsiи в повышении химических знаний учеников и будущих преподавателей химии.*

***Ключевые слова:*** *предметная компетенция, будущие преподаватели химии, межпредметная интегрatsiя, диффузия, ученики, международная оценочная программа PISA, химия, биология.*

*The article provides recommendations and suggestions on the use of integration of natural sciences in improving the subject competence of future chemistry teachers in the system of continuous education, and also notes the need to pay attention to what materials should be used in explaining the topic, and to promote integration in improving the chemical knowledge of students and future chemistry teachers.*

***Key words:*** *subject competence, future chemistry teachers, interdisciplinary integration, diffusion, students, international assessment program PISA, chemistry, biology.*

Uzluksiz ta'lim tarkibiy qismi bo'lgan ***umumiy o'rta ta'lim tizimida*** kimyo fanini mavzularini tushuntirishda tabiiy va aniq fanlar bilan integratsiyasidan foydalanish o'quvchilarni kimyoviy bilimlarini oshirishga xizmat qiladi. Shunday ekan ***oliy ta'lim tizimida*** bo'lajak kimyo o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida ta'limning uzluksizligini ta'minlash maqsadida, ularga fanlararo integratsiya orqali bosqichma-bosqich tushuntirish kerak bo'ladi. Masalan: 7-sinf kimyo kursida o'quvchilariga diffuziya hodisasini ta'rifi berilgan (Bir modda molekulalari boshqa modda molekulalari orasida tarqalishi mumkin va bu hodisa ***diffuziya*** deb ataladi.) va molekulalar doimo harakatda

bo'lishini Broun mikroskopda suyuqlikdagi mayda qattiq zarrachalarning harakarini kuzatganlini va ular uzluksiz harakat qilishini aniqlagani haqida ma'limot berilgan.

Umumta'limning 7-sinf kimyo kursida "Suv eng yaxshi erituvchi. Eruvchanlik", "Eritmalar" mavzusida dengiz va okeanlarda tuzlar erishi, eruvchanlik, to'yingan va to'yinmagan eritmalar bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan[4, 15-18]. Bu jarayon diffuziya hodisasini ekanligi yuzasidan, ma'lumotlar keltirilmagan.

8-sinf kimyo kursida "Elektrolitlar va noelektrolitlar", "Elektrolitik dissotsiatsiya nazariyasi","Kislota, ishqorlar va tuzlarning dissotsiatsiya" mavzularida diffuziya hodisasi yuz beradi, bu jarayonni fanlararo integratsiyasi (biologiya, fizika fanlari bilan) yoritilmagan[5, 81-83].

9-sinfning kimyo darslarida mavzularni tushuntirish jarayonida diffuziya hodisasiga asoslangan jarayonlar berilgan, lekin diffuziya hodisasi asosida ma'lumotlar tushuntirilmagan[6, 10-180].

Umumta'lim maktablarida kimyo kursida o'quvchilariga diffuziya hodisasini tushuntirishda biologik va fizik jarayonlardan foydalanish o'quvchilarda tayanch kompetensiyasini takomillashtiradi. Diffuziya hodisasiga doir uzluksizlikni ta'minlash maqsadida bo'lajak kimyo o'qituvchilar uchun dars jarayonida tushuntirishlari lozim bo'lgan tushunchalarni keltirib o'tamiz.

Diffuziya (lotincha diffuziya-tarqalish, sochilish) hodisasi kimyo o'quv fanini o'rganish uchun muhum hisoblanadi va bu hodisani, tabiiy va aniq fanlar bilan integrativ yondoshuv asosida tushuntirish o'quvchi va bo'lajak kimyo o'qituvchilariga kimyoviy bilimlarni chuqur o'rganishga xizmat qiladi[2]. Masalan: Biologiya fanini mavzularini o'rganishda, insonlar, o'simlik va hayvonlar dunyosida diffuziyani ahamiyat juda katta. O'simliklar hayotidagi ildizning tuproqdan suv va unda erigan mineral moddalarning yutilishini diffuziya hodisasiga misol qilishimiz mumkin.

Diffuziyali jarayonlarni tabiiy suv havzasi va akvariumlarni kislorod bilan ta'minlashida ham kuzatish mumkin. Dengiz suvo'tlaridan ajraladigan kislorodning suv bo'ylab tarqalishi suv havzasining chuqur joylarida ham aerob organizimlarning tarqalishiga imkon yaratadi. Suv sathining muzlab qolishi unga kislorod o'tishini to'xtatib qo'yadi, natijada suv hayvonlarini nobud bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun og'zi tor shisha idishlardan akvarium sifatida foydalanib bo'lmaydi ya'ni diffuziya hodisasini yuz bermaydi. Shuningdek, odam va hayvonlarning o'pka va to'qimalardagi gazlar almashinuvi jarayoni ham diffuziyaga asoslangan. Xususan, o'pkani o'rab turgan kapillyar qon tomirlarda kislorod miqdori o'pkada esa karbonat angidrid miqdori ko'p bo'ladi gazlar bosimi baland joydan bosimi past bo'lgan joyga

o‘tadi, bu jarayon diffuziyaga yaqqol misol bo‘la oladi[3].

Diffuziya hodisasini fizika faninidan o‘rin olgan “Molekulyar-kinetika nazariya”, “Diffuziya”, “Bor harakati” va “Aerodinamika” mavzularini o‘rganishda muhim tushunchalardan sanaladi.

Diffuziya hodisasi gazlarda tezroq, suyuqlikda sekinroq, qattiq jismlarda juda sekin boradi. Diffuziyaning borish tezligi temperturaga ham bog‘liq. Temperatura ortishi bilan diffuziya tezlashadi, temperatura pasayishi bilan diffuziya sekinlashadi.

Diffuziya hodisasi tabiatda muhim rol o‘ynaydi. Masalan: diffuziya hodisasi tufayli havoga sanoat korxonalaridan chiqqan zaharli gazlar tarqalib ketadi.

Nafas chiqarganda chiqqan karbonat angidirid gazi ham burun atrofiga to‘planib qolmaydi. Sabzavotlarni tuzlash ham diffuziya hodisasiga asoslangan.

Diffuziya hodisasini fanlararo integrativ yondoshuv asosida tushuntirib bo‘lgandan so‘ng, bo‘lajak kimyo o‘qituvchilariga topshiriq beriladi, ya’ni kelajakda pedagogik faoliyatida o‘quchilarga tushuntirishda va ularga amaliy mashg‘ulotlarda bajarishlari lozim bo‘lgan kompetensiyalarni shakllantirishi uchun. Masalan: Cuyuqlikda diffuziya hodisasini o‘rganish (Uyga vazifa sifatida bajariladi).

***Kerakli asboblar:*** ikkita stakan, $KMnO_4$ kristallari.

Ishni bajarish tartibi.

1.Birinchi stakanga sovuq suv quyib sovutkichga joylashtiring. Ikkinchisiga ham suv quyib, issiqroq joydagi shkafga qo‘ying.

2. Stakanlardagi suvni chayqatib yubormasdan ularga $KMnO_4$ kristallarini soling.

3. Bir kunda ikki mahal stakanlardagi suvning qizarishini kuzating va yuqori tomonga necha millimetr ko‘tarilganini aniqlang.

4. Kuzatishlar natijasiga ko‘ra diffuziyaning borish tezligini hisoblang. bunda, *h*-diffuziya natijasida qizil ranga bo‘yalib qolgan suyuqlik balandligi, $D \sim \frac{h}{t}$ . *t*- vaqt.

5. Kuzatishlar to‘g‘risida xulosalar yozing [2, 8-28].

Yuqoridagi kabi tushunchalarni uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida fanlararo integrativ yondoshuv asosida kimyoni o‘qitish jarayonida qo‘llanilishi natijasida bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarida fanga oid kompetensiyalar shakillanadi. Shakllangan kompetensiya negizida fanlararo integrativ yondoshuv asosida bo‘lajak kimyo o‘qituvchilariga quyidagilar rivojlanadi va pedagoglik faoliti davomida shakllangan kompetensiyani qo‘llay oladi:

– fanlararo integrativ yondoshuv o‘quvchilarda mavzuni faqat yodlashdan

bosqichma-  bosqich voz kechishiga yordam beradi;

– fanlararo integrativ yondoshuv asosida olingan bilimlarni kundalik turmush bilan bog‘lash imkoni yaratiladi;

– xalqaro baholash (PISA) dasturlari asosida savol va topshiriqlarni tuzish, baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi;

– fanlararo integrativ yondoshuv asosida o‘quvchilar nafaqat kimyo fani balki boshqa fanlarga bo‘lgan qiziqish ortishiga va bilimlarni shakllanishiga erishadi;

Bo‘lajak kimyo o‘qituvchilari olingan bilimlar asosida umumta’lim maktablarida o‘zinig pedagogik faoliyati davomida qo‘llashi natijasida o‘quvchilarida quyidagilar shakllanadi:

– o‘quvchilar mavzuni yodlashdan bosqichma-bosqich voz kechish va shu asosida olingan bilimlarni kundalik turmush bilan bog‘lash:

– o‘quvchilarda fanlararo integrativ yondoshuv asosida o‘quvchilar nafaqat kimyo fani balki boshqa fanlarga bo‘lgan qiziqish ortadi:

– o‘quvchilarda xalqaro baholash (PISA) dasturlari asosida savol va topshiriqlarni bajarishga imkoniyat yaratadi;

– o‘quvchilarda o‘grangan bilimlarni boshqa fanlarda qo‘llash ko‘nikmasi shakllanadi;

– o‘quvchilar kimyoviy tushunchalarni hayotida yuz berayotgan voqealar bilan bog‘lashni o‘rganadi;

– o‘quvchilarda bilimlar mustahkamlash boshlanadi;

– olingan bilimlarini kundalik hayotga qo‘llashga undaydi;

– o‘zini-o‘zi nazorat qilishni o‘rganadi;

– fanlararo integrativ yondoshuvdan foydalanish o‘quvchilarda kimyoviy bilim, ko‘nikma va malakalarni oshadi.

Xulosa o‘rnida quyidagilarni ta’kidlash mumkinki, uzluksiz ta’lim tizimida umumiy kimyo fanida fanga oid kompetensiyalar takomillashtirish orqali bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarini kimyoviy bilimlarni va dunyoqarashini shakllantiradi. Bu esa  ta’lim tizimida bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarini kelajakda yurtimiz uchun munosib pedagogik kadr bo‘lishiga yordam beradi. Bunday fanlararo integrativ yondoshuvdan foydalanishning o‘ziga xos istiqbolli va samarali xususiyat kasb etadi va ular quyidagilardan iborat:

– o‘quvchilar dars davomida befarq bo‘lmasllika, mustaqil fikrlash va izlanishga majbur etilishida;

– o‘quvchilarning o‘quv jarayonida fanga bo‘lgan qiziqishlarini doimiyligini

ta'minlanishida;

– o'quvchilarlarning fanga bo'lgan qiziqishlarini mustaqil ravishda har bir muammoga ijodiy yondoshgan holda kuchaytirilishida va ta'lim beruvchi hamda ta'lim oluvchilarning hamkorlikda faoliyatini muntazam ravishda tashkil etishlarida o'z aksini topadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 12 августдаги "Кимё ва биология йўналишларида узлуксиз таълим сифатини ва илм-фан натижа-дор-лигини ошириш чора-тадбирлари тў?рисида"ги П?-4805-сон ?арори.

2. Turdiev N.Sh. Fizika: umumiy o'rta ta'lim maktablari 6-sinfi uchun darslik. "Niso Poligra" nashiryoti. Toshkent. 2017-y. 176 b.

3. Mavlonov O., Tilovov T., Aminov B. Biologiya (Odam va uning salomatligi): Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. -T., 2019. -192 b.

4. Asqarov I.R., To'xtayev N.X., G'opirov K.G'. Kimyo. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinf uchun darslik. -T., 2017. -160 b.

5. Asqarov I.R., To'xtayev N.X., G'opirov K.G'. Kimyo. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinf uchun darslik. -T., 2019. -208 b.

6. Asqarov I.R., To'xtayev N.X., G'opirov K.G'. Kimyo. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinf uchun darslik. -T., 2019. -208 b.

# UZLUKSIZ TA'LIMDA O'QUVCHI-TALABALARNI INTELLEKTUAL KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH ZARURIYATI

***D.ABIDOVA,***
*Pedagogik innovatsiyalar instituti mustaqil tadqiqotchisi*

*Ushbu maqolada uzluksiz ta'limda, xayot davomida ta'lim olishda o'quvchi-talabalarning intellektual kompetentligini shakllantirish zarauriyati, intellektual kompetentlikni mazmun mohiyati, hayotining turli davrlarida raqobatbardosh mutaxassis sifatida tarkib topish ko'nikmalarini ongli ravishda egallash zaruriyati yoritib berilgan.*
***Tayanch so'zlar:*** *intellekt, intelektual kompetensiya, kasbiy kompetensiya, innovatsiya, kreativlik, motivatsiya, metod.*

*В данной статье подчеркивается необходимость формирования интеллектуальной компетентности студентов в непрерывном образовании, непрерывном обучении, сущность содержания интеллектуальной компетентности, необходимость осознанного приобретения умений находить содержание как конкурентоспособного специалиста на разных этапах жизни.*
***Ключевые слова:*** *интеллект, интеллектуальная компетентность, профессиональная компетентность, новаторство, творчество, мотиваtsія, метод.*

*This article emphasizes the need for the formation of intellectual competence of students in lifelong education, lifelong learning, the essence of the content of intellectual competence, the need for the conscious acquisition of skills to find content as a competitive specialist at different stages of life.*
***Key words:*** *intelligence, intellectual competence, professional competence, innovation, creativity, motivation, method.*

Mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimi ijtimoiy sohalar hamda iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiyalash sharoitida muhim ijtimoiy institutlardan biri sifatida ta'limiy, tarbiyaviy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy funksiyalarni bajarish bilan birga mehnat bozoriga raqobatbardosh kadrlarni yetkazib berishni ta'minlaydi. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli bajarilishini ta'minlash uchun o'quvchi-talabalarda ijodiy va mustaqil fikrlash, intellektual va kasbiy kompetensiyalar, kasbiy va yuksak ma'naviyatni shakllantiruvchi pedagogik shart-sharoitlar yaratilishi ko'zda tutilgan. Ammo, har bir ijtimoiy taraqqiyot bosqichlari yangi talab va ehtiyojlarni vujudga kelishini taqozo etganligi bois, uzluksiz ta'lim metodologiyalari ham xamohang tarzda takomillashib borilishini talab qiladi. Shu sababdan, kecha maqbul bo'lgan, bugunda turg'un holga kelgan yondashuvlarni tadbiq etish ta'limning uzluksiz mazmuniga mos keladi.

Bugungi kun taraqqiyoti, hayot tarzining keskin va jadal sur'atlarda o'zgarishi,

hamda axborot kommunikatsion texnologiyalari sohalarining rivojlanishini hisobga olgan holda dolzarblik darajasini belgilaydigan bo'lsak, ta'lim tizimini intellektuallashtirish va uning afzalliklaridan kelib chiqqan holda, hamda jaxon tajribasiga suyangan holda aytish mumkinki taraqqiyot rivoji ta'lim tizimida ham muhim o'zgarishlar, islohotlarni amalga oshirmoq zarurati tug'ilganligini taqozo etmoqda. Bu bilan birgina ta'lim sohasini emas, balki unga bog'liq bo'lgan barcha sohalarni modernizatsiyalash va jahon standarti talablariga javob beradigan raqobatdosh mutaxassis kadrlarni tayorlash tizimini yaratish uchun ham muhim.

Butun umr davomida ta'lim olishning zamonaviy tendensiyalari axborotni izlab topish, qayta ishlash va taqdim qilish texnologiyasini, shaxs tomonidan o'zini o'zi o'rganish usullarini egallash, o'zining kuchli tomonlarini aniqlash va ularni muvaffaqiyatli yuzaga chiqarish, shuningdek ilgari olgan bilimlarini yangi sharoitlarda qo'llash, o'zini o'zi tartibga solish, muvaffaqiyatli faoliyat strategiyasini qurish, yuqoriroq bosqichga o'tish uchun intellektual kompetensiyasini rivojlantirish va hayotining turli davrlarida raqobatbardosh mutaxassis sifatida tarkib topish ko'nikmalarini ongli ravishda egallash zaruriyatiga olib keladi. Bunday vaziyatda bo'lajak mutaxassislar intellektual kompetensiyalarini rivojlantirish muammosi dolzarb ahamiyatga ega.

Ta'lim olishning zamonaviy sharoitlarida kompetentli yondashuv mamlakatimizda ta'limni rivojlantirishning yetakchi strategiyalaridan biri sifatida qabul qilindi va me'yoriy jihatdan mustahkamlanmoqda(kompetensiyaviy talablarga asoslangan malaka talablarini ishlab chiqilishi). Mazkur yondashuvning ma'no hosil qiluvchi komponenti talabaning kasbiy kompetenligi poydevorini shartlab beruvchi asosiy (tayanch) kompetensiyalar, metafazilatlar to'plami, shaxs fazilatlari hisoblanadi.

Zamonaviy mutaxassisga qo'yiladigan talablar faoliyatning yangi sohalarini mustaqil egallash imkonini beruvchi kasbiy va intellektual mobillikni, mustaqil ta'lim ko'nikmalari, tadqiqot faoliyati tajribasini orttirishdan iborat [1].

Intellekt (lot. Intellects - bilish, tushunish, idrok qilish) - insonning aqliy qobiliyati; hayotni, atrof muhitni ongda aynan aks ettirish va o'zgartirish, fikrlash, o'qish-o'rganish, dunyoni bilish va ijtimoiy tajribani qabul qilish qobiliyati; turli masalalarni hal qilish, bir qarorga kelish, oqilona ish tutish, voqea hodisalarni oldindan ko'ra bilish layoqati.

Intellekt tarkibiga idrok qilish, xotirlash, fikr yuritish, so'zlash va h.k. psixik jarayonlar kiradi. Intellektning rivojlanishi tugma iste'dod, miya imkoniyatlari, jo'shqin faoliyat, hayotiy tajriba kabi ijtimoiy omillarga bog'liq.

Bugungi kunda fikrlovchi inson kuzatish, tahlil qilish, taklif kiritish, qabul qilgan qarorlariga javobgar bo'lishi hamda nizolar va ziddiyatlarni bartaraf qilishi shart [2].

D.Tiffin fikriga ko'ra, intellektual va axloqiy jihatdan rivojlangan inson «... u yoki bu siyosiy, mafkuraviy va har qanday boshqa mashinaning fikrsiz vintiga aylanmaydi» [3].

Zamonaviy jamiyatga mustaqil, tanqidiy fikrlovchi, ko'rish, o'ylash va yuzaga kelayotgan muammolarni ijodiy hal qilishni biladigan inson kerak». Yuqori darajada rivojlangan intellektli kreativ inson tashqaridan manipulyatsiya qilinishga moyiligi kam bo'ladi, ko'p hollarda u itoatkor bajaruvchi roliga o'tmaydi.

Intellektning asosiy vazifasi bu – insonning shaxsiy erkinligi va o'z individual taqdirini o'zi ta'minlay olishining kafolatidir [4].

Axborotlashgan jamiyat sharoitida intellektual ishlab chiqarishga o'tishda mehnat xarakteri va, shunga mos ravishda, mutaxassislarga qo'yiladigan talablar o'zgaradi [1].

Butun jahon kongressida ta'riflab berilgan mutaxassisga qo'yiladigan talablar tizimida ta'kidlanishicha, zamonaviy mutaxassis quyidagilarga ega bo'lishi shart:

ta'lim olishni davom ettirish va boshqa tilda gapiruvchilar muhitida kasbiy faoliyatini amalga oshirish;

fikrlash madaniyatiga ega bo'lish, tafakkurning umumiy qonuniyatlarini bilish, yozma va og'zaki nutqda o'zining natijalarini to'g'ri (mantiqiy) ifodalashni bilish;

fanning rivojlanishi va ijtimoiy amaliyotning o'zgarishi sharoitida yig'ilgan tajribani qayta baholash, o'z imkoniyatlarini tahlil qilishga qodir bo'lish; o'zining kuchli va bo'sh tomonlarini bilgan holda, o'zini o'zi ro'yobga chiqarish qobiliyatiga ega bo'lish;

bo'lajak ixtisosligining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini hamda faoliyatining aniq sohasini belgilab beruvchi fanlarning asosiy muammolarini tushunish, bilimlarning yaxlit tizimida ularning o'zaro bog'liqligini ko'rish;

tizimli yondashuv asosida professional sohada loyihalash faoliyatiga qodir bo'lish,turli hodisalarni tavsiflash va prognozlash uchun modellarni qurish va ulardan foydalanishni bilish, ularning sifatiy va miqdoriy tahlilini amalga oshirish;

muammoni ko'rishga qodir bo'lish, kasbiy funksiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq maqsad va vazifalarni ta'riflab berish, ularni hal qilish uchun o'rgangan fanlar usullaridan foydalanishni bilish;

hamkasblar bilan birga ishlash va jamoada ishlashga tayyor bo'lish, boshqarish usullarini bilish, bajaruvchilar ishini tashkil qilishni bilish, turli fikr-

mulohazalar mavjudligi sharoitida boshqaruv bilan bog'lik qarorlarni topish va qabul qilishni bilish;

o'z kasbiy faoliyatining ko'rinishi va xarakterining o'zgarishiga, fanlararo loyihalar ustida ishlashga metodik va psixologik jihatdan tayyor bo'lish;

kasbiy masalalarni hal qilishga ijodiy yondashish rivojlangan qobiliyatiga ega bo'lish, har qanday vaziyatlarda yo'nalishni topa olishni bilish; muammolar, vaziyatlar, vazifalarni tahlil qilish, shuningdek harakat rejalarini ishlab chiqishni bilish;

rejani amalga oshirishga va uni bajarishga javobgar bo'lishga tayyor bo'lish [5].

Mamlakatimizda ta'limga yangicha yondashuvlarni qo'llanilishi, professional ta'limni joriy etilishi, texnologiyalarning jadal rivojlanishi va yangilanishi kasbiy faoliyatnining sifati va shart-sharoitlarini uzluksiz o'zgartirib, mutaxassisni mehnat bilan bog'liq hayoti davomida bir necha bor kasbi doirasida faoliyatning yangi usullari va turlarini egallash, malkasi va ta'lim darajasini oshirish, ish joyi va xatto kasbini almashtirishga majbur qiladi. Zamonaviy ta'lim tizimi asosiy ziddiyaning – axborot ortishining tezkor sur'ati va alohida olingan insonning ularni o'zlashtirish imkoniyatlari o'rtasidagi ziddiyatning keskinlashuvi davom etmoqda. Mazkur holat pedagogik nazariyani intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish individual psixologik mexanizmlarini aktuallashtirishning samarali yo'llarini izlashga ko'proq e'tibor berishga majbur qiladi.

Shunday qilib, intellektual kompetentlikni kasbiy kompetentlikning asosiy bloki, "eng teran o'zagi" sifatida ajratish intellektual kompetentlik o'quvchi-talabalar bilish faoliyatining individual uslubining asosini tashkil qilishi bilan shartlangan. U axborot bilan ishlashning shaxsiy tizimini, faoliyatning funksional ma'noviy kontekstini o'zgartiruvchi (qayta tashkil qiluvchi) kontekstga o'tkazish natijasida yangi bilimlar tizimini o'zlashtirish va yaratish qobiliyatini; kasbiy faoliyatda mobillikka xalal beruvchi tafakkurning eskirgan stereotiplari va idrok qilish qoliplarini qayta ko'rib chiqishga tayyorlikni shartlab beradi.

Intellektual kompetenlik yangilikni idrok qilishda ochiqlik va egiluvchanlik, aynan bir hodisani anglashning sub'ektiv usullarining variativligi va xilma-xilligi, sodir bo'layotgan hodisaga xilma-xil fikriy "qarashlarning" aksariyatini anglash kabi xususiyatlarni belgilab beradi.

Professionalning tarkib topishida intellektual kompetentlik zarur hisoblanadi, uning shakllanish talabalarga ta'limning umumiy fanlar mazmunining barcha komponentlarini o'zlashtirish, turli hayotiy va kasbiy muammolarni hal qilish, tafakkurning stereotiplari va qoliplarini bartaraf qilish, sodir bo'layotgan hodisalarni egiluvchan variativ tarzda idrok qilish va baholash, refleksiya va

samarali faoliyat tajribasini mustahkamlash, raqobatli muhitda muvaffaqiyatli bo'lish uchun asosni ta'minlaydi. Umumta'limiy ko'nikmalar, axborotni izlash, saralash va qayta ishlash ko'nikmasi, axborotli o'zaro ta'sirlashuv usullari, axborotni o'zlashtirishning yangi usullaridan foydalanish, samarali kommunikatsiya va hamkorlikka intilish, mustaqil ta'lim, kasbiy mobillikka tayyorlik kabilar aynan intellektual kompetentlikda mujassamlanadi. Shunday qilib intellektual kompetenlik kasbiy kompetentlikning eng muhim elementi bo'lib, bitiruvchining eng asosiy fazilatlaridan biridir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Гончарук Н.П. Формирование научно-исследовательской компетенции будущих специалистов/ Н.П. Гончарук, Г.С.Сагдеева.// Вестник Казанского технологического университета. Казань: КГТУ,№3, 2013. -С.315-321.

2. Егорова Г.И. Технологии развития интеллектуальной культуры будущего специалиста: учебное пособие / Г.И.Егорова. - Тюмень : ТюмГНГУ, 2010.-170с.

3. Д.Тиффин. Что такое виртуальное обучение. /ДЛиффин, Л.Раджасингам. Перевод с англ. - М.: Информатика и образование, 1999. -312с.

4. Савенков, А. Проблемы развития и бытия личности. /Развитие личности №2, 2006. - 46-60с.

5. Приходько В.М. Высшее техническое образование: мировые тенденции развития, образовательные программы. Качество подготовки специалистов, инженерная педагогика/В.М.Приходько, В.Ф.Манулов, В.Н.Луканин, С.А.Смирнов, Ю.В.Шленов, И.В.Федоров, М.Н.Вражнова. -М., 1998,-334с.

6. Абдукодиров А.А., Тураев Б.З. Информатика ва ахборот технологиялари сохдсидаги булажак мутахассис кадрларнинг касбий компетентлигини шакллантириш назарияси ва методикаси. Монография. - Тошкент: "Navro'z", 2015. - 174 б.

7. Тураев Б.З. Информатика ва ахборот технологиялари сохдсининг булажак кадрлари компетентлигини шакллантириш боскичларида касбий компетентлик тушунчаларининг урни // Таълим, фан ва инноватsiя. - Тошкент, 2016. - №4. - Б. 46-50.

8. Бобиенко, О.М. Ключевые компетенции личности как образовательный результат системы профессионального образования: Дис.… канд. пед. наук. Казань. 2005. - 155 с.

# BIOLOGIYA DARSLARIDA AXBOROTLASHGAN MUHITNI TASHKIL ETISH – SAMARADORLIK OMILI

***L.M.QARAXONOVA,***
*O'zPFITI katta ilmiy xodimi, p.f.f.d. (PhD)*

*Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining biologiya o'quv predmetini o'qitishning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda hozirgi axborotlashgan muhitda, o'quvchi-yoshlarda biologiyadan tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishda o'quv-metodik majmualar bilan birga zamonaviy axborot texnologiyalari vositalari, elektron resurslardan maqsadli foydalanish ko'nikmalarini to'g'ri yo'naltirish, tarbiyalash va axborot bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish talab etiladi. Mazkur maqola bevosita tabiiy fanlar, jumladan biologiya darslariga zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etish va samaradorlikka erishish masalalariga bag'ishlangan.*

***Tayanch so'z va iboralar:*** *biologiya, tabiiy fanlar, o'qituvchining kasbiy kompetentligi, o'quvchilar, dastur, zamonaviy innovatsiyalar, interfaol vositalar, dars, darsdan tashqari mashg'ulotlar.*

*Исходя из целей и задач обучения биологии в общем среднем образовании, в современной информatsiонной среде, наряду с учебно-методическими комплексами по формированию базовых и научных компетенций по биологии у учащихся, современные средства информatsiонных технологий, целевое использование электронных ресурсов, образование и информatsiя, развивающие компетенции, с которыми нужно работать. Эта статья напрямую связана с внедрением и эффективностью современных образовательных технологий в естествознании, в том числе в биологии.*

***Ключевые слова:*** *биология, естественные науки, профессиональная компетентность учителя, студенты, программа, современные инноватsiи, интерактивные инструменты, уроки, внеклассная деятельность.*

*Based on the goals and objectives of teaching biology in general secondary education, in the modern information environment, along with educational and methodological complexes for the formation of basic and scientific competencies in biology in students, modern means of information technology, targeted use of electronic resources, education and information that develop competencies to work with. This article is directly related to the implementation and effectiveness of modern educational technologies in natural science, including biology.*

***Key words:*** *biology, natural sciences, professional competence of a teacher, students, program, modern innovations, interactive tools, lessons, extracurricular activities.*

Ta'lim jarayoniga zamonaviy yondashuvlar, tub islohotlar joriy etilayotgan hozirgi kunda har bir o'quv predmetining o'quvchi tomonidan samarali o'zlashtirilishi o'quv jarayonida foydalaniladigan zamonaviy innovatsiyalar, interfaol vositalar, o'qituvchining kasbiy kompetentligi va albatta, o'quvchilarning

intellektual salohiyat darajasiga chambarchas bog'liq masaladir.

Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-sonli Farmonida belgilangan ta'lim va fan sohasini rivojlantirish, pedagog va mutaxassislarning umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish, chet tillari, informatika hamda matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo'lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish kabi muhim vazifalar belgilab berilgan [1].

Uzluksiz ta'lim tizimining deyarli barcha o'quv muassasalarida o'qitiladigan o'quv fanlarida, jumladan biologiyani o'rganish davomida ham hozirgi kunda deyarli har bir mavzu uchun taqdimot materiallarini tayyorlash va o'quv jarayoniga joriy etish eng maqbul vositalardan sanalmoqda.

Davlat ta'lim standartining umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalari uchun umumta'lim fanlaridan o'quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqishga qo'yiladigan umumiy talablarda quyidagilar o'z aksini topgan: «Darsliklarning multimediali ilovalari – axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida o'quv faniga oid materiallarni davlat ta'lim standarti va o'quv dasturiga mos ravishda yorita oladigan, o'quv fanini samarali o'zlashtirishga, o'quvchilarning mustaqil ta'lim olishiga ko'maklashuvchi hamda video, ovoz, animatsiya, jadval, matn va lug'atlarni o'z ichiga olgan, bilimlarni nazoratdan o'tkazish va mustahkamlashga yo'naltirilgan, o'quv fanining asosiy mazmunini boyitadigan qo'shimcha materialga ega bo'lgan yoki shu kabi manbalarga murojaatlarni o'z ichiga olgan interaktiv elektron axborot-ta'lim resursi hisoblanadi va har bir umumta'lim o'quv predmeti mazkur talab asosidagi elektron ta'lim resursiga ega bo'lishi lozim»ligi ta'kidlanadi[2].

O'quv fanlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan namoyish vositalari ham ayni bir amaliy dasturlar asosida yaratiladi. O'qituvchidan bunday amaliy dasturiy vositalarni tayyorlash va joriy etish kompetensiyasiga ega bo'lish talab etiladi yoki bevosita dasturlovchilar mehnatiga ehtiyoj seziladi. Shunday bo'lsada, ko'p hollarda ikki fanning o'zaro integrativ yondashuvi asosida ko'plab ilmiy manbalarni o'zida aks ettirgan elektron vositalar yaratilishiga erishilmoqda.

Har qaysi o'quvchi kompyuterdan mustaqil foydalana olar ekan, uning imkoniyatlar dunyosini kashf etib boradi. Endilikda, ta'lim  jarayonida tavsiya etiladigan o'rgatuvchi dasturlar, namoyish usullari, hisoblash ishlari – bularning barchasi kompyuter, mobil vositalar asosida amalga oshiriladi. Xuddi shu o'rinda

tadqiqotning asosiy vositasi bo‘lgan elektron ta’limiy resurslar, elektron vositalar va ulardan foydalanish texnologiyasiga ham bevosita axborotlashgan muhitdagi muhim ilmiy-amaliy samara berish vositasi sifatida qaraladi.

Yuqori sifatli elektron vositalardan foydalanish va ularni ta’lim jarayoniga to‘g‘ri tatbiq etish o‘quvchilar tomonidan axborotlarni qabul qilish, ularga ishlov berish, o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma, malaka, tayanch va fanga doir xususiy kompetensiyalarni muntazam nazorat qilish, ijodkorlikni tarbiyalash, ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, ta’lim natijasini uzluksiz kuzatib borish imkoniyatini beradi. Buning barobarida, o‘quvchilar faoliyatini tashxis qilish va bashoratlash, kelgusi darslarni loyihalash yuzasidan tegishli tavsiyalarni ishlab chiqish, muayyan axborotning o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatida takrorlash tartiblarini belgilashga zarur sharoit yaratadi.

Biologiya darslari jarayonida samaradorlikka erishish ko‘p hollarda didaktikaning qonuniyatlariga to‘liq rioya etish va bevosita shakl, metod va usullarni ta’lim jarayoniga to‘g‘ri tatbiq etish orqali amalga oshiriladi. O‘quv jarayonida tabiatdagi voqea-hodisalar bilan tabiatda hayvonot dunyosining tarqalishi, yashash tarzi, ko‘payishi va rivojlanishi bilan bog‘liq ilmiy ma’lumotlar bevosita darslik, o‘quv-metodik qo‘llanmalar vositasida amalga oshiriladi.

Biologiya darslarida ta’limning elektron vositalaridan foydalanish va ularni o‘quv jarayoniga joriy etish o‘ziga xos yangi usulni vujudga keltiradi. Biologiyadan elektron resurslarning o‘quv jarayonidagi muhim hamda ahamiyatli belgilariga quyidagilarni kiritish o‘rinli hisoblanadi: namoyish etilayotgan ma’lumotning ko‘rgazmaliligi (har xil ranglardan, illyustratsiya, tovush, video, animatsiya va boshqa elementlardan foydalanish); tezkor qayta aloqa (materiallarni o‘zlashtirishda o‘rnatilgan test-tizimlari tezkor nazoratni ta’minlaydi); interafaol tartib o‘quvchiga o‘quv materiallarini tez o‘zlashtirishda o‘z-o‘zini nazorat qilishga o‘rgatadi; doimiy ravishda o‘quv qo‘llanmalarini to‘g‘rilab borish va yangi ma’lumotlar bilan boyitib borishga ko‘maklashadi (elektron o‘quv qo‘llanmadagi eski ma’lumotlar o‘rnini yangilari bilan almashtirish yoki ularni o‘zgartirish kelajakda foydalanuvchilarga tushunarli bo‘lishi uchun amalga oshiriladi).

Biologiyani o‘qitishda elektron ta’limiy resurslardan foydalanish ta’limning samaradorligini ta’minlash bilan bir qatorda tarbiyaviy vazifalarning unumli yechimi topilishini ham ta’minlaydi. Biologiyani o‘qitishda elektron ta’limiy resurslardan foydalanish quyidagi didaktik qulayliklarni ta’minlaydi:

Tadqiqot natijalari asosida biologiya ta’limida elektron ta’limiy resurslardan

foydalanishni samarali tashkil etishda biologiyaga oid elektron ta'lim resursidan foydalanishning tashkiliy shakllari va vositalari asosida didaktik model ishlab chiqildi va ta'lim jarayoniga joriy etish maqsadga muvofiq deb topildi (1-rasm).




**1-rasm. Biologiyadan elektron ta'lim resursidan foydalanishning didaktik modeli**

Tadqiqot doirasida tayyorlangan elektron ta'limiy resursda DTS, dastur va darslik asosida mavzular tanlab olindi va o'quvchilarning kompetensiyaviy yondashuvlarini amalga oshirish, ta'lim sifatini baholashning xalqaro standartlariga moslashtirish tizimiga alohida e'tibor qaratildi.

Ma'lumki, biologiyada o'rganilayotgan hayvon haqida umumiy ma'lumot beruvchi ko'rgazmali vositalar miqdor va sifat darajasiga ko'ra qanchalik talab darajasida bo'lsa, o'quvchining mavzu yuzasidan hosil qiladigan ko'nikmasi ham shunchalik yuqori bo'ladi. Hayvonning rangli suratlari, uning tashqi va ichki tuzilishi, sistematik birliklari, hayvonlarning xilma-xilligiga aks etgan materiallarni turli ko'rinishda taqdim etish imkoniyati yaratiladi.Ta'limda qo'llaniladigan texnologiya elementlarini tanlash va amalga oshirishda o'quvchilarning o'quv bilish faoliyatlarini e'tiborga olish lozim.

Yangi mavzuning nazariy qismi darsning dastlabki 7-8 daqiqasida

o‘quvchilarga yangi bilimlarni berish orqali amalga oshiriladi, darsning tashkil etish bosqichlariga ko‘ra, bahs-munozara, kichik guruhlarda ishlash va boshqa shu kabi noan’anaviy metodlarni asosida berilgan bilim mustahkamlanadi. Aynan o‘rganishning dastlabki 7-8 daqiqasi o‘quvchi uchun qabul qilish, eslab qolishda eng samarali muddat hisoblanadi, 15 daqiqadan keyin esa o‘quvchida o‘rganishni davom ettirish motivatsiyasi pasaya boshlaydi.

Ta’kidlash joizki, mazkur vaqt oralig‘ida biologiya darslarida nazariy ma’lumotlarga mujassam holatda, ko‘rgazmali vositalarning sifatli, aniq, ma’lumotlarga boy, qiziqarli namoyishlarining mavjud bo‘lishi ulardagi diqqatning qayta tiklanishiga xizmat qiladi. Ya’ni, hayvonlar haqida umumiy ma’lumot beruvchi ko‘rgazmali vositalar miqdor va sifat darajasiga ko‘ra qanchalik talab darajasida bo‘lsa, o‘quvchining qabul qilish imkoniyatlari ham shunchalik yuqori bo‘ladi. Aynan shu maqsadda, tadqiqot doirasida 7-sinf biologiya darsligidagi katta bo‘limlar orasidan: «Sodda hayvonlar», «Mollyuskalar», «Chuvalchanglar», «Suvda ham quruqda yashovchilar», «Sudralib yuruvchilar», «Sut emizuvchilar sinf»lariga oid mavzular belgilab olindi va ular maxsus harakatlar, ovoz, effektlar yordamida animatsiya, multimediali elektron resurs Macromedia Flish dasturida tayyorlandi.

Mazkur dasturning yuqoridagi dasturlardan asosiy farqi va ustunlik jihati shundaki, mazkur bo‘limlarni o‘rganish davomida multimedia tarzida tayyorlangan materialda hayvon organizmidagi morfologik va fiziologik jarayonlarning ishlash mexanizmi animatsiyalar, video, rasmlar jamlanmasi, infografika ma’lumotlarini o‘zida mujassam etgan.

Shuningdek, o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olishini ta’minlash maqsadida ta’limiy resursda 7-sinf darsligi, O‘zbekiston «Qizil kitob»ining oxirgi nashrining PDF shakli (Hayvonlar bo‘limi), 7-sinf biologiya darslari uchun «Qiziqarli hayvonot dunyosi» bo‘limi, «Hayvonlarning tovushlari» bloki o‘quvchiga tegishli mavzu yoki sinfga oid hayvonlar haqida qiziqarli axborotlarni berishga xizmat qiladi. Darsdan tashqari ishlarni tashkil etishda ham bevosita resursga murojaat qilish mumkin.

Ta’kidlab o‘tilganidek, biologiya darslari samaradorligini oshirish va o‘quvchilarning aktiv faoliyatini ta’minlash maqsadida yaratilgan ushbu dastur ba’zi bir kamchiliklardan holi emas, albatta. Dars jarayoniga zamonaviy ta’lim texnologiyasi elementlarini keng tatbiq etish zarur bo‘lgan hozirgi davrda biologiya fanining samaradorligini oshirish uchun yangi metodikaning o‘ziga xos o‘rni mavjudligini e’tirof etish zarur.

Hozirgi kunda o‘quvchilarni xalqaro baholash tizimiga samarali tayyorlash

maqsadida umumiy o‘rta ta’lim tizimida PISA, TIMSS atamalari tez-tez takrorlanmoqda. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida xalqaro baholash tizimiga bosqichma-bosqich o‘tish bo‘yicha dolzarb vazifalar amalga oshirilayotgan bir paytda o‘quvchilarni nostandart test topshiriqlari asosida baholashga o‘rgatish, ularning tabiiy-ilmiy savodxonligini oshirish borasida samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Shu maqsadda tadqiqot doirasida o‘quvchilarni nostandart test topshiriqlari asosida bilimini nazorat qilishning didaktik tizimini ishlab chiqildi.

Mazkur didaktik tizim asosida biologiyadan 7-sinflarda darsda va darsdan tashqari mashg‘ulotlar uchun «Sut emizuvchilar» sinfining 10 ta mavzusi uchun 2 ta dasturlashgan test topshiriqlarining kompyuterlashgan dasturi yaratildi. Elektron dastur yordamida standart test topshiriqlariga nisbatan nostandart test topshiriqlarining foydalanish shakllari ko‘pligi, ko‘p to‘g‘ri javoblarga egaligi, keng bilim berishi, aynan hayvon organizmini o‘rganish davomida ketma-ketligi va teng nisbatdagi javoblarning o‘zaro mutanosibligini to‘g‘ri belgilay olish kompetensiyasini rivojlanib borishi bilan farqlanishi va samarali ekanligini o‘z tasdig‘ini topdi (3-rasmga qarang).

Nostandart test topshiriqlarini kompyuterlashtirish jarayonida testlarni tahrir qilish dasturi ham yaratildi. Dars jarayonida nostandart test topshiriqlaridan foydalanadigan o‘qituvchilarga mazkur tahrirlash dasturidan unumli foydalanishlari tavsiya etiladi. Tahrirlash dasturi test materiallari matnlarini yangilashda, ularni yangi ma’lumotlar bilan boyitish yoki test savollarini o‘zgartirish zarur bo‘lganda qo‘llaniladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон.

2. (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 14-сон, 230-модда; Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 25.10.2018 й., 09/18/858/2095-сон, Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси

3. Biologiya darslarida 3-D- modellashtirish texnologiyasi va undan foydalanish imkoniyatlari // Узлуксиз таълим ж. –Т. :2020. № 4. –Б. 49-53.

# UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANLARIDA TURLI DARAJADAGI NAZORAT TOPSHIRIQLARIDAN FOYDALANISH

***M.B.NIYOZOV,***
*Guliston davlat universiteti*

*Maqolada Informatika va axborot texnologiyalari fani misolida fanlarni o'qitish jarayonida nazorat topshiriqlarining o'rni, turli darajadagi nazorat topshiriqlari yaratish va ulardan foydalanish masalalari ko'rib chiqilgan. Mashg'ulotlarning nazariy, amaliy va laboratoriya shakllaridan foydalanganda nazorat topshiriqlarining mazmuni va ularga qo'yiladigan talablar keltirilgan. Bunda bitta mavzu doirasida oddiydan murakkabga yo'naltirilgan turli darajali topshiriqlar yaratish jarayoniga e'tibor qaratilgan. Nazorat topshiriqlari Informatika va axborot texnologiyalari fani mazmuni doirasida Microsoft Word, Microsoft Excel va dasturlash asoslari kabi mavzularni qamrab olgan.*

***Tayanch so'zlar:*** *o'quv jarayoni, nazorat topshiriqlari, turli darajadagi nazorat topshiriqlari, mashqlar tizimi, ta'limning yakunlanganlik mezoni.*

*В статье рассматривается роль контрольных задач в преподавании наук на примере информатики и информационных технологий, создания и использования контрольных задач на разных уровнях. Дано содержание контрольных заданий и требования к ним при использовании теоретических, практических и лабораторных форм обучения. Он сосредоточен на процессе создания задач на разных уровнях, от простого до сложного, в рамках одной темы. Задачи управления охватывали такие темы, как Microsoft Word, Microsoft Excel и основы программирования в области компьютерных наук и информационных технологий.*

***Ключевые слова:*** *учебный процесс, контрольные задания, контрольные задания на разных уровнях, система упражнений, критерии завершения обучения*

*The article examines the role of control tasks in teaching sciences on the example of computer science and information technology, the creation and use of control tasks at different levels. The content of control tasks and the requirements for them when using theoretical, practical and laboratory forms of training are given. It focuses on the process of creating tasks at different levels, from simple to complex, within a single topic. The management tasks covered topics such as Microsoft Word, Microsoft Excel, and the basics of computer science and information technology programming.*

***Key words:*** *educational process, control tasks, control tasks at different levels, system of exercises, criteria for completing training.*

Ta'lim jarayonida bir qancha metodlar mavjud bo'lib, bu metodlar o'quvchilarning o'zlashtirish darajalarini rivojlantirishga yordam beradi. O'quv materialini o'zlashtirishning bir necha darajalari mavjud: 1. Esga olish, xotirada tiklash - o'zlashtirish darajasi. 2. Reproduktiv - o'zlashtirish darajasi. 3. Produktiv (unumli) - o'zlashtirish darajasi. 4. Ijodiy - o'zlashtirish darajasi [1], [2], [3].

Esga olish, xotiraga tiklash - o'zlashtirish darajasida har qanday o‘rganilayotgan materialni izohlash yoki asoslash uchun zarur bo‘lgan o‘quv materiali(mazmuni)ning o‘zlashtirilishidir. Bu materialdagi hodisalar yoki voqealar bir-biri bilan bog‘lanishda va rivojlanishda bo‘lib, albatta avvalgi o'rganilganlariga asoslanadi hamda uni takrorlash va esga olish yoki xotiraga tiklash lozim bo‘ladi. Buning uchun materialni bayon qilishda ko‘rgazmalilikdan foydalaniladi.

Reproduktiv - o‘zlashtirish darajasida bir turdagi masala yoki mashqlar (savollar)ni namunaga (tayyor echib ko'rsatilgan) qarab echa olishga mo‘ljallangan o‘quv materialiga nisbatan o‘zlashtirish tushuniladi.

Produktiv(unumli) o‘zlashtirish darajasi deganda nostandart (standart bo‘lmagan, namunasi bo'lmagan yoki namunaga o‘xshash bo‘lmagan), ya’ni berilgan turdagi mashq bilan bir xil turda bo‘lmagan vazifalarni o‘zlashtirishga aytiladi. Bunday materialni o‘zlashtirish uchun o‘quvchilarga ma’lum darajada o‘ylash va fikrlashlari talab qilinadigan topshiriqlar beriladi.

Ijodiy o‘zlashtirish darajasi (yoki qisman ijodiy) o‘quvchilarning bilim va ko'nikmalarini turli holatlarda tatbiq eta olish, masala echishning turli yo‘llarini izlash (o‘qituvchi ko‘rsatmagan, aytmagan metodlar)ni qo‘llashga asoslangan o‘quv materialiga nisbatan o‘zlashtirish darajasi hisoblanadi [1], [2], [3].

Yuqorida keltirilgan esga olish va xotirada tiklash, reproduktiv, produktiv va ijodiy o‘zlashtirish hamda ta’lim maqsadlari (ta’limning umumiyligi, tarbiyaviyligi va rivojlantirishligi) birlashib kompleks holda keladi. O‘quv materialini o‘zlashtirish darajalariga erishish uchun ta’lim jarayonida bir qancha metodlardan foydalaniladi.

O‘qitish texnologiyasida asosiy e’tiborni dastlabki harakat obrazini shakllantirish uslubiga qaratishimiz lozim, chunki insonning har qanday ongli ravishdagi faoliyati ushbu harakatni bajarish uslubi to‘g‘risidagi ma’lumotlar asosida amalga oshiriladi.

O‘zlashtirish darajalarini aniqlash uchun mos ravishda nazorat topshiriqlari ishlab chiqiladi. Nazorat topshiriqlari berilgan faoliyat turiga belgilangan vazifa va etalonni, yani harakatni to‘g‘ri, to‘liq bajarish natijasini o‘z ichiga oladi. Etalonga ko‘ra nazorat topshiriqlari soni (R) aniqlanishi lozim.

Informatika va axborot texnologiyalari fanidan nazariy mashg‘ulotlar uchun mashqlar tizimi ya'ni turli darajali nazorat topshiriqlaridan namunalar "Word matn protsessorida ishlash" mavzusi bo‘yicha quyidagicha keltirish mumkin [7]:

1 - darajali topshiriqlar:

1. Matnlarni kiritish amalini tushuntiring.
2. Matnlarni muharrirlik qilish amalini tushuntiring.
3. Matnlarni formatlash amalini tushuntiring.

4. Menyu satridagi har bir menyu buyruqlari, ularning vazifalarini farqlang.
5. Standart va Formatlash uskunalar panelidagi uskunalar vazifalarini tushuntiring hamda biror matn fragmentida qo‘llang?

2 - darajali topshiriqlar:

6. Matnli muharrirlar va matnli protsessorlar tushunchalari mohiyatini tushuntiring.

7. Word matnli protsessor yordamida bir vaqtning o‘zida bir nechta hujjatlar bilan ishlash tartibini farqlang.

8. Word matn protsessorida matnlarni kiritish va muharrirlik qilish amallari qanday amalga oshiriladi?

9. Word matn protsessorida jadvallar tashkil etish amallarini bajaring.

3 - darajali topshiriqlar:

10. Matnli muharrirlar qaysi holatlarda bir-biri bilan birgalikda bo‘ladilar?

11. Word matn protsessorida shakl va blanklar tashkil etish amallarini bajaring.

12. Word matn protsessorida oldindan ko‘rish va hujjatlarni chop etish amallari qanday tartibda bajariladi?

4 - darajali topshiriqlar:

13. Matn muharrirlari va matn protsessorlari haqida ma’lumotlar to‘plang va ularning vazifalari bo‘yicha tahlil qiling.

14. O‘zingizning tarjimai holingizni kiriting. Kiritilgan ma’lumotlarni saqlash, muharrirlik qilish, formatlash va chop etish ishlarini bajaring hamda bajarilgan ishlarni tahlil qiling?

"Informatika va axborot texnologiyalari" fanini o‘qitishda o‘quv mashg‘ulotlari ichida amaliy mashg‘ulotlar alohida ahamiyat kasb etadi. "Informatika va axborot texnologiyalari" fanidan tashkil qilinadigan amaliy mashg‘ulotlarning asosiy maqsadi nazariy mashg'ulotlarda olingan bilimlarni mustahkamlash bilan birga o‘quvchilarga o‘zlarining kelajakdagi faoliyatlarida zamonaviy kompyuterlarni qo‘llash imkoniyatlarini ta’minlaydigan amaliy bilim va malakalar berishdan iboratdir [10].

Shuningdek, "Informatika va axborot texnologiyalari" fanidan amaliy mashg‘ulotlar mazmunini shakllantirishda quyidagini e‘tiborga olish lozim:

– axborot tushunchasi va ularning turlari, ularni yig‘ish, saqlash, o‘zgartirish, qayta ishlash hamda uzatish amallarini bajaruvchi axborot texnologiyalarining vositalari haqidagi tushunchalarni egallash;

– o‘quvchilar o‘zlari ixtiyoriy masalani echish uchun turli dasturlar tuzish, shuningdek, mavjud dasturlar ta'minotidan foydalana olish ko‘nikmalarini egallash;

– Windows operatsion tizimi bilan muloqot qila olish hamda uning imkoniyatlaridan foydalanishni bilish;

– kompyuterda turli amaliy dasturlarda ishlay olish malakalarini egallash;

– matnli, jadvalli va grafikli ma'lumotlar hosil qilish malakalariga ega bo'lish;

– bir necha dastur va unda tayyorlangan ma'lumotlar ustida nusxa olish, hujjatlarni bir-biriga birlashtirish va boshqa shu kabi masalalarni hal qilishda bilim, malaka va ko'nikmalarini hosil qilish;

– kompyuterda turli taqdimotlar yarata olish malakasiga ega bo'lish va boshqalar.

Ta'lim muassasalarida "Informatika va axborot texnologiyalari" fanidan amaliy mashg'ulotlarning vazifasi quyidagilardan iborat:

1. Ta'lim oluvchilarda quyidagi amallarni bajarish ko'nikmalarini shakllantirish;

– kompyuterni ishga tayyorlash;

– kompyuterga dastur kiritish va uni rostlash;

– ixtiyoriy amaliy dastur bilan ishlash;

– kompyuterning matn va grafik muharrirlari vositasidan foydalanish;

– kompyuterning mavjud imkoniyatlari bilan tanishish;

– ma'lumotlar, dasturlarning nusxalarini olish va ko'paytirish va boshqalar.

2. O'quvchilarda mashqlar bajarish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish;

– kompyuterda masala echish bosqichlarini egallash;

– mashqlar bajarish jarayonida nazariy bilimlarni masala echishga tatbiq qilish;

– mashqlar bajarish jarayonida ta'lim oluvchilar ijobiy fikrlash masalalarini rivojlantirish.

"Informatika va axborot texnologiyalari" fanidan amaliy mashg'ulotlar uchun tanlangan topshiriqlar mazmuni ixtiyoriy kasb egasiga zarur bo'lgan amaliy ko'nikma va malakaga asoslangan bilimlar minimumi darajasida bo'lishi kerak [10].

Amaliy mashg'ulotlar uchun nazorat topshiriqlari "Dasturlash jarayonida grafika elementlari" mavzusi misolida mashqlar tizimini quyidagicha keltirish mumkin [7]:

1 - darajali topshiriqlar.

1. Kompyuter ekranining markazida o'chib-yonuvchi nuqta hosil qiling.

2. Ekranda nuqtani gorizontal yo'nalishda harakatlantirib, belgilangan joyda to'xtatish amallarini bajaring.

3. Ekranda nuqtani gorizontal yo'nalishda belgilangan joygacha harakatlantirib, to'xtashi natijasida nuqtaning o'chirilishini ta'minlash amallarini bajaring.

4. Ekranda nuqtani diogonal yo'nalishda harakatlantirib, belgilangan joyda to'xtatish amallarini bajaring.

2 - darajali topshiriqlar.

5. Ekranda nuqtani gorizontal yo'nalishda harakatlantirib, so'ngra dastlabki holatiga qaytarish amallarini bajaring.

6. Ekranda nuqtani diogonal yo'nalishda harakatlantirib, so'ngra dastlabki

holatiga qaytarish amallarini bajaring.

7. Ekranda to‘g‘ri to'rtburchak hosil qilib uning markazida o‘chib-yonuvchi nuqta hosil qiling.

8. Ekranda sektor hosil qiling.

3 - darajali topshiriqlar.

9. Ekranda to‘g‘ri to‘rtburchak, uning markazida esa gorizontal joylashgan ikkita nuqta hosil qilib, uni birgalikda harakatlantiring.

10. Ekranda ismingizning bosh harfini to‘g‘ri chiziqlar yordamida hosil qilib, uni gorizontal yo‘nalishda harakatlantiring.

11. Ekranda to‘g‘ri to‘rtburchakning markazida teng tomonli uchburchak hosil qilib, ularni ketma-ket o‘chib-yonib turishini ta’minlang.

4 - darajali topshiriqlar.

12. SPRITE operatori yordamida kompyuter ekrani bo‘ylab harakatlanadigan tasvir hosil qiling.

13. Ismingizni ekran bo‘ylab biror yo‘nalishda harakatlantirish amallarini bajaring.

Kompyuter uchun o‘quv va nazorat qiluvchi dasturlar ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajalariga mos bilim olishida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u quyidagi talablar asosida yaratilishi maqsadga muvofiqdir [8], [9]:

– o‘qitiladigan fan bo‘yicha mavzularni ta’lim oluvchilarning hohishiga qarab tanlash;

– tanlangan mavzu bo‘yicha asosiy savollarni ta’lim oluvchining hohishiga qarab o‘qitishni tashkil qilishi va o‘zlashtirish darajasiga mos topshiriqlar bilan ta’minlay olish;

– kafolatlangan natijadan so‘ng keyingi asosiy savol (yoki mavzuni) o‘zlashtirishga imkoniyat yaratish;

– ta’lim oluvchining o‘zlashtirish darajasi natijasiga ko‘ra mavzu yoki asosiy savolga qaytishni ta’minlash;

– ta’lim oluvchining hohishiga ko‘ra dasturdan chiqishni tashkil etish;

– ta’lim oluvchining hohishiga ko‘ra nazorat topshiriqlariga bevosita o‘tishni ta’minlash;

– ta'lim oluvchining mavzuni qanday darajada o‘zlashtirilganligi haqidagi qaydnomani tashkil etish va boshqalar.

Ta’limning tugallanganligi o‘zlashtirish koeffitsientiga ko‘ra baholanadi:

$$KA = A/R$$

bu erda R - nazorat topshiriqlari soni, A -to‘g‘ri bajarilgan nazorat topshiriqlari soni. $0 \leq KA \leq 1$ bo‘ladi.

$KA \geq 0,7$ bo‘lsa ta’lim jarayoni tugallangan hisoblanadi, keyingi ta’lim jarayonida o‘quvchilar o‘z bilimlarini takomillashtirib borishlari mumkin. Pedagogik jarayonlarga

o'quvchining o'zlashtirish sifatini aniqlovchi koeffitsientning(KA) kiritilishi pedagogik texnologiyaning asosiy mezonlaridan biri - ta'limning yakunlanganlik mezonini shakllantirish imkonini beradi. Bunda o'quvchining harakati faqat mazmuni bilan tavsiflansa, uni ko'nikma, agar harakat yana tezlik bilan tavsiflanadigan bo'lsa, uni malaka deb hisoblash mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Moliya, 2003. - 260 b.

2. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. T.: O'qituvchi, 2004. - 144 b.

3. Jo'raev R.H., Raximov B.X., Xolmatov Sh.F. Yangi pedagogik texnologiyalar. T.: Fan, 2005. -84 b.

4. Toshtemirov D.E. Litsey va kollejlarda IHTA fanidan amaliy mashg'ulotlar mazmuni. "Xalq ta'limi". 2000. № 3. 117-118 b.

5. Toshtemirov D.E., Allayorov S.P., Jo'raev U.S. Informatika fanidan laboratoriya mashg'ulotlarini avtomatlashtirishning imkoniyatlari // GulDU axborotnomasi. - Guliston, 2003. - №2. - B. 73-76.

6. Toshtemirov D.E. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida informatika fanidan olib boriladigan mashg'ulotlarni takomillashtirish // Axborot kommunikatsiyalar texnologiyalari asosida elektron o'quv adabiyotlarini yaratish: tajriba, muammo va istiqbollar: Respublika ilmiy-amaliy anjumanining ma'ruzalar to'plami. 28 aprel 2004. - Toshkent: TDIU, 2004. - B. 86-87.

# ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ МОЛОДЕЖИ

**Р.Х.ДЖУРАЕВ,**
*академик АНРУз, д.п.н., УзНИИПН*
**З.КАРИМОВА,**
*соискатель*

*Теоретические аспекты и социально-педагогические условия дистанционного обучения молодёжи. Результаты разработки и апробации программы сопровождения процесса дистанционного обучения молодёжи.*

***Ключевые слова:*** *электронное обучение, дистанционное обучение, технологии дистанционного обучения, социально-педагогические условия.*

*Theoretical aspects and socio-pedagogical conditions of distance learning for young people. The results of the development and testing of the program for supporting the process of distance learning for young people.*

***Key words:*** *e-learning, distance learning, distance learning technologies, socio-pedagogical conditions.*

В последние десятилетия человеческое общество всё явственнее следует по траектории цифровизации — полномасштабного внедрения современных технологий: информационных, робототехники, искусственного интеллекта. Образование не остаётся в стороне и следует нынешним тенденциям. Дистанционное образование превратилось в глобальный феномен образовательной и информационной культуры, оказав значительное влияние на особенности образования во многих странах. На сегодняшний день повсеместно идёт процесс формирования и совершенствования ряда образовательных услуг для предоставления дистанционных образовательных технологий, характеризующийся большим количеством учеников и студентов, числом задействованных образовательных учреждений, масштабом и совокупностью инфраструктуры, объёмом финансирования.

Активно пробиваясь во все уровни нынешней системы образования, цифровые образовательные технологии становятся ведущим приспособлением развития системы образования в школе и в вузе. В образовательных стандартах многократно прописывается целесообразность подготовки учащихся к следующим видам деятельности: проектной, инновационной, организационной, аналитической, научно-исследовательской. Более того, в технологиях дистанционного обучения студента заложен нереализованный потенциал, способный (подготовить его к вышеупомянутым видам деятельности, активизировать познавательную деятельность, интенсифицировать

самостоятельное обучение, развить навыки работы в коллективе, сформировать коммуникативные навыки и учебную мотивацию в нынешней цифровой среде.

В свете последних событий 2020 г., связанных с проблемой глобального распространения корона-вирусной инфекции COVID-19, существенно возросла актуальность дистанционного обучения. Образовательные учреждения оказались не полностью готовы к тотальному переходу к дистанционному обучению.

В связи с необходимостью перехода на дистанционную форму обучения, педагогам в кратчайшие сроки пришлось искать наиболее гибкие формы реализации учебной программы в условиях пандемии. Педагоги, практикующие только традиционное преподавание, столкнулись с проблемой недостатка знаний, навыков и опыта работы с современными средствами связи, которые позволяют проводить занятия на расстоянии. Преподавателям пришлось приобрести новые компетенции в области применения ИКТ в своей профессиональной деятельности, они стали энергично осваивать новые инструменты для проведения онлайн уроков и конференций на таких платформах, как Skype и Zoom, тем самым увеличился спрос на различные обучающие онлайн-курсы.

Молодёжь, которая, казалось бы, свободно ориентируется в виртуальном пространстве, разбирается в современных технологиях, гаджетах и других электронных устройствах намного лучше, чем взрослые, в условиях пандемии не смогла безболезненно принять новые реалии и необходимость временного перехода на дистанционную форму обучения. Если раньше их задача была усвоить и закрепить новый материал с помощью преподавателя, который мог объяснить новую тему на доступном языке и мог ответить на все интересующие учащегося вопросы, то теперь задача была усложнена многократно.

Во-первых, дистанционное обучение предполагает самостоятельное освоение слушателем в интерактивном режиме необходимых учебно-методических материалов в отличие от аудиторных занятий.

Во-вторых, возникают также специфические социально-психологические проблемы, а именно: вопрос низкой эмоциональной содержательности дистанционных курсов, препятствия в построении межличностных контактов дистанционных студентов друг с другом и с педагогом. В-третьих, комплексное усвоение нового материала. В-четвёртых, с точки зрения технической составляющей есть острая необходимость в компьютере и доступе во Всемирную паутину, который, в свою очередь, должен соответствовать стандартам, предъявляемым для проведения дистанционных занятий.

Следует также затронуть следующие ключевые барьеры дистанционного обучения: 1) несложившаяся система признания равенства онлайн-образования его традиционным формам; 2) недостаточность внедрения

онлайн-технологий в образовательный процесс самими образовательными организациями (недостаточность развития собственной цифровой инфраструктуры, необходимость подготовки преподавателей новой формации); 3) крайне низкий процент слушателей, успешно заканчивающих курсы.

Чтобы помочь студентам адаптироваться в новой образовательной среде и улучшить свои знания (английского языка) в условиях широкомасштабного внедрения современных технологий, было проведено социологическое исследование с целью определения социально-педагогических условий, при которых дистанционное обучение молодёжи будет эффективно.

В исследовании приняли участие студенты, которые изучали иностранные языки в школе. Статистика говорит о том, что значительное большинство опрашиваемых, а именно 93,3%, изучали английский язык. Остальная часть (6,7%) изучали иные языки. Значительная часть опрашиваемых начала изучать английский язык в школе (83,4%), 10% — на групповых курсах, около 6,6% — с репетитором.

На вопрос, как вы оцениваете свои навыки владения английским языком, студенты дали следующие ответы: около 50% респондентов в данный момент оценивают свои знания по английскому языку как «начальный уровень», 26,7% — «ближе к среднему», 20% опрашиваемых заявляют о своих «средних знаниях». Уровень знаний «выше среднего» указывают лишь 3,3%. Большинство молодёжи (87%) хотели бы улучшить свои знания, остальные 13% дали обратный ответ.

Исходя из этого, можно сделать вывод, что респонденты высоко мотивированы в дальнейшем изучать английский язык.

Рассмотрим результаты опроса, в каких целях нынешняя молодёжь хотела бы реализовать свои знания английского языка. Большинство, а именно 30% студентов, желают реализовать свои знания в путешествиях и туристских поездках, в общении с иностранцами. 40% — для своего саморазвития, что, несомненно, является важным фактором мотивации в обучении языкам. Небольшая часть (17%) хотела бы использовать свои знания в познавательно развлекательных целях (киберспорт, просмотр фильмов, чтение, музыка). 20% молодёжи хотели бы реализовать свои знания в учёбе (в том числе и за границей) и в будущей профессии, 3% хотели бы использовать свои знания английского языка за рубежом вне работы и туризма (в целях эмиграции за рубеж).

Выявляя предпочтения молодёжи относительно формы обучения английскому языку, получено: голоса разделились на четыре части. 50% опрашиваемых предпочли бы очную, традиционную форму обучения языкам, 26,7% — очную по выходным, 13,3% — предпочли бы заняться изучением английского самостоятельно через онлайн-игры, а 20% опрашиваемых по

душе дистанционная форма обучения. Здесь необходимо отметить факт отсутствия практики или негативный опыт дистанционного обучения.

Изучив теоретико-методологический материал, рассмотрев тенденции и ключевые барьеры дистанционного обучения, мы пришли к выводу, что данная категория молодёжи крайне нуждается в поддержке со стороны педагогов и организаторов работы с молодёжью. И для того, чтобы помочь им приобрести компетенции в рамках организаторских, коммуникативных способностей (умение себя организовать, замотивировать), необходимо организовать сопровождение процесса дистанционного обучения.

В рамках исследования была разработана «Программа сопровождения дистанционного обучения молодёжи», которая подразумевает работу с педагогами, учащимися и родителями. Обеспечение эффективного взаимодействия всех субъектов образовательного процесса является одним из важнейших условий успешной реализации дистанционного обучения, результатом исследования позволяет сделать следующие выводы:

1. Необходимо помочь педагогам приобрести:

– компетенции методического сопровождения образовательного процесса средствами проектирования моделей дистанционного обучения;

– компетенции обладания формами организации электронного обучения и разработки разных видов документаций для реализации дистанционного обучения с учётом используемых форм и средств;

– компетенции проведения онлайн-занятий с учётом психологических характеристик поведения молодёжи в цифровой среде;

– компетенции организации и проведения обратной связи и опроса дистанционных учащихся;

– компетенции организационной деятельности при дистанционном обучении, включая навыки анализа текущих обстоятельств, умение ориентироваться в этических нормах взаимодействия дистанционных преподавателей и молодёжи;

– компетенции самообучения, которые подразумевают приобретение знаний посредством разных источников информации (социальные сети, виртуальные профессиональные сообщества, способности адекватно оценивать собственные профессиональные возможности в области улучшения дистанционного обучения, навыки самоорганизации).

2. В процессе взаимодействия с молодёжью необходимо:

– создать комфортные, дружеские условия пребывания в виртуальном пространстве (что поможет молодёжи справиться с психологическими проблемами);

– чётко сформулировать цели и задачи дистанционного курса (замотивировать);

– обеспечить социализацию “со сверстниками (общение — это одно из самых главных составляющих процесса обучения);

– изучаемый материал должен быть доступным и интересным;

– молодёжь должна понимать практике-ориентированность обучения и видеть перспективы.

– Одним из связующих звеньев процесса обучения являются родители. Родитель выполняет роль носителя и транслятора определённых микрокультурных ценностей. Следует вести работу по следующим направлениям:

– изучение семей и социальных условий;

– информирование родителей о содержании дистанционного обучения;

– психолого-педагогическое просвещение родителей;

– системная поддержка обратной связи педагога и родителей. Таким образом, полученный научно-практический опыт изучения социально-педагогических условий дистанционного обучениям молодёжи иностранным языкам позволил разработать программу сопровождения дистанционного обучения молодёжи который может найти применение при составлении социологического портрета молодёжи, для разработки аналогичных программ сопровождения дистанционных курсов.

**Литература:**

1. Абрамова А,В. Роль преподавателя английского языка для формирования мотивации у студентов неязыковых специальностей при изучении английского языка // Международный научный журнал «инновационная наука». – 2017, – №4. - С 11-14.

2. Кузнецов Н.В. Онлайн-образование: ключевые тренды и препятствия // E-Management. – 2019. – Т. 2, № 1.

3. Никуличева Н.В. Внедрение дистанционного обучения в учебный процесс образовательной организации: практ. пособие / Н.В. Никуличева. – М.: Федеральный институт развития образования, 2016.

4. Сапрыкина Д.И. Проблемы перехода на дистанционное обучение в Российской Федерации глазами учителей / Лаборатория медиакоммуникаций в образовании НИУ ВШЭ, 2020. (Электронный ресурс): URL:https://icef.hse.ru/data/2020/04/15/1556221517/Дистанционное%20обучение%20глазами%20учителей.

5. Умарова Н.Н., Камнев А.Н. Образовательные запросы молодёжи в век высоких технологий // IV всероссийская научно-практическая конференция: 6 декабря 2018 г. – Ульяновск: ЗЕБРА, 2018 - С. 59-63.

# UZLUKSIZ MA'NAVIY TARBIYA KONSEPSIYASINI AMALGA OSHIRISHDAN KUTILAYOTGAN NATIJALARNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

***Z.T.NAZAROVA,***
*Samarqand viloyati XTXQTMOHM o'qituvchisi*

*Ushbu maqolada uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini amalga osirishdan kutilayotgan natijalarining pedagogik xususiyatlari" hamda "Tarbiya" fanini o'rganish jarayonida fan o'qituvchilarida ijtimoiy kompetensiyalarni bosqichma bosqich rivojlantirish texnologiyasi haqida ma'lumotlar berilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *Tarbiya, pedagogik diagnostika, pedagogik mahorat, kompetensiyaviy yondashuv, motivasiya, kognitiv, operasion-faoliyat, kasbiy faoliyat komponenti.*

*В статье представлена информация об педагогических особенностях ожидаемых результатов реализации концепции «непрерывное духовное образование» и технологии постепенного развития социальных компетенций учителей естественных наук при изучении предмета «Воспитание».*

***Ключевые слова:*** *Компонент обучения, педагогическая диагностика, педагогическое мастерство, компетентностный подход, мотивация, познавательная, операционная деятельность, профессиональная деятельность.*

*The article provides information on the pedagogical features of the expected results of the implementation of the concept of «continuous spiritual education» and the technology of gradual development of social competences of teachers of natural sciences in the study of the subject «Upbringing».*

***Key words:*** *Learning component, pedagogical diagnostics, pedagogical skills, competence-based approach, motivation, cognitive, operational activity, professional activity.*

"Tarbiya" fani o'qituvchisining kommunikativ, axborot bilan ishlash, shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish, ijtimoiy faol fuqarolik, umummadaniy savodxonlik, fan va texnika yutuqlaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyalarini rivojlantirishda o'ziga xos funksional vazifalarni bajarmoqda.

Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holatga keltirishi uchun tarbiyaning asosi bo'lgan barcha g'oyalar qaytadan ko'rib chiqilishi, asosiy e'tibor shaxsga qaratilishi, yillar davomida to'plangan ijobiy tajribadan unumli foydalanish zarurligini taqozo etadi. Biroq, "Tarbiya" fanining bosh maqsadi – yosh avlodni ma'naviy axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, ma'naviy tarixiy an'analarga, urf–odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali, tashkiliy, pedagogik shakl va vositalarni ishlab chiqib amalga joriy etishdir. Mazkur fanining asosiy vazifasi esa – shaxsning aqliy erkin fikrlovchi va jismoniy rivojlanishi,

uning qobiliyatlarini har tomonlama ochish uchun imkoniyat yaratishdir. Buning uchun: yoshlarni erkin fikrlashga tayyorlash, hayot mazmunini tushunib olishga ko‘maklashish, o‘z–o‘zini idora va nazorat qila bilishni shakllantirish, o‘z shaxsiy turmushiga maqsadli yondoshuv, ularda reja va amal birligi hissini uyg‘otish; talabalarda madaniy hamda dunyoviy bilimlarni egallashga bo‘lgan talablarini shakllantirish, malaka hosil qildirish, tobora o‘stirib, boyitib borish va estetik tushunchalarni shakllantirish; har bir o‘smirning bilimdonligini va ijodiy imkoniyatlarini aniqlab, ularni rivojlantirish, inson faoliyatini turli sohalarda joriy qilib ko‘rish, singari maqsad va vazifalar belgilangan.

Mazkur tahlilda “Tarbiya” fani o‘qituvchilarida shakllantiriladigan ijtimoiy kompetensiyalarning taklif etilayotgan tarkibida fanning bosh maqsadi sifatida belgilangan yosh avlodni ma’naviy axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, ma’naviy, tarixiy an’analarga, urf–odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali, tashkiliy, pedagogik shakl va vositalarni ishlab chiqib amalga joriy etish masalasida Harakatlar strategiyasi, “Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari” bosh milliy g‘oya mazmuni va vazifalari aks ettirilgan.

“Tarbiya” fanining bugungi mazmun va yo‘nalishlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan beshta muhim tashabbusni amaliyotga joriy etish samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi 2020 yil 25 mart Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2017 yil 6 aprel 187-son qaroriga asosan umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi davlat ta’lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish “Tarbiya” fani o‘qituvchilarining ijtimoiy kompetensiyalari tarkibiga qo‘yayotgan mazmuniy va metodik talablariga davriy nuqtai nazardan mos kelmay qoldi. Qolaversa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonida[1] pedagoglarni tayyorlashning metodik ta’minoti

qoniqarsizligi, shuningdek, davlat ta'lim standartlari kompetensiyaviy yondashuvga asoslanganligiga qaramasdan aynan malakalarni rivojlantirish masalasi tanqid ostiga olingan.

"Tarbiya" fanining joriy qilinishini keltirish mumkin. "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi" asosida umumiy o'rta ta'lim muassasalarining I-XI sinflari uchun "Odobnoma", "Vatan tuyg'usi", "Milliy istiklol goyasi va ma'naviyat asoslari", "Dinlar tarixi" fanlarini birlashtirgan holda "Tarbiya" fanini joriy qilish bilan bog'liq nafaqat tashkiliy, moliyaviy, balki ilmiy-metodik ishlar "Tarbiya" fani o'qituvchilarini tayyorlash mazmuini isloh qilishni talab qiladi.

"Tarbiya" fani o'qituvchilarini sinf rahbarligiga metodik tayyorlash masalasini zamonaviylashtirish va kuchaytirish taqozo qilinmoqda. Chunki sinf rahbarlari boshlang'ich sinf o'quvchilarining bevosita ta'lim–tarbiya jarayoni, ya'ni ham darslar davomida, hamda darsdan keyingi faoliyatini pedagogik nazorat qilishga kasban ma'suldirlar.

Kompetentli yondoshuv nuqtai nazaridan qaralganda "Tarbiya" fani ikki tomonlama ahamiyatli. Birinchidan, o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalash vositasi bo'lsa, ikkinchi tomondan, ularni o'quvchilarni tarbiyalashga o'rgatuvchi fandir. Shu sababli ushbu fan mazmuni ana shu ikki xususiyatdan kelib chiqib, yangi talablar bilan boyitilishi maqsadga muvofiqdir. Fan mazmuni hayotiy misollar, faktologik material asosida faoliyatga yo'naltirilishi zarur. Ya'ni, o'quvchilar fanni o'rganish jarayonida o'zlari shug'ullanajak faoliyatni ko'rib, sezib, his qilib turishlari kerak. Buning uchun fan mazmuniga vitagen, kouching va praksiologik texnologiyalarni o'zlashtirishga qaratilgan mashg'ulotlar kiritilishi fanning va u orqali o'qituvchilarda ijtimoiy kompetensiyalarning mukammal rivojlanishiga, modernizasiyalashuviga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, "Tarbiya" fani o'qituvchilarida ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik resurslarni xronologik ishlatish, ijtimoiy kompetensiyalarning rivojlanishini vaqt kesimi bilan bog'lanmaganligi ma'lum bo'ldi. Yuqoridagi o'rganishlar natijalarini umumlashtirgan holda "Tarbiya" fani o'quvchilarini ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish shakl va metodlarini bosqichma bosqichli amalga oshirish texnologiyasini ishlab chiqdik. Mazkur texnologiyani amalga oshirish natijalarining "Tarbiya" fani o'qituvchisi ijtimoiy kompetensiyalari komponentlari, modeli bilan uyg'unligi ta'minlandi. Bu esa dasturning "Tarbiya" fanini o'qitish jarayoniga joriy qilinishiga qulay sharoit yaratdi.

## “Tarbiya” fanini o‘rganish jarayonida fan o‘qituvchilarida ijtimoiy kompetensiyalarni bosqichma bosqich rivojlantirish texnologiyasi

| Ijtimoiy kompetensiyaning komponentlari | Dasturiy bosqichlar va kutiladigan natijalar | Shakl va metodlar |
|---|---|---|
| Motivasiya | O‘quvchilar tomonidan ijtimoiy kompetensiyalarning dolzarb ahamiyatining qabul qilinishi, kasbiy-ma’naviy burch ning anglanishi; har bir o‘quv vazifasini muhim, amaliy zarurat, ish sifatida qabul qilish | muayyan ijtimoiy vaziyatni tahlil qilish; muammoli savollar; mavzuni muammoli tahlil qilish; qaror qabul qilishga o‘rgatish; o‘z o‘zini tanqidiy baholashga o‘rgatish |
| Kognitiv | O‘quvchilarning ijtimoiy kompetensiyalarni qo‘llashga nazariy tayyorligi; o‘quv materialini tizimli o‘zlashtirish va uni qo‘llashga tayyorlik | ijtimoiy kompetensiyalari rivojlangan «Tarbiya» fani o‘qituvchisining namuna-idealini yaratish; pedagogik keyslarni yechi shda must aqil qarorlar qabul qilishga o‘rgatish; talabalarga ularning qiziqish, motiv va qobiliyatlarini rivojlantiruvchi pedagogik vazifalar taklif qilish |
| Operasion-faoliyat | Ijtimoiy kompetensiyalarni amalga oshirishga texnologik tayyorlik; talabalarni o‘z ijtimoiy kompetensiyalarini boshlang‘ich sinflarda qo‘llashga jalb qilish. | o‘quv materiallarini fanlararo tahlil asosida umumlashtirish; asosiy bilim va malakalarni umumlashtirish («Tarbiya» fani bo‘yicha lug‘at, dars konspektini tuzish, harakatlar algoritmini tuzishga o‘rgatish, keyslarni namoyish qilish); murakkab o‘quv vazifalarini berish, yakka tartibda amaliy topshiriqlar berish, master klass. |
| Diagnostik faoliyat | O‘quvchilarni tarbiyalashga kasban, ma’nan tayyorlik. | mashg‘ulotlarda turli rolli o‘yinlarni tashkil qilish; “o‘qituvchi-o‘quvchi”, «o‘quvchi o‘quvchi», «o‘quvchi ota ona», «ota-ona o‘qituvchi» shakllaridagi muammoli vaziyatlarni adolatli, insonparvarona hal qilish, faollik, mas’uliyat; pedagogik tavsifnomalar, xulosa, loyihalar tuzish. |
| **Ijtimoiy kompetensiyaning komponentlari** | **Dasturiy bosqichlar va kutiladigan natijalar** | **Ijtimoiy kompetensiyalarni o‘rgatishning shakl va metodlari** |
| Motivasiya | O‘quvchilar tomonidan ijtimoiy kompetensiyalarning dolzarb ahamiyatining qabul qilinishi, bu ma’naviy burch sifatida daxldorlik hissini tuyishi; har bir o‘quv vazifasini muhim, amaliy zarurat, ish sifatida qabul qilish | muayyan ijtimoiy vaziyatni tahlil qilish; muammoli savollar; mavzuni muammoli tahlil qilish; qaror qabul qilishga o‘rgatish; o‘z-o‘zini tanqidiy baholashga o‘rgatish |
| Kognitiv | O‘quvchilarning ijtimoiy kompetensiyalarni qo‘llashga nazariy tayyorligi; O‘quv materialini tizimli o‘zlashtirish va uni qo‘llashga tayyorlik | o‘quvchi talabalarga ijtimoiy kompetensiyalari rivojlangan «Tarbiya» fani o‘qituvchisining namuna-idealini yaratish; turli pedagogik vaziyatlarni yechish bo‘yicha mustaqil qarorlar qabul qilishga o‘rgatish va bunda talabaga maslahatlar berish; talabalarga ularning qiziqish, motivlari va qobiliyatlarini rivojlantiruvchi pedagogik vazifalar |

Xulosa o‘rnida “Tarbiya” fanining boy tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish uchun mashg‘ulotlarning amaliy, operasional, keys yo‘nalishlaridagi resurslaridan foydalanish hissasini kuchaytirish taqozo qiladi. Tajriba sinov ishlarida biz ushbu yo‘nalishni o‘qituvchilarda “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi”da belgilab berilgan tanch ma’naviy axloqiy fazilatlar bilan bog‘lagan holda ularda texnologik bilimlarni g‘oyaviy, ma’naviy ma’rifiy bilim va qadriyatlar bilan boyitishga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq.

**Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyotyo‘limizni qat’iyatbilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T.: «O‘zbekiston» - 2017. 29-b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.

3. Mavlonova R., Rahmonqulova N., Normurodova B. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. – T.: Tib-kitob, 2010 y.

4. Ishmuxammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. – T.: Fan va texnologiya, 2010 y.

# BOSHLANG'ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH YO'LLARI

***N.T.MISIROVA,***
*Guliston davlat universiteti katta o'qituvchisi*
***S.B.XO'JAQULOVA,***
*GukDU,1 kurs magistri*

*Маълумки математика фани узлуксиз босқичма-босқич ўқитиладиган фан ҳисобланади. Математик билим ва саводхонлик авваламбор бошланғич синфларда сифатли ташкил этилиши мақсадга мувофиқ вазифа ҳисобланади, шундагина юқори синф ўқувчилари математика фанини мураккаблигини сезмасдан ўзлаштириш имкониятига эга бўлади. Мазкур мақола бошланғич синф математика дарсларини ташкил этишда инновацион воситаларидан фойдаланишга бағишланади.*

***Таянч сўзлар:*** *Boshlang'ich sinflar, masalalar yechish, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ilm, bilim va ko'nikma, isbot uchun, hisoblab chiqarish, tuzish.*

*It is well known that mathematics is a science that is taught continuously and step by step. Qualitative organization of mathematical knowledge and literacy, first of all, in primary school, is a desirable task, so that high school students have the opportunity to master the science of mathematics without realizing its complexity. This article is devoted to the use of innovative tools in the organization of primary school mathematics lessons.*

***Key words:*** *Elementary classes, problem solving, independent thinking in students, science, knowledge and skills, proof, calculation, composition.*

*Хорошо известно, что математика - это наука, которую преподают непрерывно и шаг за шагом. Качественная организация математических знаний и грамотности, в первую очередь, в начальной школе, является желательной задачей, чтобы у старшеклассников была возможность овладеть математикой, не осознавая ее сложности. Статья посвящена использованию инновационного инструментария при организации уроков математики в начальной школе.*

***Ключевые слова:*** *начальные классы, решение задач, самостоятельное мышление студентов, наука, знания и умения, доказательство, расчет, композиция.*

Boshlang'ich sinflarda matematikani, ayniqsa masalalarni yechishga o'rgatishda o'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantiruvchi boshqa bilim va ko'nikmalarni shakllantirish muhimdir.

Boshlang'ich sinf matematikasiga oid masalalarni yechish jarayonida mustaqil fikrlashni shakllantiruvchi bilimlar:

1) masalaning shartlari va fikrlay borishini tahlil qilishni bilish;

2) ushbu masalani yechish uchun muhim bilimlarni tanlashni bilish va masalaning yechilish jarayoni qanday tugashini oldindan ko'ra bilish;

3) masalani yechish farazlarini ko'rsatishni bilish, ushbu masalani yechish uchun yordamchi masalalarni tuzishni bilish;

4) masala yechimlarini umumiylashtirishni bilish, kelib chiqadigan xulosalarni qila bilish.

O'rta maktabda boshlang'ich sinflarda matematikani o'rgatishda ilm, bilim va ko'nikma o'zaro chambarchas bog'langandir. Masalani yechishda o'quvchi quyidagilarni bilishi kerak:

1) masalani ifodalanishida nima berilgan va nimani topish kerakligini aniqlashni bilish;

2) haqiqiy tasdiqlarni ketma-ket qo'yish;

3) o'rganilgan nazariy materiallar natijalarini ishlatish;

4) masala shartlarida berilgan tushunchalar o'rtasidadagi nisbatni o'rnatish;

5) ushbu nisbatni masalani yechish farazlarini ilgarilash uchun ishlatish;

6) berilgan masalani yechish uchun yordamchi masalalarni tuzish;

7) o'rganilgan nazariy va amaliy materiallarni ishlatish;

8) kelib chiqadigan xulosalarni qilish.

Demak, masalani yechishni bilish – bilim va ko'nikmalarga ega ekanligidan dalolat beradi va aksincha, masalani yechishni bilish uchun o'quvchi o'rganilgan materialning mazmunini o'zlashtirishi lozim. Ilm va bilim o'rtasidagi ikki tomonlama bog'lanish shundan darak beradiki, o'qitish natijalarining har biri alohida va birgalikda o'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu izlanishda boshlang'ich sinflarda matematikadan masala yechish jarayonida umumiy xarakterdagi ko'nikmani shakllantirish muhimdir. Ushbu qoida shunday ifodalanadi: bajarish uslubini bilish qobiliyatiga asoslangan bilim, faoliyat maqsadiga erishish uchun eng natijali va unumlidir. Eng muhimi o'quvchi masala yechganida faoliyatni bajarish uchun unumli uslubni tanlab olishi kerak. Bu mustaqil fikrlashni shakllantirishda asosiy vositalardan biridir.

O'rganilgan teoremalarni masala yechishda qo'llash ko'nikmasining komponentlari quyidagilar:

1) masala shartlarida boshlang'ich sinf matematikasiga oid figuralarni va ularni o'zaro bog'lanishini ajratish;

2) masalaga tegishli boshlang'ich sinf matematikasiga oid figuralar xususiyatlarini aytish va ularning o'zaro bog'lanishini topish;

3) masalani yechishda muhim bo'lgan ularning xususiyatlari va ularning o'zaro bog'lanishini tanlash;

4) masala yechilishidan kelib chiqadigan tasdiqlarning ketma-ketligini tuzish.

Turli masalalarni yechish (isbot uchun, hisoblab chiqarish, tuzish) uchun ushbu faoliyat umumiydir. Shuning uchun ushbu faoliyatlarning har biri o'rganilgan teoremalarni

masala yechishda qo‘llash ko‘nimasining asosiy qismi bo‘lib xizmat qiladi.

Boshlang‘ich sinf matematikasiga oid masalani yechish jarayonida o‘quvchi ijodiy yuksalishini, o‘zining aqliy mehnatidan chuqur mamnunligini sezadi. O‘quvchi masalani yechish jarayonida aniqlikdan noaniqlikka, sodda bog‘lanishdan murakkablikka muvoffaqiyatli o‘tadi.

Boshlang‘ich sinflarda matematikani o‘rganishda masalalarni yechish jarayonidan unumli foydalanish bir qator shartlarga bog‘liq:

Birinchidan, o‘quvchi oldin egallagan ilm, bilim va ko‘nikmalar zahirasiga ega bo‘lishlari muhimdir.

Ikkinchidan, yechilayotgan masalalarning mazmunlari ketma-ketlikda bo‘lishi shartdir.

Uchinchidan, o‘quvchi masala yechish jarayonini o‘rganib, kelib chiqadigan xulosalarni qilishni bilishi shart.

Ushbu vazifalarning bajarilishi o‘quvchining bilim hajmi va aqlining rivojlanganlik darajasiga bog‘liq. Shuning uchun birinchi bosqichda o‘quvchiga aqliy kuch va tirishqoqlikni ko‘p talab qilmaydigan masalalarni taklif etish kerak.

Bunda o‘quvchi sodda masalalarni yechishi keyin esa bora-bora bu masalalarni rivojlantirib murakkablashtirish kerak, toki o‘quvchi o‘zi mustaqil ishlash ko‘nikmasini hosil qilgunicha. Masala yechish jarayonidan foydalanishning maqsadga muvofiqligi shu masalaning mazmuniga ham bog‘liq. Har bir masala – bu faktlar, ma’lumotlar, tushunchalar va g‘oyalarning mantiqiy tugallangan doirasidir, bu esa o‘quvchi tomonidan faol o‘zlashtirilgan qaytadan ishlab chiqilgan va oxirigacha o‘ylab chiqilgan bo‘lishi kerak.

O‘qituvchining o‘quvchidagi fikrlash faoliyatini maksimal darajada faollashtirish mumkin bo‘lgan imkoniyatlarini tasvirlaymiz.

Birinchidan, bunday masalalarni yechish uchun o‘quvchi aniq boshlang‘ich sinf matematikasiga oid figurani batafsil o‘rganib olishi kerak. Uning elementlari bo‘shliqdagi holatlari, ular orasidagi bog‘lanishining tahlilini bilishi shart. Bularning hammasi fazoviy tasvirni rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi, fazoviy shaklga ongli munosabatni tarbiyalaydi, bu esa o‘quvchining har bir faoliyatida muhim ahamiyatga ega.

Ikkinchidan, yasashga qaratilgan masalalarni yechishda o‘quvchi masalada berilgan rasmga asoslanib kirish tahlilini albatta bajarishi, yasash jarayoni tug‘ri ekanligini isbot qilishi, imkoni boricha har xil holatlarini o‘rganishi lozim. Buning uchun o‘quvchidan mantiqiy tasdiq va chuqur fikrlash ishlatishni talab qiladi.

Uchinchidan, ushbu masalalarni yechishda o‘quvchi ma’lum va noma’lum figura hollari o‘rtasidagi bog‘lanishdan boshlang‘ich sinflarda matematika kursidan turli, ko‘plab teoremalarni eslash va shu teoremalarni ichida ushbu masalani yechish uchun keragini tanlab olish kabilardan foydalanishi lozim.

Shunday qilib, yasashga doir masalalar o‘quvchining umumiy matematik va

mustaqil fikrlashining shakllanishiga va ijodiy qobiliyatni tarbiyalashga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Masalalarning hech qaysi turi yasashga doir boshlangich sinf matematikasiga oid masaladan o'quvchiga tashabbuskorlik va mantiqiy ko'nikmani rivojlantirish uchun bunday ko'p material bermaydi. Bunday masalalar o'ziga nisbatan standart yondashishga va rasmiyatchilik bilan o'zlashtirilishiga yo'l qo'ymaydi.

Yasashga doir masalalarni quyidagi sxemaga qarab yechishni tavsiya etamiz: masala tahlili, yasalishi va o'rganilishi to'g'ri ekanligining isboti.

Masala tahlili uning yechish rejasini tuzishga olib keladi, sodda yasalishning ketma-ketligi tuziladi va natijada masala yechiladi. Oddiy yasalishning ketma-ketligi aniq bo'lsa, masala tahlili kerak bo'lmaydi. Shunday qilib, yasashga qaratilgan masala tahlili uning yechimini topish demakdir.

Yasash – tahlilda belgilangan oddiy ketma-ket, instrument yordamida aniq bajarilgan tuzilmalar.

Isbot maqsadi – bajarilgan tuzilmalar (yasalishlar) haqiqatan ham masala shartiga javob beradimi?

O'rganish – bu masala yechish shartlari va ular qancha bo'lishi mumkin?

Mustaqil fikrlashni shakllantirishning ushbu xususiyatlari muammoni yechishda tezda namoyon bo'lmaydi, aksincha turli kuch bilan turli birikmada bo'ladi. Ushbu xususiyatlarning shakllanish vositasi va ijodiy faoliyat tajribasini uzatish uslubi bo'lib, ijodiy masalalarga xizmat qiladi. Bunday masalalarni yechish jarayonida o'quvchi muammoning yechimini topish tajribasiga ega bo'ladi, mustaqillikka erishadi. Bu kabi masalalar ijodiy faoliyatni namoyon bo'lishiga olib keladi va mustaqil fikrlashni shakllantiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Мирзиёев Ш. М. "2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устивор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегияси" Ўзбекистон республикаси Президентининг 2017-йил 7 февралдаги ПФ-4947 сонли Фармони.

2. Мирзиёев Ш. М. "Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг ҳузуридаги Президент, ижод ва ихтисослаштирилган мактабларни ривожлантириш агентлигини ташкил этиш тўғрисида"ги Ўзбекистон республикаси Президентининг 2019-йил 9 сентябрдаги ПФ-5815 сонли Фармони.

3. Ишмуҳамедов Р. Ж "Инновацион технологиялар ёрдамида таълим самарадорлигини ошириш йўллари" Тошкент, 2016.

4. Бердиева Ҳ Б. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. Услубий қўлланма. Термиз-2015 й.

# O'QUVCHILARNI KITOB MUTOLAASIGA QIZIQISHLARINI SHAKLLANTIRISH

***F.M.KO'CHKAROVA,***
*ADU p.f.b.f.d (PhD),*
***L.O.SHABDULLAYEVA,***
*AnDU 1kurs magistranti*

*Chinakam kitobxonlik bor joydagina yuksak taraqqiyotga erishish mumkin.*
***I.A.Karimov***

*O'quvchilar qalbida yuksak ma'naviyatni shakllantirishda kitob va o'qishning ahamiyati beqiyos. Siz bilim manbai bo'lgan kitobni sevishingiz, uni o'qiy olishingiz va uni ko'z qorachig'idek saqlashingiz, uni o'qish uchun tanlay olishingiz va o'qish madaniyatini bilishingiz kerak.*

***Kalit so'zlar:*** *Kutubxona, kitobga muhabbat, oiladagi kitoblarga qiziqish, kitobga muhabbat, kitob va o'qishning ahamiyati, o'qish madaniyati.*

*The importance of books and reading in shaping high spirituality in the hearts of students is incomparable. You need to love a book that is a source of knowledge, be able to read it and keep it as the apple of your eye, be able to choose it for reading, and know the culture of reading.*

***Key words:*** *library, love of books, interest in books in the family, love of books, the importance of books and reading, the culture of reading.*

*Книги и чтение играют важную роль в формировании духовности учащихся. Вам нужно любить книгу, которая является источником знаний, уметь ее читать и держать как зеницу ока, выбирать ее для чтения и знать культуру чтения.*

***Ключевые слова:*** *библиотека, любовь к книгам, интерес к книгам в семье, любовь к книгам, важность книг и чтения, культура чтения.*

Kutubxona – bu haqiqiy madaniy-ma'rifiy maskan sifatida faoliyat ko'rsatishi kerak. Bu ziyo va ma'naviyat maskani bolajonlarning eng sevimli dargohiga aylanishini va o'z bag'riga ko'proq bolalarni chorlashi lozim.

Kitobga muhabbat, uni qadrlash, o'qishga ishtiyoq xalqimizning qon-qoniga singib ketgan. Xalqimiz ilm va fan, adabiyot va san'atga oid nodir qo'llanmalar, adabiyotlari bilan haqli ravishda faxralanadi. Dunyoning qaysi bir mashhur kutubxonasida bo'lmang xalqimizning ulug' allomalari, tafakkur xazinasini yaratgan donishmandlarining qo'lyozmalarini kitob holiga keltirib, boqiy umr bag'ishlagan xattotlar, musavvirlar mehnatini ko'rish mumkin

Ota-bobolarimiz xonadonlarda Mashrab, Navoiy, Bedil va boshqa shoirlarimizning asarlarini maroq bilan o'qishgan. Farzandlarimiz kitobxonlik

davralarida ishtirok etishgan. Natijada farzandlarimizda kitob o‘qishga havas uyg‘ongan. Hozirgi kunda oilalarda kitobni ko‘proq bolalarga yo buvasi yo buvisi o‘qib berishadi. Lekin ming afsuski, ota-onalari ishda band bo‘lganliklari sababli ularni kechki paytda kitob o‘qishga vaqtlari etishmayapti.

Oilada bolalarga alohida xona ajratish va albatta kichkina kitob javonini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Shu o‘rinda hurmatli ota-onalarimiz bolajonlarga kitob nihoyatda muqaddasligi, u bilan ehtiyot bo‘lib muomala qilish kerakligini uqtirishlari lozim.

Ta’lim muassasalarida, oilada bolani kitobga nisbatan qiziqtirish, e’tiborini oshirishda muallimning xizmati beqiyosdir. Bolaning yoshlik chog‘idayoq uning murg‘ak qalbiga kitobga nisbatan qiziqish, mehr uyg‘otish lozimki, u doimo kitobni sevsin, ardoqlasin, avaylasin, kitob ustida ishlashni bilsin. Ota-onalar bolaning 3-5 yoshidan boshlab ularga rangli suratli kitoblar sovg‘a qilishi, «O‘zing bo‘ya», «Chiza olasanmi?», «Mantiqiy fikrla!» mazmundagi sodda, psixologik tomondan yoshiga mos kitob–albomlarni xarid qilishi lozim. Maktabgacha ta’lim muassasalarida bu xayrli ishni davom ettirib, bolalarning har bir guruhida yosh xususiyatlarini e’tiborga olib kichik kutubxonalar tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Umumta’lim maktablarida xat savodga o‘rgatish boshlang‘ich sinflardan boshlanar ekan, ularda kitobxonlik faoliyatini barqarorlashtirish, yoshlik chog‘laridan kitob o‘qishga o‘rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun sinf rahbarlari tashabbuslari bilan «Sinf kutubxonasi» tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. O‘z-o‘zini boshqarish tizimi bo‘yicha eng zukko, bilimli bir o‘quvchini «Sinf kutubxonachisi» etib tayinlash orqali, sinfdagi kitoblar soni, saqlanish holati qat’iy nazoratga olib boriladi.

Sinf rahbari, o‘qituvchining bilimi, iste’dodi, mahorati o‘quvchini kitobga nisbatan mehrini oshirib, uni sevishga undashi muhimdir. Chunki bolalar mo‘‘jizalarga ishonadilar, kitob qahramonlari ular haqidagi dastlabki taassurotlarni buvi-buvalardan, ota-onalardan, tarbiyachi-o‘qituvchidan eshitgan ertagu-afsonalardan olsalar, keyinchalik o‘zlari kitobni o‘qish orqali bilim doiralari kengayib boradi. Shoir Hamid Olimjon ham “Semurg‘ yoki Parizod va Bunyod» dostonida ertak va dostonlarni buvisidan eshitganini eslaydi. YUqorida aytganimizdek, o‘quvchilarda kitob o‘qish malakasini shakllantirish va o‘stirish o‘qituvchi mahoratiga bog‘liq.

Maktab kutubxonachilari oldida turgan asosiy vazifa maktab o‘quvchilarida yangicha tarixiy ongni shakllantirish, milliy qadriyatlarni tiklash bo‘yicha olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish, kutubxonachilik- bibliografiyaga doir bilimlarni, pedagogikaga oid eng yaxshi adabiyotlarni hamda ma’naviyat, axloq-odob asoslarini o‘rgatuvchi shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy bilimlar beruvchi nashrlarni targ‘ib etish, kitobxonlar so‘rovini ehtiyojini to‘la qondirish hamda ularning axborot madaniyatini ko‘tarishdan iboratdir.

Kitobxonlikni zaruratga aylantirish kerak. Agar farzandlarimizda kitob o‘qishga havas bo‘lmasa, uning kitob o‘qishga bo‘lgan e’tiborini o‘zgartirish mushkul bo‘lib qoladi. Ularni o‘qishga majburlash emas, balki kitob o‘qishga havas uyg‘otish lozim. Bu borada ota-ona, ustozu murabbiylar va kutubxona xodimlari bevosita yordam berishlari lozim bo‘ladi. Bunda bolalarning yosh xususiyati, qiziqishi hisobga olinishi kerak. Italiya yozuvchisi Seneka: «Kitoblarning soni emas, ularning yaxshisi foyda keltiradi», - deb aytgan edi.

O‘quvchilarni mustaqil o‘qishga qiziqtirish uchun «She’riyat gulshani», «Kitob – mening do‘stimsan», «Kitob mo‘‘jizaga chorlaydi», «G‘olib kitobxon», «Sinfning eng yaxshi kitobxoni» kabi tanlovlarni va har xil mavzularda bahs-munozaralarni tez-tez o‘tkazib turish tavsiya etiladi.

Ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning sinfdan tashqari o‘qigan kitoblari asosida kitobxonlar konferensiyasini o‘tkazish, ularning mantiqiy va ijodiy fikrlash qobiliyatini boyitadi, kitobga bo‘lgan havasini uyg‘otadi. Farzandlarimizni kitobga qiziqtirish oson ish emas. Bu ham tarbiyaviy jarayon. Har bir bolaning qiziqishi, moyilligi inobatga olingan holatda uning o‘z kitobi bo‘lishi kerak.

Biz kattalar bolalardan ko‘p kitob o‘qishni talab etamiz. Bu bir qarashda to‘g‘ridek. Lekin bu erda asosiy gap o‘quvchi-yoshlarimizning o‘qimoqchi bo‘lgan kitobining yoshiga mosligi, qiziqishi, moyilligiga to‘g‘ri kelishiga e’tiborni qaratish va nihoyat o‘z kitobini o‘qishi lozimligiga qaratishimiz lozim. Bu o‘qish madaniyati qanday va qay darajada tarbiyalanganiga bog‘liq.

Kitob o‘qish madaniyatiga kitob xarid etish va kutubxonani muntazam boyitib borishga alohida e’tibor bilan qarash, kitob saqlash odobi, o‘qish jarayoni, o‘qiganni o‘ziga va hayotga tatbiq eta bilish kabi yana o‘nlab masalalar kiradi. Kitobni tanlab, aniq maqsadni o‘ylagan holda o‘qish zarur. Bundan tashqari bola faqatgina kitob o‘qish bilan chegaralanib qolmasdan, balki kitobdagi asosiy ma’no-mazmunga tushunishi ham lozim.

Kitobga bo‘lgan havas o‘quvchilarimizni kerak bo‘lsa ayrim asarlarni takror va takror o‘qishga olib keladi. Nemis shoiri F.Gebblp aytganiday: «O‘qilgan kitoblarni takror o‘qish savodxonlikning eng ishonchli tarozisidir» deb aytgan edi.

Umumta’lim maktablarining kutubxonalari har chorakda bir marta «Kitoblar mo‘‘jizasi» yoki «Kitoblar olamiga sayohat» mavzusida ko‘rgazma tashkil etishlari maqsadga muvofiq. U faqat ko‘rgazma bo‘lib qolmay balki eng kitobxon o‘quvchilar taklif etilib, kitob haqidagi fikri va eng sevimli asari qahramonlari ramziy tasvirini ifoda etib berishi ko‘rgazma ishtirokchilari tasavvurida chuqur iz qoldiradi. O‘quvchilar o‘zlari sevib o‘qigan asarlari yuzasidan taqrizlar yozishni o‘rgansalar yanada yaxshiroq bo‘ladi. YOki o‘qigan asarlari taassurotlari asosida o‘quvchining ijod namunalari (kichik hikoya, she’r, hajviya) ko‘rgazmaga qo‘yiladi. Eng faol qatnashgan ishtirokchilar rag‘batlantiriladi.

Tadbirda qatnashgan har bir o‘quvchilarning arzimas kichik bir

muvafaqqiyatini chetda qoldirmaslik, uni olqishlash, qiziqishini o‘stirish lozimki, toki u kitobga bo‘lgan havasi yana ham oshib, kitobga bog‘lansin.

O‘quvchilarning bo‘sh vaqtlarini samarali tashkil etish, to‘garakka a’zo bo‘lgan o‘quvchilar bilim doirasini kengaytirish, qo‘shimcha ma’lumotlar berish maqsadida ekologik, texnik, iqtisodiy, huquqiy bilimlardan keng xabardor etish maqsadida kutubxonada burchaklar tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Kutubxonalarimizni yuqori sinf o‘quvchilari, ota-onalar roziligi bilan badiiy adabiyotlar bilan boyitishimiz mumkin. Buning uchun sinfdagi har bir o‘quvchi o‘z roziligi bilan bittadan kitob olib kelib topshirsa, kutubxona 20 - 30 dona badiiy kitob bilan qo‘shimcha ravishda boyiydi. Natijada bir dona kitob olib bergan o‘quvchi yana 20 - 30 dona yangi kitob o‘qish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu ishga homiylarni ham jalb etish mumkin.

Ammo hozirgi kunda rang-barang voqea va hodisalarga boy filmlar, sarguzashtlar haqida hikoya qiluvchi boshqa vositalar (televizor, kompyuter, internet)ning ta’siri kuchayib bormoqda. Bular o‘quvchi-yoshlarimizga qo‘shimcha axborot berish bilan birga, farzandlarimizning ko‘p vaqti televizor ekranida yoki kompyuter yonida o‘tishi tufayli, bolalarimizning salomatligiga ta’sir etish bilan birga, ularning kitob o‘qishiga ham salbiy ta’sir o‘tkazmoqda. Televizor hech qachon kitob o‘rnini bosolmaydi.

Gruzinlar madaniyat va ma’naviyat belgisi sifatida har bir kelin sepiga SHota Rustavelining «Yo‘lbars terisini yopingan pahlavon» kitobini qo‘shib berar ekan.

Kutubxona ishini rivojlantirish, o‘quvchilarni bu maskanga ko‘proq jalb etish, u erda ma’naviy-madaniy tadbirlarni o‘tkazish orqali uning nufuzini oshirish barchamizning kechiktirib bo‘lmaydigan vazifamizdir.

Xulosa qilib aytganda, komil inson bo‘lib etishish uchun kitobning o‘rni beqiyosdir. O‘quvchilarni kitob bilan ishilashga odatlantirish ham tarbiyaviy ahamiyatga ega. Kitobxonlik yoshlarning ma’naviy boyligini oshiradi, ularni mehnat va ijodiy yo‘lga boshlaydi. Kitob hayotning ulug‘vorligini anglab olishga, u haqida mustaqil fikr yuritishga yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. “Китоб маҳсулотларини нашр этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғиб қилиш бўйича комплекс чора-тадбирлар дастури тўғрисида” ПҚ-3271-сон 13.09.2017.

# UMUMTA'LIM MAKTABLARI O'QUVCHILARIGA MUSIQIY RITMIK HARAKATLARINI O'RGATISH

***X.S.IBRAGIMOVA,***
*TDPU o'qituvchisi*

*Maqolada maktab o'quvchilariga musiqiy ritmik harakatlarni o'rgatish bilan bog'liq muammolar ochib berilgan.*
***Kalit so'zlar:*** *ritm, musiqa, harakat, o'qitish, o'quvchi, umumiy o'rta maktab.*

*The article reveals issues related to teaching schoolchildren musical rhythmic movements.*
***Key words:*** *rhythm, music, movement, teaching, pupil, general secondary school.*

*В статье раскрываются вопросы, связанные с обучение школьников музыкальным ритмическим движениям.*
***Ключевые слова:*** *ритмика, музыка, движение, обучение, ученик, общая средняя школа.*

Musiqa odamlar o'rtasidagi eng muhim aloqa vositalaridan biri bo'lib, ajralmas shaxsni shakllantirishga hissa qo'shadigan aqliy va jismoniy rivojlanishning uyg'un kombinatsiyasini, axloqiy pokligini va hayotga hamda san'atga estetik munosabatni tarbiyalashga yordam beradi. Estetik tarbiya bolalarning go'zalliklarni idrok etish, his qilish va tushunish, yaxshi va yomon tomonlarini payqash, o'z-o'zidan ijodiy harakat qilish, shu bilan turli xil badiiy faoliyat turlarida qatnashish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Bolalarni har xil hissiy va majoziy mazmundagi asarlar bilan tanishtirib, ularni hamdard bo'lishga undaymiz. Masalan, Vatan haqidagi qo'shiqlar bolada vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalaydi. Turli millatlarning dumaloq raqslari va qo'shiqlari ularning urf-odatlariga qiziqishni uyg'otadi, bu esa bag'rikenglikni tarbiyalashga yordam beradi.

Musiqani qabul qilish xulq-atvorning umumiy madaniyatiga ta'sir qiladi. Musiqiy faoliyatning har xil turlarining almashinuvi diqqatni, aqlni, tezkor reaksiyani, uyushqoqlikni va irodaviy harakatlarning namoyon bo'lishini rivojlantiradi. Musiqiy faoliyat bola shaxsining axloqiy fazilatlarini shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlarni va kelajakdagi odam madaniyatining dastlabki asoslarini yaratadi. Eshitish retseptorlari butun inson tanasining umumiy holatiga ta'sir qiladi, qon aylanishining o'zgarishi, nafas olish, qo'shiq aytish bilan vokal apparatini rivojlantiradi, ovoz kordlarini kuchaytiradi va nutqni yaxshilaydi. Qo'shiq aytayotgan bolaning to'g'ri holati nafasni tartibga soladi va chuqurlashtiradi.

Ritm darslari musiqa va harakat o‘rtasidagi munosabatlarga asoslanadi, bolaning holati va muvofiqlashuvini yaxshilaydi. Musiqiy asarlardagi yorqin badiiy obrazlarni hech narsa va hech kim o‘rnini bosa olmaydi, ular insonning buyuk fikrlari va chuqur hissiyotlari dunyosini ifodalaydi, hissiy munosabat uyg‘otishga qodir, qalbning estetik tomoniga ta’sir qiladi, bu esa ta’limning asosiy manbai va vositasiga aylanadi.

***Musiqiy faoliyat*** – bu bolaning yanada samarali rivojlanishiga, uning turli sohalardagi qobiliyatlarini ochib berishga va amalga oshirishga yordam beradigan faoliyat. Bunday ish kompensatsiya jarayonlarini faollashtirishga, bolalarning kognitiv faoliyatidagi kamchiliklarni bartaraf etishga yoki ularni yo‘q qilishga qaratilgan maxsus mashg‘ulotlar tizimini anglatadi.

Ta’lim musiqiy ma’lumotlar, yosh xususiyatlari va bolalarning sog‘lig‘i holatini hisobga olgan holda individual ravishda amalga oshiriladi. Musiqiy asboblarni chalishni o‘rganish bilan bir vaqtda o‘quvchilarning musiqiy qulog‘ini, eshitish e’tiborini rivojlantirish; garmonik va tembrli eshitishni rivojlantirish; ritm tuyg‘usi, musiqiy xotira, musiqiy ijrolar, o‘ynashning musiqiy texnikasini rivojlantirish; asbob bilan erkin moslashishni rivojlantirish; mimika va pantomimikani rivojlantirish; oqilona harakatlarni, to‘g‘ri ovoz chiqarish qobiliyatlarini, asarlarni ifodali ijro etishni o‘zlashtirish; nafas olish qobiliyatlarini rivojlantirish; eshitish; o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatini rivojlantirish, tovush sifati, barmoqlar harakati epchilligi, asboblarni chalishda qo‘llarni muvofiqlashtirish; kuyni yaxlit idrok etish va ijro etish ko‘nikmalarini rivojlantirish; aloqa nuqtalarining ta’rifi.

Sinf xonasida o‘quvchilarning yoshi va psixologik va fiziologik xususiyatlarini chuqur o‘rganish asosida shaxsiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun sharoitlar yaratiladi. Ta’lim va tarbiya usullari, vositalari va shakllarini maqbul tanlovi amalga oshiriladi. O‘qituvchilar ishida pedagogik muloqotning samarali pedagogik texnologiyalari, psixologik iqlim va muvaffaqiyat holatini yaratish, shuningdek, muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish qo‘llaniladi.

Birinchi darslardan boshlab musiqa yordamida turli xil usulda gapirishni o‘rganishi mumkin: o‘qituvchining o‘yinini tinglaydi va eshitganlari haqida so‘zlar bilan aytib beradi; bola o‘qituvchining o‘yinini tinglaydi va havoda qo‘llarining harakatlari bilan qanday musiqa (baland ovozda – jim, silliq impulsiv, tez-sekin) ko‘rsatishga harakat qiladi. O‘qituvchi musiqa tabiatiga mos ravishda tana, yuz ifodalari ifodali bo‘lishiga e’tiborni qaratadi; musiqa tovushlari, stolda o‘tirgan

oʻquvchi qoʻllari bilan havoda silliq yoyi boʻlgan musiqiy iborani "belgilaydi". Soʻz oxirida aynan qoʻllar yana stolga tegishi uchun harakatni yaxshilab hisoblash kerak.

Ushbu vazifa uchun musiqaning yuqori aniq va past harakatlari bilan, xuddi shu kabi qoʻllarning harakati bilan birlashtirilishi yaxshiroqdir.

Musiqadagi intonatsiya bilan tanishish inson nutqi intonatsiyasi bilan taqqoslash orqali yuzaga keladi. Bularning barchasi bolaning rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi.

**Adabiyotlar:**


1. Кострицкая И.В. Музыкально-ритмическое воспитание в разных педагогических практиках. Теоретический анализ // Вестник красноярского государственного педагогического университета имени В.П. Астафьева. – К., 2006. – С. 70-71.
2. Хорошилова Т. Развиваем у детей чувство ритма // Дошкольное воспитание. – М., 1991. – № 1. – С. 100-104.

# O‘QUV-DALA AMALIYOTIDA TALABALARNING KASBIY METODIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH ORQALI MAKTAB O‘QUVCHILARI BILAN ISHLASH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

***D.A.MAMATQULOV,***
*TDPU b.f.n prof,*
***M.B.ONGAROV,***
*TDPU katta o‘qituvchisi*

*Mazkur maqolada o‘quv-dala amaliyotida talabalarning kasbiy metodik tayyorgarligini oshirishga qaratilgan bir nechta tavsiyalar berib o‘tilgan. Talabalarning kasbiy bilim darajasini rivojlantirish orqali kelajakda o‘quvchilar bilan ishlash ko‘nikmalarini oshirishning bir nechta ustivor vazifalar ko‘rsatilgan. Biologiya fanini bilish orqali o‘quvchilarning olamni bilishga, u orqali atrof muhit va tabiatga oqilona munosabatda bo‘lish yo‘llari ko‘rsatib o‘tilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Amaliyot, ekskursiya, tabiyat, hayvonlar, relyf, o‘simlik, malaka, ko‘nikma, hashorat, tuproq.*

*В данной статье приводится ряд рекомендаций, направленных на повышение профессионально-методической подготовки студентов на производственной практике. Было определено несколько приоритетов для улучшения навыков студентов по работе со студентами в будущем путем развития их профессиональных знаний. Благодаря знаниям биологии студентам показывают способы познания Вселенной, а через нее - рациональный подход к окружающей среде и природе.*

***Ключевые слова:*** *Практика, экскурсия, природа, животные, рельеф, растение, мастерство, мастерство, насекомое, почва.*

*This article provides a number of recommendations aimed at improving the professional and methodological training of students in industrial practice. Several priorities were identified to improve students’ skills in working with students in the future by developing their professional knowledge. Thanks to the knowledge of biology, students are shown the ways of knowing the Universe, and through it - a rational approach to the environment and nature.*

***Key words:*** *Practice, excursion, nature, animals, relief, plant, skill, craftsmanship, insect, soil.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-avgust, PQ-4805-sonli qarorida “Kimyo va biologiya fanlari bo‘yicha ta’lim sifatini tubdan oshirish”, umumta’lim maktablarida ushbu fanlarni o‘qitishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish, ta’lim muassasalarini zamonaviy laboratoriyalar, darsliklar va boshqa o‘quv jihozlari bilan ta’minlash, ushbu yo‘nalishlarga malakali o‘qituvchi-murabbiylarni

jalb etish, kadrlar tayyorlash va ilm-fan natijalaridan foydalanishda ta’lim, ilm-fan va ishlab chiqarish sohalari o‘rtasida o‘zaro yaqin muloqot va hamkorlikni yo‘lga qo‘yish belgilab berilgan. Ushbu qarordan kelib chiqqan holda bo‘lg’usi biologiya fani o‘qituvchilarni o‘quv-dala amaliyotida kasbiy metodik tayyorgarligini rivojlantirish orqali talabalarni kasbga tayyorlash amaliyotni oldiga qo‘ygan eng asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi va o‘quv-dala amaliyotini o‘tkazish bo‘yicha o‘z oldiga quyidagi vazifalarni qamrab oladi.

Jumladan o‘quv-dala amaliyoti mobaynida o‘qituvchi va talaba faoliyatini uyg‘unlashtirish, o‘quv-dala amaliyoti jarayonini samarali tashkil qilish, talabalarni o‘quv-dala amaliyotida nazariy o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalarini o‘quv-dala amaliyotida mustaqil qo‘llay olishini yanada takomillashtirish orqali, kelajakda biologiya fani bo‘yicha o‘quvchilarga o‘z bilim ko‘nikma va malakalari bilan tushintrib bera olish nazarda tutiladi.

O‘quv-dala amaliyoti mobaynida tirik hayvonlar bilan kuzatish ishlarini olib borish, ularning sistematikasi, tarqalish hududi, yashash arealini, kuzatayotgan hayvonning oziqaviy muhiti bilan uzviy bog‘liqligini zamonaviy texnologiyalarni qo‘llagan holda o‘rganish bilan maktab yoshidagi o‘quvchilarga zoologiya fani misolida aniq tasvirlab berishi mumkin.

O‘quv-dala amaliyoti davrida talabalarni o‘zlari qziqqan mavzu bo‘yicha mustaqil ta’lim topshiriqlarini o‘quv-dala amaliyotiga xos mazmunda ishlab chiqish va amaliyot yakunida mustaqil ta’limni bajarilishini nazorat qilish vazifalarini qamrab oladi. Mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarish jarayonida o‘quvchilar uchun ko‘plagan ma’lumotlarga ega bo‘lishadi.

O‘quv-dala amaliyotiga olib chiqishdan nazarda tutitilgan maqsad umurtqasiz hayvonlarning tabiatda yashash tarzini, biologiyasini, morfologiyasini, anatomiyasini, fiziologiyasini tabiatda erkin holda uchrashini talabalar bilan birgalikda kuzatishdan iborat va bu orqali o‘zlari tabiiy holda ko‘rgan hayvonlar va o‘simliklarni o‘quvchilar ongiga yetkazib berish muhim hisoblanadi.

O‘quv-dala amaliyotida talabalar hayvonlarni tabiiy yashash muhitida, ya’ni biotoplarda o‘rganadilar. Amaliyot davomida o‘rganilayotgan joyning relyefi, tuprog‘i, o‘simliklar dunyosiga boyligi shuningdek foydali  noyob hamda Qizil kitobga kiritilgan o‘simliklar va hayon turlariga alohida etibor beriladi.

Amaliyotda imkoni boricha parazit hayvonlarni ham o‘rganish maqsadga muvofiq. Chunki umurtqasiz hayvonlarning 100 mingdan ortiq turli hil hayvonlar, o‘simliklar va hayvonlarda parazitlik qilib yashaydi. Parazit hayvonlar yashash sharoiti, tuzulishi, hayot tarzi va boshqa xususiyatlariga ko‘ra, erkin holda yashovchi hayvonlardan tubdan farq qiladi. Mahalliy sharoitdan kelib chiqqan holda raxbar o‘qituvchi bilan birgalikda parazit hayvonlarning ma’lum bir guruhlari,

bir hujayrali sodda parazit hayvonlar,  parazit chuvalchanglar, yoki parazit bo‘g‘imoyoqlilar va boshqa hayvonlarni o‘ragnish lozim. O‘quv-dala amaliyoti davomida har bir talaba suv havzalari faunasining 30-35 vakilini, tuproqda yashaydigan hayvonlarning taxminan 25-30 turini va yer yuzida yashaydigan hashoratlarning 75-80 turini bilishi kerak.

O‘quv-dala amaliyotida o‘rganilayotgan mavzuning didaktik maqsadi, vazifalari, mazmunidan kelib chiqqan holda talabalaring bilish faoliyati individual, kichik guruhlarda tashkil etiladi[4].

Talabalarning o‘quv-dala amaliyoti davridagi bilish faoliyatini samarali tashkil etish va oqilona boshqarish uchun  amaliyot o‘qituvchisi quyidagilarni bajarishi lozim:

O‘rganilayotgan mavzuning ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlaridan kelib chiqqan holda, talabalaming bilish faoliyatini samarali tashkil etish;

Talabalaming amaliyot davridagi ishlarini loyixalash;

O‘qitishdan ko‘zda tutilgan maqsadni amalga oshirish yo‘llarini belgilash;

O‘quv-dala amaliyot darslari davomida  talabalaming bilish faoliyatidan olingan natijani tahlil qilish va uning maqsadga muvofiqligini tekshirib ko‘rish;

Zarur hollarda talabalarning bilish faoliyati loyihasiga tegishli o‘zgartirishlar kiritish, o‘quv amaliyotining mazmunidan kelib chiqqan holda o‘zgartiriladi.

Hozirgi zamon ta’lim-tarbiya jarayonida o‘z mavqeini saqlab kelayotgan an’anaviy ta’lim, talabalarni o‘qitishni va talabalarning bilish faoliyati passiv tinglovchi sifatida tashkil etishni nazarda tutadi. Shu sababli talabalarni o‘z o‘quv faoliyatining to‘laqonli subyektiga aylantirish, pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish, o‘qitish samaradorligini orttirish maqsadida biologiyani o‘qitish jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash zarur ekanlgini bildiradi.

Hozirgi kundagi ta’lim tizimida o‘quv-dala amaliyotini tashkil qilishda yetakchi rol o‘ynayotgan an’anaviy ta’limni mazmunan yangilash va ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni tubdan o‘zgartirishga qaratilgan texnologiyalami didaktik maqsadlariga ko‘ra quyidagi guruhlarga ajratish mumkin[3]:

Talabalarning amaliyot davri davomida, bilish faoliyatini faollashtirish va ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan pedagogik texnologiya;

O‘quv-dala amaliyotidagi ta’lim jarayonini tashkil etish va boshqarishning samaradorligini oshirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalar;

Amaliyot davrida to‘plangan o‘quv materialini didaktik jihatdan takomillashtirish va qayta ishlash asosidagi pedagogik texnologiya;

Yuqorida keltirilgan texnologiyalarni o‘quv-dala amaliyoti davomida qo‘llay olsak birinchidan talabalarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil qilamiz va buning

asosida talabalarning bilish faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yilgan xisoblanadi.

Insoniyat paydo bo‘libdki tarbiya jarayoni mukammlalashib kelmoqda, tarbiya paydo bo‘lgan paytdan beri ayniqsa o‘qituvchining pedagogik faoliyati davom etib hozirgi kunda ko‘plab o‘zgarish va yutuqlarni ko‘rish mumkin. Pedagogik faoliyatning talabalar bilan samarali bo‘lishi uchun o‘qituvchida qobiliyatning bir qancha turlari mavjud bo‘lishi kerak. O‘quv-dala amaliyotini talabalarga bilim berishda va o‘zaro munosabatni samarali tashkil qilishda katta ahamiyatga ega, bunday qobiliyatga ega bo‘lgan o‘qituvchi fanni o‘quv kursi hajmida emas, balki ancha keng va chuqurroq biladi, o‘z fani sohasidagi kashfiyotlarni kuzatib boradi, unga qiziqadi ilmiy tadqiqot ishlarini ham birgalikda olib boradi.

O‘quv-dala amaliyotida talabalarning kasbiy metodik tayyorgarligini rivolantirish, ularning amaliyot davrida o‘zlashtirilgan bilimlar asosida kelajakdagi faoliyatida o‘quvchilarni biologiya fani bo‘yicha bilim va tasavvurlarini shakllantirish amaliyot oldida turgan masalalardan biri sanaladi.

Talabalarni nazariy olgan bilimlarini amaliyotda qo‘llashda amaliyot o‘tkaziladigan joyning o‘rni muhim ahamiyat kasb etadi, talabalarni dast avval ekskursiyalarni ahamiyati haqida tushintirib berishimiz va ekskursiyalarning kelajakdagi talabalarning kasbiy faoliyatida muhim ekanligini bilishi kerak. Ekskursiyalar tabiatda, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi, muzey yoki o‘rmonzorlarda o‘tkaziladi. O‘quv xonasida o‘tkaziladigan dars va laboratoriya mashg‘ulotlari bilan bir qatorda ekskursiyalar o‘qitish jarayonida katta ahamiyatga ega.

Tabiatdagi kuzatishlar talabalarni mustaqil ishlash qobiliyatini o‘stirishga, ularni tabiatga qiziqishini fikrlashga yordam beradi. Talabalar tabiatdagi har bir organizmning yashash uchun kurashishini kuzatar ekanlar ularda tabiatni o‘rganishga bo‘lgan intilishlari kuchayadi. Tabiat go‘zalliklari talabalarni estetik didlarini rivojlanishiga yordam beradi. Ekskursiyalar vaqtida talabalar tabiatni muxofaza qilish ruhida tarbiyalanib boradilar undan tashqari ishlash aktivligini rivojlantiradi va ularni jismoniy jixatdan chiniqishlariga yordam beradi bularning natijasida ekskursiyalar o‘qituvchiga biologiya fanini o‘qitishni bir qator tarqatma materiallarini yig‘ib olish imkoniyatini beradi.

Xulosa qilib aytganda, o‘qitish jarayonining samaradorligi o‘qituvchi tomonidan talabalarning bilish faoliyatini o‘qitish vazifalari va maqsadlariga muvofiq tashkil eta olish ko‘nikmalarini egallaganlik darajasiga bog’liq bo‘ladi.

Ma’lumki o‘qituvchining faoliyati o‘quv-dala amaliyotning kechki darslarini o‘qitish jarayonini tashkil etishda, asosan talabalarning bilish faoliyati uchta tarkibiy qisimga ajratiladi.

Kechki darslarda o‘quv maqsadlariga erishish ya’ni muayyan o‘quv fani asoslarini o‘zlashtirish uchun o‘quv axborotni tinglash, mustaqil ishlash, o‘qish, matn va referat tayyorlashga qaratilgan faoliyat.

O‘quv fanining asosiy nazariy bilimlarni amaliyotga qo‘llash maqsadida, raxbar o‘qituvchi ko‘rsatmasiga muvofiq topshiriqlarni bajarish.

O‘zlashtirilgan bilimlarni kutilmagan vaziyatlarda amaliyotga mustaqil qo‘llash, olingan natijalarning haqqoniyligini o‘z-o‘zini nazorat qilishning turli shakillari orqali aniqlashga qaratilgan faoliyat.

O‘quv dala amaliyoti davrida o‘qituvchi faoliyatining har bir bosqichi amaliyotdagi taxsil oluvchilarning harakteri va shaxsidagi o‘zgarishlarga olib keladi. Shu sababli o‘qituvchi faoliyatini amalga oshirishda muayyan bosqichdagi, o‘quv fani va uning har bir bo‘limidagi o‘qitish maqsadlarini aniq bilishi va chuqur tahlil qilishi lozim.

O‘quv-dala amaliyoti davrida talabalarga biologik tushunchalar singdrilib bu keljakdagi pedagogik faoliyatida kasbga bo‘lgan mehrini yanada oshiradi shunday ekan asosiy maqsad yetuk o‘z kasbini mohir egasi qilib tarbiyalash zarurligini ko‘rsatadi.

**Foydalinlgan adabiyotlar:**

1. 2020 yil 12 avgustdagi PQ 4805 Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta‘lim sifati ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g’risidagi qarori.

2. Dadayev S. Umurtqasizlar zoologiyasi o‘quv predmetidan amaliy mashg‘ulotlar. Oliy o‘quv yurtlarining bakalavriat bosqichi biologiya yo‘nalishi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. “Navro‘z” nashryoti. T.2018.

3. J.O Tolipova A.T G’ofurov, Biologiya o‘qitsh metodikasi Toshkent 2004 y.

4. С.М.Дзидзоева. Педагогическая практика как условие развития исследовательких компетенций студентов. Растов-на-Дону 2009. г.

5. J.O Tolipova, A.T G’ofurov Biologiya o‘qitish metodikasi. Biologiya va inson hayotiy faoliyati muhofazasi ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun Darslik. T:.2012.

6. Saparov K.A., Haydarova P.B., Yo‘ldasheva M. Umurtqasiz hayvonlar Zoologiyasidan o‘quv-dala amaliyotini olib borish. Metodik qo‘llanma. T:.2012.

7. Dadayev S. Umurtqasizlar zoologiyasi o‘quv predmetidan amaliy mashg‘ulotlar. Oliy o‘quv yurtlarining bakalavriat bosqichi biologiya yo‘nalishi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. “Navro‘z” nashryoti. T.2018.

8. Dadayev S., Saparov K. Jumanov M Entomologiya. Oliy o‘quv yurtlarining bakalavriat bosqichi biologiya yo‘nalishi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. N.: 2018.

# O'QITUVCHILARNING METODIK TAYYORGARLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

***D.ELMURATOVA,***
*GulDU boshlang'ich ta'lim kafedrasi, (PhD),*
***R.XUJAMKULOV,***
*GulDU magistri*

*Ilg'or pedagogik va axborot tehnologiyalarni amaliyotga qo'llash zamon talabi, bunday vazifalarni bajarish oson emas. Buning uchun maxsus o'quv-metodik qo'llanmalar va ta'limiy didaktik vositalar, masala va mashqlar to'planib, turli kasblar bo'yicha ma'lumotlar tayyorlanadi. Mazkur maqola ta'lim muassasalarida fan o'qituvchilarning metodik tayyorligini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan.*

***Kalit so'zlar**: bilim, ko'nikma va malaka, o'qituvchi, pedagogic jamoa, o'quv-tarbiya jarayoni, metodik ishlarini tashkil etish, ilg'or tajriba vositalari, metod va vositalari.*

*The application of advanced pedagogical and information technologies in practice is a modern requirement, and such tasks are not easy to accomplish. For this purpose, special teaching aids and teaching aids, problems and exercises are collected and information on various professions is prepared. This article is devoted to the development of methodological training of science teachers in educational institutions.*

